

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA‘LIM VAZIRLIGI

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
O‘ZBEK TILI, ADABIYOTI VA FOLKLORI INSTITUTI

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

**Mamatqul JO‘RAYEV, Darmonoy O‘RAYEVA,
Munis JO‘RAYEVA**

FOLKLOR AMALIYOTI

Universitet va pedagogika institutlarining 5120100 – Filologiya va tillarni o‘qitish (o‘zbek tili) bakalavr ta‘lim yo‘nalishi 1-kurs talabalari uchun «Folklor amaliyoti» bo‘yicha o‘quv qo‘llanma

**“Durdona” nashriyoti
Buxoro - 2021**

УЎК 398.1(075.8)

82(5Ў)

Ж 96

Жўраев, М., Ўраева, Д., Жўраева, М.

Фольклор амалиёти [Матн] : ўқув қўлланма / М. Жўраев, Д. Ўраева, М.

Жўраева.-Бухоро: "Sadriddin Salim Buxoriy" Durdona, 2021.-144 б.

КБК 82(5Ў)

Xalqimiz tomonidan asrlar mobaynida yaratilib, zukko ajdodlarimizning beqiyos badiiy iqtidori tufayli sayqallanib kelgan folklor asarlarini yozib olish xilma-xil janrlardan iborat nodir ma'naviy qadriyatlar tizimini kelgusi avlodga saqlab qolishda g'oyat muhim amaliy ahamiyat kasb etadi. Filologiya fakulteti talabalari tomonidan o'tkaziladigan folklor amaliyotining asosiy maqsadi ham asrlar davomida ezgulikni tarannum etib kelgan bu tafakkur durdonalarini izchil to'plash, yosh avlodni xalqimizning benazir badiiyat durdonalari bilan tanishtirish orqali ularni ezgu an'analar ruhida tarbiyalashdan iboratdir. Mazkur o'quv qo'llanmasida folklor to'plovchilik ishining maqsadi va vazifalari, xalq og'zaki badiiy ijodi asarlarini yozib olish metodlari, talabalar folklor amaliyotini tashkil etish va o'tkazish usullari, folklor asarlarini arxivlashtirish, xalq ijodi namunalarini nashrga tayyorlash mezonlari keng yoritilgan.

O'quv qo'llanma universitet va pedagogika institutlari filologiya fakultetlarining bakalavriyat tizimida tahsil olayotgan talabalariga mo'ljallangan.

Mas'ul muharrir:

F.f.d., Sh.Turdimov

Taqrizchilar:

F.f.d., prof. S.Mirzayeva

F.f.d. D.Rajabov

**O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim
vazirligining 2021-yil 31-maydagi 237-sonli buyrug'iga
asosan nashr etishga ruxsat berildi. Ro'yxatga olish raqami
237-196.**

ISBN 978-9943-7703-3-1

O'ZBEK FOLKLORINING YOZIB OLINISHI VA TO'PLANISHI TARIXI

O'rta asr yozma yodgorliklari va o'zbek xalq ijodi

O'zbek folklori asarlarining to'planishi va yozib olinishi tarixi haqida so'z yuritganda X asrda yashab ijod qilgan mashhur muarrix Abu Bakr ibn Ja'far Narshaxiyning "Buxoro tarixi" asarida shahar va qishloq nomlari, tarixiy obidalar hamda o'tmishda bo'lib o'tgan voqea-hodisalar haqidagi xalq rivoyatlari, afsonalari keltirilganligi, XI asrning buyuk olimi Mahmud Koshg'ariy turkiy qavmlar diyorini kezib, maqol, matal, qo'shiq, rivoyat va afsona singari folklor janrlariga oid boy materiallarni yozib olib, "Devonu lug'otit turk" asariga kiritganligini eslash kerak bo'ladi. Shuningdek, maqol va matallarni yozib olib, ularning xususiyatlarini o'rgangan Mahmud Zamaxshariy, qadimgi xorazmliklarning mif, afsona, rivoyat va hikoyatlarini "Qisasi Rabg'uziy"ga jamlagan Nosiruddin Burhonuddin Rabg'uziy, o'zbek xalq she'riyatining janrlar tarkibi xususida fikr yuritgan Alisher Navoiy, ulug' o'zbek shoiri to'g'risidagi xalq rivoyatlarini naql qilgan tarixnavis Xondamir, musiqa folklorining turli xil janriy rang-barangligiga doir materiallarni yozib qoldirgan Darvesh Ali Changiy, o'zbek xalqining urf-odatlar, marosimlari, maqol va hikmatli so'zlari, rivoyatlari haqida qiziqarli faktlarni keltirgan Zahiriddin Muhammad Bobur, o'zi tuzgan lug'atda xalq qo'shiqlaridan misollar keltirgan Shayx Sulaymon Buxoriy o'zbek folklori asarlarining ilk to'plovchilari edilar.

Ma'lumki, Mahmud ibnu-l-Husayn ibn Muhammad Koshg'ariy 1029-1038-yillar oralig'ida tug'ilgan. U 1072-yilda o'zining "Devonu lug'otit turk" asarini yozishga kirishgan va uni 1078-yilda nihoyasiga yetkazgan. Bu asarni yozishdan avval u uzoq-yillar mobaynida turkiy qabilalar istiqomat qiladigan barcha viloyatlarni kezib chiqqan va boy lingvistik, folkloristik va etnografik materiallarni to'plagan. Bu haqda uning o'zi shunday yozadi: "Men turklar, turkmanlar, o'g'uzlar, chigillar, yag'molar, qirg'izlarning shaharlarini, qishloq va yaylovlarini ko'p-yillar

kezib chiqdim, lugʻatlarini toʻpladim, turli xil soʻz xususiyatlarini oʻrganib, aniqlab chiqdim. Men bu ishlarni til bilmaganim uchun emas, balki bu tillardagi har bir kichik farqlarni ham aniqlash uchun qildim. Boʻlmasa, men tilda ularning eng yetuklaridan, eng katta mutaxassislaridan, xushfahmlaridan, eski qabilalaridan, jang ishlarida usta nayzadorlaridan edim. Ularga shuncha diqqat qildimki, turklar, turkmanlar, oʻgʻuzlar, chigillar, yagʻmolar va qirgʻiz qabilalarining tillari butunlay dilimga jo boʻldi. Ularni har tomonlama puxta bir asosda tartibga soldim”.¹

Keng koʻlamli toʻplovchilik faoliyati olib borgan Mahmud Koshgʻariy oʻzining ana shu safarlari chogʻida faqat lugʻat uchun lisoniy materiallar toʻplash bilangina kifoyalanib qolmasdan, balki folklor namunalarini ham yozib olgan. Buni olimning “men har bir qabilaga mansub soʻzlarning asalish xususiyatlarini va qanday qoʻllanilishini qisqacha izohlab koʻrsatish uchun alohida yoʻl tutdim. Bu ishda misol tariqasida turkiylarning tilida qoʻllanilib kelingan sheʼrlardan, shodlik va motam kunlarida qoʻllaniladigan hikmatli soʻzlaridan, maqollaridan keltirdim, toki, ulardan foydalanuvchilar naql qiluvchilarga, naql qiluvchilar esa oʻz navbatida shu tilda soʻzlovchilarga yetkazsin”.²

Demak, Mahmud Koshgʻariy turkiy qabilalar folklorining qoʻshiq, maqol, matal, marosim folklori, afsona, rivoyat kabi janrlariga oid katta material toʻplagan. Shuning uchun ham “Devonu lugʻotit turk” asaridagi folklor materiallarini oʻzbek xalq ogʻzaki badiiy ijodi namunalari bilan qiyosiy oʻrganish folklorining tarixiy taraqqiyotini tadqiq etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, “Devonu lugʻotit turk” leksikasining oʻzbek folkloridagi koʻrinishlariga doir ilmiy kuzatishlar olib borgan H.Zarifov 1961-yil 21-fevralda quyidagilarni yozgan edi: “Devon”dagi leksik va grammatik faktlarni oʻzbek tiliga oid barcha yozma asarlar tili bilan qiyosiy tekshirish qanchalik ahamiyatga ega boʻlsa, u

¹ **Махмуд Кашғарий.** Девону луғотит турк. 1-том. – Тошкент: Фан, 1960. 44-бет.

² Ўша асар. 47-бет.

faktlarning o'zbek folklorida va shevalarida mavjudligini aniqlash ham shunchalik muhimdir".¹

Bu asarda ajdodlarimizning osmon yoritqichlari bilan bog'liq mifologik hamda kosmogonik tasavvurlariga oid qiziqarli ma'lumotlar uchraydi. Olim "Devon"ning 1-jildida "**oy**" so'ziga izoh berar ekan, "o'n to'rt kunlik oyga *"tolun aj"* (to'lin oy) deyiladi" deb yozadi va *"a:j tolun bolsa eligin imlamas"*, ya'ni "Oy to'lin bo'lsa, qo'l bilan imlanmas" maqolini keltiradi ("Devon", 1, 110-111-betlar).

To'lin oy ko'ringan tarafga qarab qo'l bilan imlamaslik tabusi XI asrda istiqomat qilgan turkiy qavmlar orasida keng yoyilganligi bejiz emas. Chunki qadim zamonlarda yashagan ajdodlarimiz oy, quyosh va yulduzlarni muqaddaslashtirib, topinganlar. Quyosh va oyning kecha-kunduz o'rin almashib turishi, osmon to'la charog'on yulduzlarning jilolanib ko'rinishi qadimgi odamning e'tiborini jalb etgan. "Hudud al-olam" nomli asarda yozilishicha, qadimgi turkiy qavmlar, xususan, chigillar quyosh va yulduzlarga sig'inishsa, tatarlar bu olamda oftobdan muqaddasroq narsa yo'q deb bilishgan. Bu asarda qirg'izlarning bobokolonlari Zuhra va Mushtariy yulduzlarini mo'tabar sanashganligi haqida ham ma'lumotlar bor.²

N.Ya.Bichurinning guvohlik berishicha, qadimgi turkiylar erta tongda uyidan chiqqach, avvalo ufqdan bosh ko'tarayotgan quyoshga, kechqurun esa oyga ta'zim bajo keltirishni farz deb bilishgan. O'tovlarning eshigini kunchiqarga qaratib qurishga odatlangan uxuanlar esa yer, osmon, quyosh, oy, yulduzlarga, shuningdek, ota-bobolarining arvohlari haqiga qurbonliklar qilishgan³.

To'lin oy bilan bog'liq inonch-e'tiqodlar XX asrda ham xalqimiz orasida saqlanib qolgan. Rahmatulla Yusuf o'g'li yozib

¹ **Зарифов Х.** "Девону луғотит турк" лексикасининг ўзбек фольклориди кўринишига доир (тезислар) // Пўлкан шоир. – Тошкент: Фан, 1976. 96-бет.

² "Худуд ал-алам". Рукопись Туманского, изд. с **введением** и указателями **В.В.Бартольда**. - Л., 1930. С.43, 170.

³ **Бичурин Н.Я.** Собрание сведений о народах, обитавших в Средней Азии в древние времена. Т.1. – М.-Л., 1957. С.50, 142-144.

olgan ma'lumotlarga ko'ra, nurotaliklar «qovunlar oyning yorug'ida tugadi, to'lin oyning yorug'ida mol tug'lsa, iligi moyli bo'ladi, oy botganda tug'lsa moysizlikka aloqador. Hatto laylatulqadr ham xudo davlat ato etgan odamlarga oyga o'xshab yumalab keladi», - deb tasavvur qilishar ekan.¹

Buxoro viloyatining Qorako'l tumanidagi Qoraun qishlog'ida yashovchi 1890-yilda tug'ilgan Jumagul O'runovaning aytishicha, ilgari yangi oy tuqqanda odamlar "*Haq oy, haq oy, bosh eson, bag'ir butun, to'g'an oy – to'g'rayin go'sht, yanaki oylarga, yanaki-yillara o'ynab-kulib o'zing yetkazgaysan*" deb oy shu'lasining tig'iga oyna tutishar ekan. Go'yo shunday qilinsa, oynada "urushda bedarak ketgan farzandlarining surati ko'rinadi" deb ishonganlar.²

Mahmud Koshg'ariy arg'u qabilasi tilida qo'llaniladigan "**op**" so'zi "xirmon yanchuvchi ho'kizlarning o'rtasidagi ho'kiz" ma'nosini anglatishini qayd qiladi. Atoqli olim H.Zarifov "op" so'zi o'zbek xalq mehnat qo'shiqlari matnida "**xo'p**" shaklida ishlatilishini aniqlagan edi.³

Buxoro viloyatining Qorako'l tumanidagi Jig'achi qishlog'i shevasida "ho'p" so'zi "o'rib olingan bug'doyni bir joyga g'aram qilib, eshak yoki ho'kizlar yordamida yanchish" ma'nosini anglatadi. Buning uchun dehqonlar bug'doyni xirmonga g'aram qilib, o'rtasiga bir baland xodani ko'madilar. Keyin bir nechta ho'kiz yoki eshaklarni yonma-yon qo'yib, bo'ynidan bir-biriga bog'lab chiqiladi. Xirmon o'rtasidagi xodaga bog'langan ho'kiz esa "**ho'pchi**" deyiladi.

Alloma H.Zarifovning kundaliklaridan birida 1962-yil 20-iyulda yozilgan quyidagi ma'lumot mavjud: «yanchish uchun xirmonga keltirib, tayyorlab qo'yilgan, ya'ni yanchila boshlagan donli ekin "**ho'p**" deyiladi. Xirmondagi yanchilgan va somon

¹ ЎзР ФА Алишер Навоий номидаги Тил ва адабиёт институти Фольклор архиви. Инв.№1713.

² 1960 йил 26 апрелда Бухоро давлат педагогика институти IY курс талабаси Шариф Шериев ёзиб олган.

³ **Зарифов Х.** "Девону луғотит турк" лексикасининг ўзбек фольклорида кўринишига доир (тезислар) // Пўлкан шоир. – Тошкент: Фан, 1976. 97-бет.

hamda choridan ajratilgan don esa “**chosh**” deb ataladi». Quyidagi mehnat qo‘shig‘ida ham bu so‘z shu ma’noda qo‘llanilgan:

*G‘ujmoqi bug‘doy,
Donginang to‘q-ay,
To‘p bo‘l o‘rayik,
Xo‘pda ko‘rayik.*

“Ho‘p” so‘zi xirmon yanchish chog‘ida ijro etilgan “mayda” yoki “maydagul” nomli mehnat qo‘shiqlarida ham qo‘llanilgan:

*Sening enang siyirdi,
Suvlardan burnin jiyirdi,
Seni ho‘pga qo‘shsin deb,
Boboyi dehqon buyurdi,
Toyloqqinam mayda qil,
Mayda, he, mayda!*

*Sening enang biyadi,
Quruvlasam iyadi,
Seni bir ho‘pga qo‘shganda,
Boboyi dehqon suyadi,
Jonivorim mayda qil,
Mayda, he mayda!*

*Mayda dedim, ho‘p dedim,
Ho‘pga maylim yo‘q deding,
Ol sherigim, deganda,
Qizilini oz deding,
Somonini ko‘p deding,
Mayda, he mayda!¹*

Mahmud Koshg‘ariy o‘z asari uchun material to‘plaganida turkiy qabilalarning mifologik tasavvurlarini ham sinchiklab o‘rgangan. Zero, “Devon”da qush tuxumidan chiqqan it – “**baroq**” to‘g‘risidagi mif hamda Yetagan, Oltin qoziq (Temir qoziq) yulduzlari haqidagi samoviy qarashlar keltirilganligi ham shu fikrni tasdiqlaydi. “Qazunuq” - qoziq. Qutb yulduzini “Temur

¹ X.Зарифов тўплаган материаллардан.

qazunuq” deyish ham shundandir. “Temir qoziq” demakdir. Chunki osmon buning ustida aylanadi” (“Devon”, 3-jild, 3393-bet), – deb yozadi Mahmud Koshg’ariy. Olim “**ko’k tubulg’on**” so’ziga izoh berib, quyidagilarni yozadi: “ko’k tubulg’on – bir qushning nomi. Aytishlaricha, bu qushning ikki qanotida po’lat bo’ladi va qanoti bilan toqqa urib, bir tomondan boshqa tomonga o’tadi. Bu so’zni menga o’zim foydalanib yurgan bir kishi aytdi” (“Devon”, 1-jild, 474-bet).

Ko’rinadiki, bu mifologik afsonada qadimgi turkiylar folklorida mavjud bo’lgan xayoliy qush to’g’risidagi xalq qarashlari o’z ifodasini topgan. O’zbek tilida qattiq patlari o’sib chiqqan qush poloponini “*temirqanot bo’libdi*” deb ta’riflashda ham ana shu ko’hna tasavvurlarning izi saqlanib qolganga o’xshaydi.

Shu o’rinda Mahmud Koshg’ariyning folklor to’plovchi sifatidagi muhim bir xususiyati ham ko’zga tashlanib turibdi: olim “ko’k tubulg’on” haqidagi mifologik afsonani keltirar ekan, bu hikoyani u o’ziga hamrohlik qilgan bir kishidan eshitganligini alohida qayd qiladi. Folklor asarini so’zlab bergan aytuvchi, ya’ni ijrochi haqida ma’lumot berish esa xalq og’zaki badiiy ijodi namunasini yozib olishning ilmiy mezonlaridan biridir.

“Devonu lug’otit turk”da “yada toshi” bilan bog’liq mifologik tasavvurlar ham keltirilgan. “Devon”ning 3-jildi, 8-sahifasida quyidagilarni o’qiymiz: “**Yada** – yomg’ir, shamol va boshqalarni talab qilish uchun maxsus toshlar (yada toshi) bilan fol ochish usulidir. Bu odat ular orasida keng tarqalgandir. Men buni yag’molar shahrida o’z ko’zim bilan ko’rdim. U yerda paydo bo’lgan bir yong’inni so’ndirish uchun shunday fol qilingan edi, xudoning amri bilan yozda qor yog’di. Ko’z oldimda yong’inni so’ndirdi”.¹

Turkiy elatlar diyorini kezib, “yomg’ir toshi” to’g’risidagi xalq afsonalarini to’plagan Mahmud Koshg’ariy bu afsonaviy tosh yordamida tabiatga ta’sir o’tkazish marosimini shunday tasvirlaydi: “Bek yadachiga duo o’qitdi, Shuning uchun shamol esdi. Yomg’ir yog’di. Bu hodisa turklar mamlakatida

¹ **Кошғарий М.** Девону луғотит турк. 3-том. - Тошкент: Фан, 1963. 8-бет.

mashhurdir. Tosh orqali shamol, yomg'ir, sovuq qo'zg'otiladi".¹ "Devon" ning 3-jild, 322-sahifasida esa **"yatladi"** fe'lga "afsunchi yomg'ir yog'dirish uchun yada toshi bilan duo o'qitdi", – deb izoh berilgan.

Yada toshi haqidagi mifologik tasavvurlar qadimgi turkiy qavmlarning deyarli barchasiga ma'lum bo'lgan. X asrda yashab ijod qilgan muarrix Abu Do'lafning ma'lumotlariga qaraganda, "yomg'ir toshi"ni mo'tabar hisoblagan qorluqlar yashil rangli bu toshni aziz bilib sig'inishar, yog'in-sochin kamchil bo'lgan vaqtlarda uning sharafiga qurbonliklar qilisharkan.

Taniqli tilshunos olim L.Budagov esa "yada – sehrli tosh, uning yordamida yomg'ir va qor yog'diriladi yoki tindiriladi. Mo'g'ul tilidagi "dzada" so'zi yog'ingarchilik ma'nosini anglatadi",² – deb yozgan.

"Yomg'ir toshi" yordamida afsungarlik qilish udumi Alisher Navoiy davrida ham saqlanganligini "G'aroyibus sig'ar"ning "Qoshing mehrobini vasl ahli etmish qiblai maqsud" deb boshlanadigan g'azalidagi ushbu bayt ham tasdiqlaydi:

*Yada toshig'a qon yetgach, yog'in yog'qondek ey soqiy,
Yog'ar yomg'urdek ashkim chun bo'lur la'ling sharob olud.*

Zero, o'sha davrlarda ham lalmikor yerga ekin ekib, dehqonchilik qiluvchi sohibkorlar suv tanqis bo'lgan-yillari yada toshi vositasida tabiatdan yomg'ir tilaganlar. Shuning uchun ham Zahiriddin Muhammad Bobur o'zining "Boburnoma"sida Xoja Mulla Sadrni ta'riflar ekan: "Tolibi ilmligi bor edi, lug'atni xili bilur edi, inshosi ham yaxshi edi. Qushchulug'ni va yadachilikni ham bilur edi", – deydi.³ Ana shu ma'lumotning o'zi yada toshi haqidagi mifik tasavvurlar va bu tosh vositasida yomg'ir talab qilish bilan bog'liq marosim XVI asrda ham mavjud bo'lganligidan dalolat beradi.

¹ Кошғарий М. Девону луғотит турк. 2-том. - Тошкент: Фан, 1962. 410-бет.

² Будагов Л. Сравнительный словарь турецко-татарских наречий. Т.2. – М., 1899. С.351.

³ Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. – Тошкент: Фан, 1969. 98-бет.

Qozoqlarda *jay tas*, o'zbek, mo'g'ul, oltoy, turkman tillarida *yada*, yoqut tilida *saga*, tuvinchasiga *chag tash* deb yuritilgan "yomg'ir toshi" haqidagi irim-sirim va afsonalar qadimgi turkiy qavmlarning mifologik e'tiqodlari bilan bog'liqdir.

"Yada" toshi vositasida yomg'ir yog'dirish haqidagi mifologik tasavvurlar bugungi kunga qadar saqlanib qolgan. Xususan, Buxoro viloyatining G'ijduvon tumanidagi Ularbib qishlog'ida yashovchi 77 yashar Izzat bibi Majidovadan 1991-yildan yozib olingan ma'lumotga ko'ra, to'yida yomg'ir yog'adigan kishilarni "*yadasi bor*" deydilar. Agar bola yoshligida qatiq ivitilgan idishning tubini yalasa, to'yida qor yoki yomg'ir yog'adi, deb irim qilinadi.

Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asarida u yoki bu so'zlar ma'nosini izohlash, sharhlash maqsadida keltirilgan og'zaki nasriy asarlarni mifologik afsonalar, etnogenetik afsona va rivoyatlar, toponimik afsona va rivoyatlar, xalq taqvimi bilan bog'liq rivoyatlar, naqlarga bo'lib tavsiflash mumkin. "Devon"da "*Xudxur*" (1-jild, 135-bet), "*Qaz*" (3-jild, 163-bet) kabi toponimik rivoyatlar, "*Chigil*" (1-jild, 374-bet), "*Turkman*" (3-jild, 419-422-betlar) singari etnogenetik rivoyatlar, muchal hisobining kelib chiqishi haqidagi taqvimiy rivoyat (1-jild, 330-331-betlar) ham keltirilgan.

Mahmud Koshg'ariy o'z "Devon"ini "maxsus alifbe tartibida hikmatli so'zlar, saj'lar, maqollar...bilan bezash" maqsadida uch yuzdan ortiqroq maqolni kitobga kiritgan. Masalan, "*Tulki o'z iniga ursa, ujuz bo'lur*" (ya'ni "Tulki o'z iniga qarab ulisa qo'tir bo'ladi") maqolida o'zi tug'ilib o'sgan yurtiga, ona zaminiga, vataniga xiyonat qilgan kishining holi xarob bo'ladi degan purhikmat ma'no mujassamlashgan. Shuning uchun ham Mahmud Koshg'ariyning o'zi ushbu maqolni keltirar ekan, "bu maqol o'z elini, urug'ini yoki mamlakatini yomonlovchilarga qarata aytiladi" ("Devon", Indeks-lug'at, 12-bet) deb qayd qilgan. "Devon"da dangasalik va tanballik ("*Ermaguga bulut yuk bo'lur*", ya'ni "Yalqovga bulut soyasi ham yuk bo'lar"), mehnatsevarlik ("*Yazin qatig'lansa, qishin sevnur*", ya'ni "Yozda mehnat qilgan kishi qishda sevinar"), do'stlik va hamjihatlik ("*Yalng'uz qaz utmas*", ya'ni "Yolg'iz g'oz sayramas")

yoki *“Kengashlik bilik uzlashur, kengashsiz bilig o‘prashur”*, ya’ni *“Maslahatli ish bitadi, bemaslahat ish yitadi”*), mardlik, botirlik, jasurlik (*“Alp yag‘ida, alchaq jag‘ida”*, ya’ni *“Botir dushman bilan to‘qnashganda, yuvosh tirishishda sinaladi”*), donolik (*“Alp cherikda, bilga tirikda”*, ya’ni *“Botir jangda sinaladi, dono – majlisda”*) va boshqa ko‘plab mavzularga doir maqollar uchraydi. Bu esa X-XI asrlarda yashagan ajdodlarimiz qo‘llagan maqollar mavzu jihatidan rang-barang bo‘lganligidan dalolat beradi.

“Devon”dagi paremiologik materiallar xalq maqollarining genetik ildizlarini aniqlash, maqol janrining kelib chiqish tarixi va tadrijiy rivoji bosqichlarini o‘rganish, maqollarning badiiy shakli va mazmuniy xususiyatlaridagi o‘zgarishlarni tadqiq etishda muhim ilmiy qimmatga ega.

Xullas, XI asrning yirik filolog olimi Mahmud Koshg‘ariy turkiy qabilalar shevasiga oid lisoniy manbalarni to‘plash barobarida xalq maqollari, hikmatli so‘zlar, qo‘shiqlar, mif, afsona, rivoyat va naqlar, shuningdek, urf-odat va marosimlar, xalq qarashlari, e‘tiqodiy inonchlar hamda mifologik tasavvurlarga doir boy materiallarni yozib olgan.

Xalqimizning betakror ijodiy salohiyatini yuksak qadrlagan Alisher Navoiy ham o‘z davri folklorining deyarli barcha janrlariga oid qadriyatlardan samarali foydalangan. Shu bois, shoir asarlarida XV asr o‘zbek folklorining janrlar tizimiga doir **afsona, qissa, rivoyat, ertak, hikoyat, doston, ulug‘ ir, ayolg‘u, qo‘shiq, surud, o‘zmog‘, chang, changa** singari atamalar ko‘p qo‘llanilgan.

“Turk ulusi, bataxsis chig‘atoy xalqi aro shoyi’ avzondurkim, alar surudlarin ul vazn bilan yasab, majolisda aytish”larini qayd qilgan shoir XV asr o‘zbek marosim folklorida **changa** deb atalgan qo‘shiq turi mavjudligi xususida quyidagi qimmatli ma’lumotni bayon qilgan: “yana changidurkim, turk ulusi zufof va qiz ko‘churuv to‘ylarida ani ayturlar, ul surudedur bag‘oyat muassir va ikki nav’dur. Bir nav’i hech vazn bila rost kelmas va bir nav’ida bir bayt aytilurkim, munsarihi matviyi mavquv bahridur va yor-yor lafzini radif o‘rnig‘a mazkur qilurlar”.¹

¹ Алишер Навоий. Мезон ул-авзон. Ўн беш томлик. – Тошкент, 1967. 180-бет.

Shoir “changi”ning “hech vazn bila rost kelmaydigan nav’i” deganda nikoh to’yi marosimida ijro etiladigan “yor-yor”ni nazarda tutgan. “Saddi Iskandariy” dostonida to’y lavhasi shunday tasvirlangan:

*Mug’anniy tuzub changi vaznida chang,
Navo chekki, hay-hay o’lang, jon o’lang,
Desang senki: jon qardoshim, yor-yor!
Men aytayki: munglug’ boshim, yor-yor!
Navoiy, chu sarmanziling Chingadur,
Suruding dog’i sur aro chingadur.¹*

“**Changi**” atamasi Toshkent viloyati tumanlarida o’tkazib kelingan nikoh to’yida qiz-juvonlar yig’ilishib lapar, o’lan aytishadigan marosimning nomi sifatida XX asrga qadar saqlanib qolgan. M.Alaviyaning ma’lumotiga qaraganda, Toshkent viloyatining Sijjak qishlog’ida qo’shiqni “**chinka**” deb ataydilar. Qish-qirovli kunlarda biror kishi to’y qiladigan bo’lsa, xabarchilar odamlarni o’sha to’yga chorlaganda “*Falonchinikiga chinkaga!*” – deb chaqirgan. Sijjaklik 71 yashar Xolposhshaxon Mahmudxon qizining M.Alaviyaga bergan ma’lumotiga ko’ra, sunnat to’yida “Bola mast” qilib kelayotgan yigitlarning ashulasi eshitilganda ayollar “*Ana, yigitlar chinka aytib kelayaptilar*”, – deyishar ekan. Piskentda ham to’y bazmida biror katta daraxtning to’nkasi yoki eski moyjuvozning kundasi, hech bo’lmasa, ishdan chiqqan ko’hna o’g’ir-kelini moyga to’ldirib, davra o’rtasiga qo’yib yoqishgan. Ana shuning yorug’ida qo’shiq aytishib, o’yin-kulgi qilganlar. Namangan viloyatining Chust tumanidagi Karkidon qishlog’ida qiz uzatarda qizning otasi fотиha bergandan keyin “yor-yor” boshlanadi. Qizni o’rtaga qo’yib “yor-yor” aytishni “*Qiz chinkaga o’tirdi*” yoki “*Chinka boshlandi*” deb ekanlar.²

Sayram tumanidagi Qoramurt qishlog’ida esa o’g’il to’ylarida yigit-qizlarning o’rtaga gulxan yoqib, uning atrofida qo’shiq aytish udumi “**chiyna**” deb yuritilgan:

Laparchilar yig’ilib chiyna qilur,

¹ Алишер Навоий. Хамса. – Тошкент, 1958. 1516-1517-бетлар.

² Алавия М. Ўзбек халқ маросим қўшиқлари. – Тошкент.: Фан, 1974. 43-бет.

*Yomon odam har gapni gina qilur,
Yaxshi odam o'ynab-kulib kechirur,
Yomon odam qon-zardob ichirur.*¹

1963-yil 20-avgustda Sayramda dialektologik ekspeditsiyada bo'lgan tilshunos S.Zufarov "chinka" so'zi sunnat to'yida kechqurun o'tkaziladigan o'yin-kulgi bazmi ma'nosini anglatishini aniqlagan. Ma'lum bo'lishicha, sayramliklar sunnat to'yi kechasi o't yoqib, shuning atrofida o'yin-kulgi qilish udumini **"chinka"** deb atashar ekan. Bu udum Sayram tumanining ba'zi qishloqlarida **"chaqachumbirchoq"** nomi bilan ham yuritilar ekan.

Surxon vohasida sunnat to'yi marosimida kechki payt o'yin-kulgi qilinadigan joy, maxsus tayyorlangan davra **"chanqi"** deyilishi ham bevosita Alisher Navoiy asarlarida qayd etilgan "changi" atamasi bilan bog'liq. Sariosiyo tumanida o'tkaziladigan xatna to'yi marosimida qo'llaniladigan "chanki" so'zi umumo'zbek folklorida qadimdan ishlatilib kelingan atama bo'lib, qo'shiq hamda lapar aytiladigan, o'yin-kulgu qilinadigan marosim nomi sifatida ishlatilgan.

Tilshunos olim E.Umarovning aniqlashicha, "shoir asarlarida chinga, changi, ching, chang deb yozib kelinayotgan bu atamaning asli "chinka" bo'lib, turkiy tilning qadimgi holatini o'zida ko'proq saqlab qolgan tuva tili ma'lumotlari bu atamaning tuzilishi **chi** – ingichka (qiyoslang: chiyillamoq) + **in** – ovoz (qiyoslang: indamadi) + **ka** (qo'shimcha) bo'lib, u qizlarning nikoh kechasida o'z ovul va qarindoshlaridan uzoqlashuvida ingichka ovozda aytiladigan g'am-g'ussali, dardli ashulasi ma'nosini anglatadi.² V.V.Radlov esa bu so'zning **"chdngd"** shaklidagi variantini "xalq qo'shiqlarining bir turi, ashulachi va musiqachilarning kelinni kutib olish chog'ida ijro etadigan ashulasi" deb izohlagan.³ Boshqa bir o'rinda to'y marosimida chapak chalib qo'shiq aytish udumi

¹ Ой олдида бир юлдуз. Ўзбек халқ маросим қўшиқлари. Тўплаб, нашрга тайёрловчи: **М.Жўраев**. – Тошкент, 2000. 125-бет.

² **Умаров Э.** «Чанги» сўзи ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти. 2003. 6 – сон. 85-86-бетлар.

³ **Радлов В.В.** Опыт словаря тюркских наречий. Т.3, Часть 2. – М., 1899. С.1962-1963.

“**chinga**” deyilishini aytib o‘tgan.¹ Shuningdek, turk tilida ham “**zenge**” so‘zi “kelinni kutib olishda aytiladigan qo‘shiq” ma‘nosini bildiradi.²

Adabiyotshunos N.Mallaev esa cho‘lim tatarlari lahjasida “to‘rtlik shaklidagi xalq qo‘shig‘i” ma‘nosida qo‘llaniladigan “chыng” so‘zi mavjudligini qayd etgan. Fikrimizcha, “changi”, “chinka” atamalarining etimologik asosi ana shu so‘z bilan mushtarak lisoniy negizga ega.³ Nazarimizda, “Yolg‘iz otning changi chiqmas” maqolidagi “chang” so‘zi ham ruscha “пыл” ma‘nosini emas, balki “tovush”, “dupur”, “ovoza”, “sas” ma‘nolarini anglatib, qadimgi “chi//cha” o‘zagiga borib taqaladi.

Alisher Navoiy asarlarida **roviy, rivoyatchi, qissago‘y, qissaxon, qissapardoz, go‘yanda, yirov, o‘zon** kabi folklor ijrochilari nomini bildiruvchi atamalar ham keltirilgan. Bu ma‘lumotlar o‘zbek folklori janrlarining tarixiy asoslari va taraqqiyotini o‘rganishda muhim qimmatga ega.

Shuningdek, o‘zbek folklori namunalari yozib olinishi tarixida Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asarida keltirilgan rivoyatlar, Gulxaniyning “Zarbulmasal”iga kiritilgan xalq maqollari va naqlar, Shayx Sulaymon Buxoriyning “Lug‘ati chig‘atoyi va turkiy usmoniy” asarida so‘zlar mag‘zini izohlash maqsadida keltirilgan xalq qo‘shiqlarining parchalari, Muqimiyning xalq og‘zaki badiiy ijodidagi qo‘shiqlar uslubida yozgan “Sayohatnoma” asari ham muhim o‘rin tutishini qayd etish kerak bo‘ladi.

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida O‘rta Osiyoda faoliyat yurgizgan sharqshunos, tilshunos, etnograf, folklorshunos olimlar, shuningdek, o‘lkashunos va sayyohlar – A.Divaev, A.Eyxgorn, A.N.Samoylovich, N.P.Ostroumov, V.Vyatkin, L.Kun, N.Likoshin, P.Komarov, A.Xoroshxin, K.G.Zeleman, Yu.Kazbekov, L.Bundzinskiy, M.Rostislavov va boshqalar mahalliy aholining

¹ Там же. С.2117-2118.

² Турецко-русский словарь. - М., 1931. С.198.

³ **Бу ҳақда қаранг:** Мирзаев Т., Жўраев М. Фольклор ва ёзма адабиёт муносабатларини ўрганишда Н.Маллаевнинг ўрни // Поктийнат. – Тошкент, 2002. 17-19-бетлар.

folklori, irim-sirimlari, mifologik e'tiqodlari, marosim va udumlari, an'anaviy taqvim, bayram va sayillariga oid materiallarni yozib olib, asosan rus tilida nashr ettirdilar.

XX asr folklor ekspeditsiyalari va xalq ijodining yozib olinishi

Xalq og'zaki badiiy ijodiyotini to'plash, sistemalashtirish, ommaviy va akademik nashrlarni amalga oshirish hamda keng ko'lamli fundamental tadqiqotlarni yaratish borasida bugungi kunda yirik ishlarni amalga oshirib kelayotgan o'zbek folklorshunosligi fanining shakllanishi tarixi XX asrning 20-yillaridan boshlangan.

"Maorif" jurnalining 1918-yil 1-sonida xalq og'zaki badiiy ijodi asarlarini to'plovchilar uchun qo'llanma chop ettirilishi bilan o'zbek folklori materiallarini ilmiy asosda yozib olishga asos solingan. Folklor asarlarini to'plash va o'rganish ishlari 1918-20-yillarda Turkiston Maorif xalq komissariatining Turkiy seksiyasi, 1921-24-yillarda esa Davlat ilmiy kengashining O'zbek bilim hay'ati tomonidan amalga oshirilgan. O'zbek bilim hay'atining Toshkent viloyati Bo'stonliq tumaniga (1921), Samarqand va Sirdaryo viloyatlariga (1922), Farg'ona vodiysiga (1922) uyushtirgan folklor ekspeditsiyalari, ayniqsa, samarali bo'lgan. Bu ilmiy safarlarda qatnashgan G'oz Olim Yunusov va G'ulom Zafariy lapar, o'lan, bolalar qo'shiqlari, og'zaki drama, ertak va afsona, marosim folkloriga oid materiallarni yozib olishgan.

O'zbek bilim hay'ati tomonidan tashkil etilgan folklor-etnografik ekspeditsiyalarga boshchilik qilgan G'.O.Yunusov xalq og'zaki badiiy ijodi namunalarini to'plash va ommalashtirishning tashabbuskorlaridan biri bo'lgan. Fozil Yo'ldosh o'g'li, Ergash Jumanbulbul o'g'li kabi xalq baxshilarini aniqlagan¹ G'.O.Yunusov o'zbek eposshunosligi tarixida birinchi bo'lib 1922-yilning yozida Fozil Yo'ldosh o'g'li va Hamroqul baxshilardan "Alpomish" dostonidan parchalar yozib olgan. U o'zining "O'zbeklarda el tanish ishi" nomli maqolasida ("Turkiston", 1922, 18-dekabr)

¹ **Каранг:** Юнусов Г.О. Эл адабиёти. Эргаш Жуманбулбул ўғли // Аланга. 1928. 11-сон. 11-бет.

folklorshunoslikda birinchi bo'lib "Alpomish", "Go'ro'g'li", "Yusuf va Ahmad" dostonlari haqida fikr yuritgan, "Alpomish" dostonini jahon adabiyotining "Odisseya", "Iliada" kabi ajoyib durdonalariga qiyoslagan.¹ G'.O.Yunusov Toshkent, Sirdaryo, Samarqand viloyatlarida bo'lib, ko'plab qo'shiq, ertak, afsona, maqol, topishmoq va rivoyatlarni yozib olgan, o'zbek marosim folkloriga doir kuzatishlar olib borish bilan bir qatorda boy etnografik materiallarni ham to'plagan.² Olim o'zbek folklori namunalarini to'plovchilar uchun metodik qo'llanma ham yaratgan.³

G'.O.Yunusovning "Alla" to'g'risida bir-ikki og'iz so'z ("Maorif va o'qitg'uvchi", 1926, №6), "El adabiyotidan namunalar" ("Alanga", 1928, №6-7, 3-bet), "Og'iz adabiyotida sinfiy tuyg'ular" ("Alanga", 1930, №5-6) kabi maqolalari xalq og'zaki ijodini ilmiy o'rganish borasidagi ilk tajribalar sifatida folklorshunoslik tarixida muhim o'rin tutadi.

1925-28-yillarda folkloristik ishlar O'zbekiston Maorif komissarligi Ilmiy sho'rosining O'zbeklarni o'rganish komitetida markazlashtirilgan. Bu davrda G'ozzi Olim Yunusov, Hodi Zarif, Abdulla Alaviy kabi milliy qadriyatlarimiz fidoyilari xalq baxshilarini, ertakchi va qo'shiqchilarni aniqlash, ularning repertuaridagi asarlarni yozib olishni tashkil etib, Fozil Yo'ldosh o'g'li, Po'ltan shoir, Ergash Jumanbulbul o'g'li, Nurmon Abduvov o'g'li, Berdi baxshi, Abdulla shoir va boshqa ko'plab baxshilardan xalq dostonlarini yozib olishgan.

Elbek o'zbek xalq og'zaki ijodini to'plash va nashr etishga katta hissa qo'shgan. U 1921-1922-yillarda Davlat ilmiy kengashining O'zbek bilim hay'ati tomonidan Toshkent viloyati Bo'stonliq tumaniga uyushtirilgan folklor ekspeditsiyasida qatnashib, xalq qo'shiqlari, laparlar, topishmoqlar, maqol va

¹ **Қаранг:** Юнусов Ғ.О. "Алпомиш" достони // Билим ўчоғи. 1923. 2-3-сонлар. 37-39-бетлар; Яна ўша. "Алпомиш" // Ўзбек адабиёти намуналари. 1-жилд. – Тошкент, 1928. 33-43-бетлар.

² **Қаранг:** Юнусов Ғ.О. Опись материалов по этнографии узбеков, собранных в Самаркандской области и уездах Ташкентском и Голодностепским Сырдаринской области // Наука и просвещение. 1922. №2.

³ Юнусов Ғ.О. Ўзбек эл адабиётига тегишли материалларни тўпловчиларга қўлланма // Маориф ва ўқитғувчи. 1926. 7-8-сонлар. 63-65-бетлар.

ertaklarni to'plagan. 1922-yilda «Laparlar» nomi ostida xalq qo'shiqlarini chop ettirgan. U laparlar matnini bergach, laparlarning o'ziga xos xususiyatlari haqida ham to'xtalgan va laparlardan namunalar berish bilan cheklanib qolmasdan, mushtariylarni folklor to'plashga da'vat etgan. "Topishmoq, maqol va ashula to'plami" (1923), "Ashulalar to'plami" (1935), "Bolalar qo'shig'i" (1937) kabi majmualarni nashr ettirdi. Elbekning "Bolalar qo'shig'i" nomli to'plamiga o'zbek xalq bolalar og'zaki poetik folklorining "Bor ekan-da yo'q ekan", "Chittigul", "Boychechak", "Oftob chiqdi olamga", "Yomg'ir yog'aloq", "Qaldirg'och" kabi an'anaviy qo'shiqlari jamlangan. Bundan tashqari, u o'zbek xalq ertaklari, afsona va rivoyatlarini ham yozib olib, nashr ettirgan. Elbek to'plagan materiallari o'zbek folklorini o'rganishda muhim manba hisoblanadi.

An'anaviy o'zbek xalq teatrining ilk tadqiqotchilaridan biri G'ulom Zafariy ham folklor asarlarini yozib olish va o'rganishga kirishgan dastlabki mutaxassislardan biridir. G'ulom Zafariy 1921-24-yillarda Turkiston maorif komissarligi ilmiy kengashi O'zbek bilim hay'atining Teatr-etnografik bilim hay'atiga rais bo'lgan. U 1921-22-yillarda o'zbek xalq og'zaki dramasi asarlarini yozib olish, qiziqchilik va raqs san'atini o'rganish maqsadida Toshkent va Farg'ona vodiysiga safar qilgan. Ana shu ekspeditsiya davomida xalq tomosha san'atining an'anaviy janrlari aniqlangan, qo'g'irchoqboz, qiziqchi, askiyaboz va raqqoslar san'atiga oid materiallar to'plangan, xalq musiqasidan namunalar, bir nechta og'zaki drama yozib olingan. G'ulom Zafariy o'zi yozib olgan "Maqtanchoq kishi" hamda hozirgacha yozib olingan yagona og'zaki nazmiy pesa hisoblanadigan "Er va xotin" asarini nashr ettirgan (1923). G'ulom Zafariy to'plagan folklor materiallari o'zbek halq teatri, muzika folklori va qo'shiqchilari san'atini o'rganishda muhim ahamiyatga ega.

Shoir va folklor to'plovchi Abdulla Alaviy ham o'zbek xalq qo'shiqlarini to'plagan va 1926 yilda Ohangaron daryosi bo'yidagi Evalak qishlog'ida yashovchi Berdi baxshidan "Alpomish" dostonini yozib olgan. Uning bevosita ko'rsatmalari bilan 1925-

26-yillarda M.Alaviya Piskent shahri va uning atrofidagi qishloqlarda yashovchi ayollardan xalq ertaklari va an'anaviy qo'shiqlarni yozib olish orqali o'zining folklorshunoslik faoliyatini boshlagan.

Xalq ijodi durdonalarini to'plashdek sharaflı ishga Mahmud Zarifiy, Iso Ernazar o'g'li, Fotima (hozirgacha to'la ismi-sharifi aniqlanmagan), Tovfiq Mustafoev, Bahrom Ibrohimov, Muqim Hamzabekov, Nazarqosim Mirzayev, Husayn Karimiy kabi havaskor folklor to'plovchilar ham jalb qilingan. O'sha davrda to'plangan materiallar bugungi kunda o'zbek xalq og'zaki badiiy ijodi durdonalari saqlanayotgan O'zR FA Til va adabiyot instituti Folklor arxivining yuzaga kelishiga zamin hozirlagan.

Xalq og'zaki badiiy ijodiyotini to'plash, sistemalashtirish, ommaviy va akademik nashrlarini chop ettirish hamda keng ko'lamli fundamental tadqiqotlarni yaratish borasida bugungi kunda yirik ishlarni amalga oshirib kelayotgan O'zR FA Til va adabiyot instituti Folklor bo'limiga esa 1928-yilda asos solingan. Hozirgi davrga kelib mamlakatimizda folklorshunoslik fanining markaziga aylangan bu bo'lim atoqli alloma H.Zarifovning tashabbusi bilan 1928-yilda tashkil etilgan O'zbekiston Maorif Xalq komissarligi Ilmiy sho'rosining O'zbeklarni o'rganish komiteti huzuridagi «Etnografiya, folklor va arxeologiya bo'yicha ilmiy-tekshirish kabineti» negizida tuzilgan. 1929-yil dekabridan e'tiboran bu kabinetga H.Zarifov mudir etib tayinlangan va bu bo'lim O'zbekiston davlat ilmiy-tekshirish instituti tarkibida faoliyat yurgiza boshlagan.

XX asrning 20-30-yillarida V.A.Uspenskiy, N.N.Mironov, Ye.Ye.Romanovskaya, Yunus Rajabiy o'zbek musiqa folklori asarlarini yozib olgan bo'lishsa, G'ulom Zafariy, A.K.Borovkov, K.K.Yudaxin, M.F.Gavrilov o'zbek xalq og'zaki teatri an'analarini o'rgandilar. G'ozı Olim Yunusov, Elbek, Ye.D.Polivanov, L.Potapov, Bekjon Rahmon, H.Zarifov, A.K.Borovkov, Ye.M.Peshchereva, V.Drujinin, V.G.Andreev, Q.Ramazonov, A.Alaviy, Sh.Rizo, Sh.Ro'zi, Sh.Abdullayeva, B.Karimiy, M.Alaviya va boshqalar o'zbek

folklorining eng nodir asarlarini yozib olish maqsadida tashkil etilgan dastlabki folklor ekspeditsiyalarida faol qatnashdilar.

O'zbek folklorshunosligining filologik yo'nalishdagi fan sifatida shakllanishi H.Zarifov ilmiy faoliyati bilan bevosita bog'liqdir. 1905-yil 20-martda Toshkentda tug'ilgan H.Zarifov 1921-yilda o'z ona shahridagi maktab internatni tugatgach, 1923-1926-yillarda Boku o'qituvchilar seminariyasining talabasi bo'lgan. 1926-27-yillarda sobiq O'zbekiston xalq Maorif komissariati ilmiy markazining O'zbeklarni o'rganish komitetida ilmiy xodim bo'lib ishlagan. 1928-yilda «Etnografiya, folklor va arxeologiya bo'yicha ilmiy-tekshirish kabineti»ni tashkil etgan. 1928-1930-yillarda Samarqand qishloq xo'jalik texnikumida o'qituvchi bo'lib ishlagach, 1929-yilda O'zbekiston Markaziy muzeyini tashkil etib, 1931-yilgacha uni boshqargan. 1931-1934-yillarda O'zbekiston Madaniy qurilish ilmiy-tekshirish instituti Etnografiya seksiyasining mudiri, 1934-1938-yillarda Toshkent davlat pedagogika instituti o'qituvchisi, 1940-56-yillarda Toshkentdagi Adabiyot muzeyining tashkilotchisi va direktori, 1943-44-yillarda O'zR FA Sharqshunoslik institutining tashkilotchilaridan biri va direktor muovini, 1943-45-yillarda O'rta Osiyo davlat universiteti o'qituvchisi bo'lgan. Shundan keyin O'zR FA Til va adabiyot instituti direktori (1944-48), direktor muovini (1955-62), Folklor bo'limining mudiri (1934-1972), "O'zbek ensiklopediyasi" bo'limining boshlig'i (1965-1972) vazifalarida ishlagan. Atoqli folklorshunos olim 1967-yilda O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi, 1973-yilda Abu Rayhon Beruniy nomidagi O'zbekiston Respublikasi davlat mukofoti bilan taqdirlangan.

H.T.Zarifov folklor asarlarini yozib olish, to'plash, nashr etish va o'rganishga ulkan hissa qo'shgan alloma, o'zbek folklorshunosligining asoschisidir. 1928-yilda uning tashabbusi bilan tashkil etilgan «Etnografiya folklor va arxeologiya bo'yicha ilmiy-tekshirish kabineti» negizida keyinchalik Til va adabiyot institutining Folklor bo'limi yuzaga kelgan. H.T.Zarifov ana shu bo'limning rahbari sifatida butun umrini o'zbek xalq og'zaki

ijodiyotini to'plash va ilmiy o'rganishga bag'ishlagan. O'zining folklorshunos sifatida ilm faoliyatini to'plovchilikdan boshlagan H.T.Zarifov Fozil Yo'ldosh o'g'li, Ergash Jumanbulbul o'g'li, Po'ltan va Islom shoirdek zabardast so'z san'atkorlarini aniqlab, ularning ijodiy merosini to'plagan. Bu baxshilardan yozib olingan "Alpomish", "Yodgor", "Jahongir", "Rustam", "Ravshan", "Ochildov", "Hasan batrak", "Yusuf va Ahmad", "Avazning uylanishi", "Mardikor", "Shayboniyxon" kabi dostonlar o'zbek eposining eng ajoyib namunalari sirasiga kiradi.

H.T.Zarifov ishtirok etgan yoki uning o'zi tomonidan uyushtirilgan har bir ekspeditsiya fanga yangi materiallar va tahliliy xulosalarni taqdim etgan. Jumladan, H.T.Zarifov 1929-yilda G.O.Yunusov rahbarligidagi folklor ekspeditsiyasining a'zosi sifatida Qashqadaryo-Surxondaryo vohalarida bo'lib, Abdulla Nurali o'g'li, Xolyor Abdukarim o'g'li kabi chechan baxshilar ijodiyotini o'rgangan. 1930-yilgi Xorazm folklor-etnografik ekspeditsiyasi chog'ida esa Bola baxshi, Qurbon sozchi, Bibi shoira, Ahmad Matnazar o'g'li, Xo'jayor baxshi Vois o'g'li kabi xalq shoirlaridan "Asilxon", "Xirmondali", "Qirq ming" dostonlarini yozib olgan. H.T.Zarifov 1935-yili Farg'ona vodiysi dostonchilik maktabining Bo'ri Sodiq o'g'li, Usmon Mamatqul o'g'li, Umrzoq baxshi, Hasan Xudoyberdi o'g'li, Hasanboy Rasul o'g'li kabi ijrochilarini aniqlaganligi ham folklorshunoslik uchun muhim yangilik bo'lgan. Bu baxshilardan yozib olingan doston va termalar Farg'ona vodiysida dostonchilik an'analari allaqachon yo'qolib ketgan degan da'volarning asossiz ekanligini isbotlagan.

Atoqli olim H.Zarifov o'zining 20-yillarda o'tkazgan ekspeditsiyalari chog'ida Jizzax viloyatidan «yo ramazon» qo'shiqlarining mukammal namunasini yozib olishga, shuningdek, xalqimizning irim-sirimlari va e'tiqodlariga oid boy faktik materiallar to'plashga muvaffaq bo'lgan.¹

H.T.Zarifovning yirik fan tashkilotchisi sifatidagi faoliyati havaskor folklor to'plovchilar ishini markazlashtira olganligi va bu

¹ **Керанг:** ЎЗР ФА Алишер Навоий номидаги Тил ва адабиёт институти Фольклор архиви. Инв.№1648.

ezgu ishga ko'pgina ziyolilarni jalb eta bilganligida yaqqol ko'zga tashlanadi. Uning topshirig'i va bevosita rahbarligi ostida havaskor folklor to'plovchi, xalq ijodiyotining haqiqiy fidoyilari biri bo'lgan Iso Ernazar o'g'li 1927-yilda Jizzax va Samarqand viloyatlaridagi qishloqlarni kezib chiqib, o'zbeklarning yaylovga ko'chish, ot sotib olish, qamchi saqlash, cho'pon tayog'i, pichoq berish, nikoh to'yi, bolaga ism qo'yish, chechakni davolash bilan bog'liq materiallarni, dafn marosimi folklori, irim-sirim va ta'qiqlarni to'plagan. U folklorshunoslik amaliyotida birinchi bo'lib qoqimchi, azayimxon va baxshilarning davolash amallariga doir etnofolkloristik materiallarni – qaytarma, qoqim, badik namunalarni yozib olgan.¹

H.T.Zarifov umrining oxirigacha Til va adabiyot instituti Folklor bo'limining ekspeditsiyalariga rahbarlik qilgan. Uning bevosita ishtiroki va rahbarligida institutda Folklor arxivi yuzaga kelgan va shu xazinadagi eng yaxshi materiallar asosida "O'zbek xalq ijodi" ko'p tomliqi nashr etila boshlagan.

O'zbek marosim folklori janrlari etnograf M.Gavrilovning kichik bir risolasini² hisobga olmaganda, o'tgan asrning 30-yillariga qadar deyarli tadqiq etilmay kelinardi. Ana shu badiiy qadriyatlarning to'planishi va o'rganilishi folklorshunos olimi Muzayyana Alaviya nomi bilan bog'liqdir.

O'tgan asrning 30-yillarida o'zbek folklori materiallarini yozib olish maqsadida tashkil etilgan ilmiy ekspeditsiyalarning faol qatnashchisi bo'lgan Buyuk Karimiyning ilmiy faoliyati o'zbek folklorshunosligining shakllanishida muhim ahamiyatga ega. 1919-yilda ukasi Hakim Karimov bilan birgalikda maktabga o'qishga borgan. 1921-yilda otasi vafot etgach, bolalar uyida tarbiyalangan. U 1926-yilda O'zbek bilim yurtini, 1930-yilda Samarqand pedagogika texnikumi(hozirgi Samarqand davlat universiteti)ning ijtimoiy-iqtisodiy bo'limini, 1933-yilda Madaniy qurilish ilmiy-tekshirish instituti aspiranturasini tamomlagan. O'z

¹ **Каранг:** ЎзР ФА Алишер Навоий номидаги Тил ва адабиёт институти Фольклор архиви. Инв.№.922.

² **Гаврилов М.Ф.** Остатки ясы и юсуна у узбеков. - Ташкент, 1925. С.3-9.

mehnat faoliyatini 1924-yilda o'qituvchilikdan boshlagan Buyuk Karimiy 1934-yilga qadar Samarqand pedagogika texnikumi, Industrial texnikum, Toshkent paxtachilik texnikumi va boshqa o'quv yurtlarida muallimlik qilgan. U 1934-yil 12-fevraldan O'zR FA Til, adabiyot va tarix instituti (hozirgi Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot instituti)da ilmiy xodim sifatida ishlagan. Uning ilmiy faoliyati esa 1930-yildan, ya'ni aspiranturaga qabul qilingan davrdan boshlangan. O'sha yili Madaniy qurilish ilmiy-tekshirish institutining Xorazm viloyati bo'ylab safar qilgan H.Zarif boshchiligidagi ekspeditsiyasida Buyuk Karimiy ham faol qatnashib, ilgari fanga ma'lum bo'lmagan yangi folklor asarlarini yozib olgan.

O'tgan asrning 40-yillarida o'zbek folklorshunoslari xalq ijodi asarlarini yozib olish borasida izchil ish olib borgan bir kezlarda, ya'ni atoqli olim Hodi Zarif Farhod GESi qurilishi bo'ylab qilgan safari, M.Afzalovning urushdan qaytgan kishilar og'zidan front qo'shiqlarini yozib olish ishlari, M.Alaviyaning to'y marosim qo'shiqlarini yig'ish maqsadida o'tkazgan folklor ekspeditsiyalari samarali bo'lgan bir paytda Buyuk Karimiy ham ketma-ket ekspeditsiyalarda ishtirok etgan. Uning 1940 yilda Toshkent kanali, 1942-yilda Shimoliy Toshkent kanali qurilishlari bo'ylab o'tkazgan folklor ekspeditsiyalari, ayniqsa, ertak janrini o'rganishda alohida bir bosqich sifatida e'tirof etilgan. Mazkur ekspeditsiyalar chog'ida olim xalq orasida o'ziga xos ijro usuli, badihago'yligi, badiiy tili bilan tanilgan ertakchi Mulla Mo'min Yoqubovdan "Aflotun va Arastu", "Rustam" kabi ertaklarni yozib olgan. Asli toshkentlik bo'lib, keyinchalik Piskentga ko'chib kelib yashagan ertakchi Rahim Qosimov repertuarida o'ttizdan ortiq xalq ertaklari mavjudligini aniqlab, uning ijrosida o'n bir ertakni yozib olgan. Buyuk Karimiy mazkur ekspeditsiya chog'ida kanal qazuvchilardan ko'plab xalq qo'shiqlari, askiya, ashula va xalq og'zaki dramasini yozib olish bilan bir qatorda ertak ijrochiligi, askiyachilik, qiziqchilikka doir ilmiy kuzatishlar olib borgan. Shuningdek, Fozil Yo'ldosh o'g'lining "Balogardon", "Mashriqo",

“Nurali”, “Farhod va Shirin”, “To‘lg‘onoy” kabi dostonlarini ham Buyuk Karimiy yozib olgan.

Muzayyana Alaviya 1909-yilda Toshkent viloyatining Piskent tumanidagi Mo‘minobod mahallasida xalq ijodi va mumtoz adabiyot namunalari g‘oyat qadrlanadigan ziyoli oilasida dunyoga kelgan. Muzayyana opaning otasi Akmalxon o‘z davrining peshqadam ziyolilaridan biri bo‘lib, “Osiy” taxallusi bilan o‘zbek, arab va fors-tojik tillarida she‘rlar bitgan ijodkor bo‘lgan bo‘lsa, onasi Mo‘tabarxon va buvisi Habibaxon Umarxon qizi Hofiz, Navoiy, Bedil, Fuzuliy asarlarini sevib mutoala qiluvchi kitobxon ayollardan bo‘lishgan. Ana shunday oilaviy muhitda voyaga yetgan Muzayyana opaning qalbida yoshligidanoq badiiy adabiyotga, ayniqsa, xalq og‘zaki badiiy ijodiga ulkan muhabbat tug‘ilgan edi. Shuning uchun ham u 1925-1926-yillarda, hali paranjida ekanligidayoq Piskentning Mo‘minobod mahallasida istiqomat qiluvchi Bibiniso otin, Bibi Fayziqori qizi, Tilla Dadasardor qizi, Oybib, Shirin chevar ismli ayollardan “Tohir va Zuhra”, “Gulqahqah”, “Qiron aka”, “Podachining qizi” singari ajoyib ertaklarni, ko‘plab xalq qo‘shiqlarini yozib olib, akasi Abdulla Alaviy orqali 1926 yilda tashkil etilgan O‘zbeklarni o‘rganish komitetiga yuborgan. Atoqli olim H.Zarifov Muzayyana opaning 60 yillik yubileyi munosabati bilan 1970-yil 29-may kuni yozgan “Ustoz tabrigi” nomli kichkina to‘yxatida olimaning ana shu jasorati haqida “Siz yozib olgan xalq qo‘shiqlari, ertaklari akangiz, olim va shoir Abdulla Alaviy orqali O‘zbekiston Maorif Komissarligining ilmiy Markaziga kelib tushgan edi. Bu qo‘lyozmalarni men o‘sha vaqtdayoq xalq mulki sifatida folklor xazinasiga qo‘shib qo‘yganman. O‘zbek ayollaridan birinchi bo‘lib Siz boshlagan bu tashabbus ko‘plar qatori meni ham qoyil qoldirdi”,¹ – deb yozgan edi.

Muzayyana Alaviya 1927-yilda Samarqand pedagogika bilim yurtiga o‘qishga kirgan va 1929-30-yillarda shu shahardagi 4-maktabda dars bergan. 1930-yilda bilim yurtini tamomlab, Pedakademiya, ya’ni hozirgi Samarqand davlat universitetiga

¹ Ходи Зариф. Устоз табриги // Ёш ленинчи. – 1970. – 29 май.

o'qishga kirgan. U 1933-yilda Toshkentga qaytib kelib, shahardagi 1, 76, 139-maktablarda 1942-yilga qadar o'zbek tili va adabiyotidan dars bergan. Ayni paytda 1934-38-yillarda Toshkent davlat pedagogika institutining filologiya fakultetida o'qigan. 1944-yilda O'zR FA Til va adabiyot institutining Folklor sektoriga kichik ilmiy xodim sifatida ishga qabul qilingan. 1957-yildan 1978-yilgacha ana shu ilm dargohida katta ilmiy xodim vazifasida ishlab, g'oyat keng qamrovli folkloristik tadqiqotlar olib borgan.

Muzayyana Alaviyaning ilmiy faoliyatiga nazar tashlar ekanmiz, unda haqiqiy folklorshunosga xos uch jihat, ya'ni folklor to'plovchilik, xalq ijodini nashr etish va ilmiy tadqiqotchilik yaxlit holda uyg'unlashganligini ko'ramiz.

Folklorshunoslikka dastlab to'plovchi sifatida kirib kelgan olim O'zR FA Til va adabiyot institutining 1944-78-yillar mobaynida o'tkazgan barcha folklor ekspeditsiyalarida, shuningdek, Hamza nomidagi San'atshunoslik instituti, Tarix institutining Etnografiya sektori, Moskva va Toshkent Xalq ijodi uylari xodimlari bilan hamkorlikda tashkil etilgan ilmiy ekspeditsiyalarda faol ishtirok etib, Qashqadaryo, Surxondaryo, Xorazm, Samarqand, Buxoro, Andijon, Toshkent viloyatlari hamda Farg'ona vodiysidan xilma-xil janrlardan iborat boy folklor materiallarini yozib olgan. U 1945-yilda bulung'urlik Fozil Yo'ldosh o'g'lidan "Zevarxon" dostoni va "Kunlarim" termasini, 1946-yilda nurotalik Rahmatilla Yusuf o'g'idan "Qorakokil" dostonini, sherobodlik Boymurod Boymat o'g'lidan "Zarnigor" dostonini, 1951-yilda narpaylik Islom shoir Nazar o'g'lidan "Narpay qahramonlari" dostonini, qashqadaryolik Hamro shoir Ergashevdan "Alpomish" dostonini, 1957-yilda chiroqchilik Ro'zi shoir Qo'zievdan "Nurali", "Zulfizar" dostonlarini, dehqonobodlik Umr shoir Safarovdan "Nurali" dostonini, 1958-yilda sariosiyolik Farmon baxshi Haydarovdan "Zarnigor" dostonini yozib olgan.

M.Alaviyaning har bir ilmiy ekspeditsiyasi o'zbek folklorshunosligini yangi materiallar bilan boyitishi jihatidan ahamiyatli bo'lgan. Xususan, 1946-yil 27-aprelda Muzayyana opa o'zbek folklorshunosligi tarixida birinchi marta so'z magiyasi bilan

bog'liq folklor janrlaridan biri – badik namunalarini yozib olgan. U Ohangaron tumanining Nishobiy qishlog'ida istiqomat qiluvchi Qorabosh Tuyaqovdan xalq orasida o'lan janrining an'anaviy ijro yo'li, badiiy shakli va poetik qurilishi asosida aytiladigan badik namunasini yozib olganki, badik janrining bu tipdagi matni hozirga qadar boshqa folklorshunoslar tomonidan boshqa birorta hududda qayd etilmaganligi sababli g'oyat nodir folklor materiali hisoblanadi. Olimaning aniqlashicha, bunda kasal bo'lgan bemorning ikki tomonida o'tirgan yigit va qiz quyidagi kabi matnlarni aytishuv tarzida ijro etadilar:

Oy badik, endi ko'chsang lo'liga ko'ch,
Yetmagan tizzasiga to'niga ko'ch,
Bilmasang ko'char joying, men aytayin,
Qizlarning kashta tikkan qo'liga ko'ch.

Oy badik, endi ko'chsang ermang'a ko'ch,
Joylagan tovman-toshday qumonga ko'ch,
Oy badik endi ko'chsang oyiga ko'ch,
Biyaning qisir emgan toyiga ko'ch,

Boradi badik ketib mulki minan,
To'shko'yda tozi o'ynar tulki minan,
Oy badik endi ko'chsang qizlarga ko'ch,
O'tkazadi umringni kulki minan.

Badiging sen bolaning oyog'ingda,
Aytganim mening badik boyog'ida,
Badik bo'lib yotibdi xabar bermay,
Ovuling olis emas qayog'inda?

Badiging sen bolaning boshindadir,
Aytqanim manim badik yoshindadir,
Badigi bo'lib yotgan xabar bermay,

Ovulim olis emas, qoshindadir.¹

1969 yilda Sayram, Turkiston, Iqon, Qorabuloq bo'ylab o'tkazilgan folklor ekspeditsiyasi chog'ida shamol to'xtatish marosimi bilan bog'liq "Choymomo" qo'shig'ining ko'plab variantlarini aniqlagan.² Muzayyana opa tomonidan yozib olingan ana shu nodir folklor yozuvlari asosida folklorshunos olim B.Sarimsoqovning "shamol to'xtatish" marosimi tahliliga oid qiziqarli ilmiy tadqiqoti, yosh olim M.Pirmatovanning o'zbek mavsumiy marosim folklorini o'rganishga doir dissertatsiya ishi, shuningdek, ushbu ma'ruza muallifining o'zbeklarning shamol bilan bog'liq mifologik tasavvurlari tadqiqiga doir maqolalari yuzaga keldi.

Marosim folklori namunalarini izchil to'plab, tadqiq etgan M.Alaviya 1957-yil 16-17-iyul kunlari Qashqadaryo viloyatining Chiroqchi tumanidagi Do'sbergan qishlog'ida yashovchi Qirmiz momo Shonazarova hamda Ashiroy Ro'ziyevadan "boqimchilik" va "baxshichilik" amaliyotining to'liq tavsifini yozib olgan.³ Olima "supra yozdi", "baxshi chorlovi", "pir va avliyolarni yodga olish", "parilarni chaqirish", "pirlardan yo'l so'rash", "momolarni chorlash", "zikr", "paritalbon", "qaytarma", "ko'ch-ko'ch", "gulafshon" va boshqa janrlarga oid aytim-qo'shiqlarni yozib olganligi o'zbek shomon marosimlari folklorini tadqiq etishda g'oyat muhim ilmiy qimmatga ega.

Muzayyana opaning qariyb 50 yillik ilmiy izlanishlari natijasida xalqimiz turmush tarzidan o'rin olgan oilaviy-maishiy marosimlarning juda ko'plab uzvlari, beshik to'yi, sunnat to'yi va nikoh to'yi marosimlari tarkibidagi udumlar, rasm-rusumlar, irim-sirimlar, qa'da va odatlar, "yor-yor", "kelin salom", "kuyov salom",

¹ ЎЗР ФА Алишер Навоий номидаги Тил ва адабиёт институти Фольклор архиви. Инв.№987. Айтувчи: Қўлдош Қуролов. Тошкент вилояти, Оққўрғон тумани. Ёзиб олувчи:Музайяна Алавия.

² **Қаранг:** ЎЗР ФА Алишер Навоий номидаги Тил ва адабиёт институти Фольклор архиви. Инв.№. 1628.

³ **Қаранг:** ЎЗР ФА Алишер Навоий номидаги Тил ва адабиёт институти Фольклор архиви. Инв.№.1315/1. 79-99-бетлар.

“lapar”, “o‘lan”, “to‘y olqishi”, “xush keldingiz” kabi janrlarga oid qo‘shiqlar, aytim va alomatlar yozib olindi.

M.Alaviya qo‘shiq janrining o‘ziga xos xususiyatlari, «qo‘shiq» atamasining etimologiyasi, bu janrning tarixiy-tadrijiy takomili, qo‘shiqlarda xalq turmush tarzi va ruhiyatining badiiy ifoda etilishi, o‘zbek xalq qo‘shiqlarining milliy o‘ziga xosligi, xalq qo‘shiqlarida obraz va talqin kabi masalalarni o‘rganib, 1959-yilda “O‘zbek xalq qo‘shiqlari” mavzuida nomzodlik dissertatsiyasini yoqlagan. O‘zbek xalq qo‘shiqlarining mavzu qamrovi, g‘oyaviy mazmuni, badiiy xususiyatlari, ijtimoiy mohiyati, qo‘shiqchilarning ijrochilik san‘ati va qo‘shiqlarning tarixiy asoslariga doir bu yirik tadqiqot 1974-yilda “O‘zbek xalq marosim qo‘shiqlari” nomli monografiya sifatida chop ettirilgan. O‘zbek xalq qo‘shiqlarining tarixiy taraqqiyot yo‘li va janr xususiyatlari yuzasidan olib borilgan ko‘p yillik izlanishlarning qaymog‘i o‘laroq yuzaga kelgan bu kitob to‘y va uning poeziyasini tarixiy-filologik hamda etnofolkloristik aspektda o‘rganishning eng yaxshi namunalaridan biri sifatida folkloristika rivojiga muhim hissa bo‘lib qo‘shildi.

M.Alaviyaning sa‘y-harakatlari bilan Toshkent, Samarqand, Qashqadaryo, Surxondaryo, Buxoro, Xorazm viloyatlarida yashovchi aholining to‘y marosimi barcha detallarigacha izchil yozib olinganki, bu milliy qadriyatlarimizni etnofolkloristik yo‘nalishda tadqiq etishning ajoyib namunasi. Chunki folklor asarlarining yaratilishi va ommalashishi jarayoni xalqning turmush tarzi, urf-odatlarini, milliy mentalitetini aks ettiruvchi dunyoqarashi, an‘analari bilan bevosita bog‘liq bo‘lganligi bois, folklorni o‘rganishda uni etnografik kontekstdan ajratib tahlil qilib bo‘lmaydi. Bir tomondan, folklor asarlarida xalqimizning etnik tabiati bilan aloqador ko‘plab «etnografizmlar», qadimiy marosim va rituallar bilan bog‘liq an‘anaviy motivlar mavjud bo‘lsa, boshqa jihatdan folklor asarlari etnologik tadqiqotlar uchun ham boy material beruvchi muhim manba hisoblanadi. Zero, Muzayyana Alaviya o‘zining marosim folklorini to‘plash va o‘rganishga doir izchil faoliyati natijasida hozirgi zamon folklorshunosligining eng

faol yo'nalishlaridan biriga aylangan **"etnofolkloristika yo'nalishi"**ga asos soldi.

1973 yilda o'zbek folklorini to'plash va tadqiq etishdagi samarali xizmatlari uchun "O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi" unvoniga sazovor bo'lgan M.Alaviyaning ilmiy merosi, u yozib olgan katta qamrovdagi folklor materiallarining asosiy qismi hali ko'plab ilmiy tadqiqotlarga material bo'ladi. Masalan, Folklor arxivida olimaning folklor ekspeditsiyalari chog'ida tutgan "Kundalik daftarlari" saqlanadi. Bu daftarlarda shunchaki safar xotiralari, yo'lnoma xarakteridagi bitiklardangina iborat emas. Unda o'sha davrdagi tarixiy-folkloriy jarayonning holati, xalq baxshilarining shajarasi va repertuari, urf-odat, marosim, rasm-rusum va irim-sirimlar, joy nomlari va ular bilan aloqador afsona, rivoyatlar, maqol, matal va iboralar, folklor janrlarining tadrijiy rivoji va saqlanish darajasiga oid muhim kuzatishlar qayd etilganki, bu materiallar xalq ijodini tadqiq etishda muhim ahamiyat kasb etadi. M.Alaviyaning "Kundalik"larida ekspeditsiya ish olib borgan qishloq aholisining shevasi, yozib olinayotgan folklor asari matnidagi ayrim so'zlarning izohi, dehqonchilik, chorvachilik, urf-odat va marosimlarga oid lug'aviy birliklarning yozib borilganligi va ularning nuqtadonlik bilan izohlanganligini ko'rib, **"etnolingvistika"**, ya'ni o'zbek tilidagi urf-odat, marosim, turli inonch-e'tiqodlar bilan bog'liq bo'lgan so'zlarni etnofolkloristik jihatdan talqin qilish aslida M.Alaviyaning izlanishlaridan boshlanganligiga amin bo'ldik.

M.Alaviyaning 1959-yildagi "Kundalik daftari"ni o'qiganimda 29-noyabr sanasi bilan yozib qo'yilgan bir ma'lumotga ko'zim tushdi. Unda XIX asrning oxirida tuzilgan "Lug'ati chig'atoyi va turki usmoniy" nomli bir asarning 203-sahifasida "To'yxonaning o'tini, sho'rtoq ekan, yor-yor, Undan kelgan yangalar, yo'rtoq ekan, yor-yor",¹ – tarzidagi marosim qo'shig'ining parchasi keltirilganligi qayd qilingan ekan. Ana shu qaydnoma sabab Shayx Sulaymon Buxoriy tomonidan tuzilgan mazkur lug'atning

¹ ЎЗР ФА Шарқшунослик институти Қўлёзмалар фонди. Инв.№9488. – Б.203.

Sharqshunoslik instituti Qo'lyozmalar fondida saqlanayotgan bir nusxasi bilan tanishgach, so'zlar ma'nosini izohlash asnosida o'zbek xalq qo'shiqlarining yuzdan ortiq parchalari berilganligini aniqladik. Bu esa olimaning "Kundalik daftari"ga bitilgan har bir kichik qaydnoma muhim tadqiqotlarga turtki bo'lishi mumkinligini, binobarin, yirik olimlarning folklor ekspeditsiyalarida tutgan "Kundalik daftar"lari ilmiy o'rganilishi lozimligini ko'rsatdi.

Sh.Abdullayeva 1935-yilda Hodi Zarifov boshchiligidagi folklor ekspeditsiyasi a'zosi sifatida Farg'ona vodiysida ilmiy safarda bo'lib, doston, qo'shiq, ertak va boshqa materiallar yozib olgan. Bu ekspeditsiyada to'plangan materiallar Farg'ona dostonchiligi an'analarini o'rganishda katta ahamiyatga ega bo'ldi.

O'zbek folklorini to'plash, nashr etish, tadqiq etishga katta hissa qo'shgan olima Z.Husainova 1951-yildan buyon O'zR FA Til va adabiyot institutining folklor ekspeditsiyasi safida Respublikamizning barcha viloyatlarida, Janubiy Tojikiston va O'shda bo'lib, xalq og'zaki ijodiyotining qo'shiq, maqol, topishmoq, ertak, latifa kabi janrlariga doir matnlarni to'plagan. Bekmurod Jo'raboy o'g'lidan "Malika ayyor", "Xolbeka" (1946), Umr Safar o'g'lidan "Zandigor" (1949), Abdulla Nurali o'g'lidan "Alpomish", Toshmurod baxshi To'rabovdan "Mayda savdogar", Hamro Ergashevdan "Alpomish", Niyoz Alimqul o'g'lidan "Yusuf va Ahmad", Beknazar Rahmatovdan "Qoraqum" dostonlarini yozib olgan.

Xalq teatrini o'rganishni an'anaviy og'zaki dramalarni yozib olishdan boshlagan M.Qodirov 1958-yildan boshlab Hamza nomidagi San'atshunoslik institutining folklor ekspeditsiyasi tarkibida Surxondaryo, Samarqand, Buxoro, Qashqadaryo, Farg'ona, Namangan, Andijon, O'sh, Xorazm viloyatlarida bo'lib, 300 ga yaqin xalq teatri ijrochilarining ijodiy faoliyatini o'rgangan, ellikdan oshiq professional va havaskor masxarabozlar bilan ijodiy suhbatlar o'tkazgan, yuzga yaqin xalq dramasi, kulgi-hikoya va qiziqchilik namunalarini yozib olgan, ko'plab pantomima, xalq raqslari va tomosha san'atiga doir materiallar to'plagan.

M.Qodirov tomonidan yig'ilgan materiallar o'zbek xalq tomosha san'atini o'rganishda yangi yo'nalishlarni ochib berdi. Chunki ilgari "o'zbek xalq teatri" deganda faqat Farg'ona vodiysi qiziqchilik san'ati nazarda tutilardi, xolos. M.Qodirov esa Respublikamizda o'zbek xalq teatrining Buxoro, Qo'qon va Xorazm maktabi mavjudligi hamda har bir an'ananing umumiy va o'ziga xos tomonlarini aniqlagan. U o'zbek xalq og'zaki dramasiining folklor asari sifatidagi o'ziga xos badiiy xususiyatlari, obrazlar tizimi, xalq san'atkorlarining ijrochilik mahoratini chuqur tadqiq etib, teatr folklorshunosligi yo'nalishiga asos solgan.

M.Qodirov o'zbek folklorshunosligi tarixida birinchi bo'lib xotin-qizlar folklor teatri mavjudligini ilmiy jihatdan asoslab bergan. U 1958-yilda Samarqand viloyatining Urgut tumanidagi G'o's qishlog'ida yashovchi ayollardan o'ttizta og'zaki drama va kulgi-hikoyalarni yozib oldi va ayollar xalq teatrining tarixiy asoslari, asosiy yo'nalishlari, ustoz-shogird munosabatlari, ijro usullari, og'zaki dramalarning g'oyaviy-badiiy xususiyatlarini o'rgangan. O'zbek xalq san'atining muqallid, tanqid, kulgi-hikoya, masxarabozlik, qiziqchilik, qo'g'irchoqbozlik, ot o'yin, askiya, qarsak o'yin, muallaqchilik-dorbozlik, nayrangbozlik kabi qadimiy turlariga doir boy materiallarni to'plab, tadqiq etgan. O'zbek xalq teatrini jonli aktyor teatri va qo'g'irchoq teatriga bo'lib tasniflagan M.Qodirov "Laylak ilonni ovladi", "Yumronqoz", "Kichkinajon", "Kadi badbaxt", "Buva qovoq", "Tevarak o'yin", "Ajdaho o'yin", "Mavrigi" kabi xalq o'yinlari hamda Yusufjon qiziq, Usta Olim, Mulla To'ychi, Toshkanboy darboz, Karim chavandoz, Aka Buxor, Komil qori singari xalq san'atkorlarining ijodiy merosini o'rgangan.

O'zbek xalqining musiqa merosini to'plash bilan izchil shug'ullangan Yu.Rajabiy 1955-59-yillarda o'zi to'plagan materiallar asosida mingdan oshiq xalq qo'shiqlari va cholg'u kuylarini o'z ichiga olgan "O'zbek xalq musiqasi" majmuasining besh jildini nashr ettirgan. U Toshkent-Farg'ona maqom yo'llari, Buxoro "Shashmaqom"i va uning tarkibiy qismlarini to'plab,

mukammallashtirib nashrga tayyorlagan hamda 1966-75-yillar davomida olti jildlik kitob holida chop ettirgan.

Folklorshunos olim R.Muhammadiyevning tashabbusi va ishtirokida askiya san'ati materiallarini to'plash, o'rganish va ommalashtirish maqsadida maxsus folklor ekspeditsiyalari o'tkazilgan. 1961-yilda Farg'ona vodiysida ish olib borgan birinchi ekspeditsiyada askiya janrining tarqalish doirasi va tarixiy taraqqiyotini o'rganishga doir materiallar to'plangan, askiya payrovlarini yozib olingan. 1963-yilda o'tkazilgan ikkinchi ekspeditsiya chog'ida mashhur askiyabozlarning repertuari tadqiq etilgan. Ustoz so'z san'atkorlari haqidagi xotiralar, rivoyatlar, latifalar va o'zbek askiyachilarining ijodiy merosi to'plangan. 1965-yilning yozida esa Farg'ona vodiysining shimoliy tumanlarida, Sirdaryo va Toshkent viloyatlaridagi yosh askiyachilar ijodiyoti o'rganilgan.

O'zbek folklorini to'plash, nashr ettirish va o'rganishga katta hissa qo'shgan Jumaniyoz Qobulniyozov O'zR FA Til va adabiyot institutining 1960-65-yillarda Xorazm viloyati bo'ylab o'tkazgan folklor ekspeditsiyalarida faol qatnashgan. U Xorazm xalq dostonlari va qo'shiqlarini yozib olib, xalfalar ijodini o'rgangan. Bola baxshi Abdullayevdan "Bozirgon", "Avazxon", "Oshiq Mahmud", Mahmud Yusupovdan "Oshiq Mahmud", "Sayyodxon va Hamro" dostonlarini yozib olib, 1966-70-yillarda chop ettirgan. U o'zi to'plagan xalq qo'shiqlari asosida "Xorazm xalq qo'shiqlari" (1965) to'plamini nashr ettirgan.

Hodi Zarif asos solgan o'zbek folklorshunosligi maktabining Markaziy Osiyodagi yetakchi ilmiy maktablardan biri darajasida tanilishi va bugungi rivojida fidoiy fan tashkilotchisi, eposshunoslikning fundamental nazariy masalalarini yuksak ilmiy darajada hal qilgan yirik olim To'ra Mirzayevning xizmatlari benihoya katta. T.Mirzayev 1936-yil 6-mart kuni Buxoro viloyatining Shofirkon tumanidagi Chandir qishloq fuqarolar yig'iniga qarashli Savrak qishlog'ida dunyoga keldi. 1943-1953-yillarda Ibn Sino nomli o'rta maktabda tahsil oldi. 1953-yili Buxoro davlat pedagogika instituti (hozirgi Buxoro Davlat

universiteti) tarix-filologiya fakultetining o'zbek tili va adabiyoti bo'limiga o'qishga kirdi.

1957-yilda institutni imtiyozli diplom bilan tamomlagach, maxsus yo'llanma bilan Surxon vohasiga ishga yuborilib, 1957-1958-yillarda Jarqo'rg'on tumanidagi Kakaydi qishloq fuqarolar yig'ini hududidagi maktablarda o'qituvchilik qildi. Bo'lajak folklorshunosning xalq og'zaki badiiy ijodiyoti durdonalarini ilmiy tadqiq eta bilish iqtidori ham xuddi shu davrda kurtak yoza boshlagan edi. U ko'nglida suz san'atiga havas uyg'ongan yoshlarni adabiy o'lkashunoslik sirlari bilan tanishtirdi.¹ Jarqo'rg'on tumanidagi 5-sonli maktabda "Yosh folklorshunoslar to'garagi"ni tuzib, so'zga chechan momolaru "qumquloq" bobolardan alla, yor-yor, kelin salom, aytim-olqishlarni, maqol, topishmoq va ertaklarni yozib olishni tashkil etdi. U folklorshunoslik amaliyotida birinchi bo'lib nevarasini tizzasiga olib uxlatayotgan bobolarning allasi – "huyya" namunalari matnlarini yozib oldi va shu tariqa asosan Janubiy O'zbekistondagina saqlanib qolgan bu janr haqidagi ilk ma'lumotlar to'plandi. O'quvchilari bilan birgalikda o'tkazgan folklor ekspeditsiyalaridan birida Jarqo'rg'onda istiqomat qiluvchi zukko dostonchi Mamadrayim baxshi huzurida bo'lib, undan "Nurali" dostonini yozib oldi. Ana shu ilk izlanishlar jarayonida asrlar davomida baxshilar tilidan tushmagan xalq dostonlari badiiyatini o'rganish hamda baxshilar epik ijodiyotining o'ziga xos jihatlarini ilmiy tadqiq etish ishtiyoqi yuzaga keldi. Shu tariqa o'zining folklorshunoslik faoliyatini to'plovchilikdan boshlagan T.Mirzayev xalq og'zaki badiiy ijodiyoti asarlarini yozib olish va sistemalashtirish borasida muayyan tajribaga ega bo'lgan iste'dodli mutaxassis sifatida 1960-yilning kuzida O'zR FA Til va adabiyot instituti aspiranturasiga hujjat topshirdi.

Institutning peshqadam olimlari To'ra Mirzayevning keng ko'lamli filologik tadqiqotlarga tayyor bo'lgan yosh mutaxassis ekanligini e'tirof etishdi va u aspiranturaga qabul qilindi. 1961-

¹Қаранг: **Мирзаев Т.** Адабиёт тўғаракларини ташкил этиш тажрибасидан // Ўқитувчилар газетаси, 1961, 16 март.

1964-yillarda aspiranturada tahsil olib, atoqli folklorshunos olim H.Zarifov rahbarligida “Alpomish” dostonining o‘ttizga yaqin variantlarini qiyosiy tahlil qildi.

T.Mirzayevning aspirantlik davrida o‘zbek-laqaylar folklorini to‘plash hamda baxshilar ijodiyotini jonli ijro jarayonida o‘rganish maqsadida 1963-yil iyun-avgust oylarida Janubiy Tojikistonning Vose’, Dang‘ara, Qo‘rg‘ontepa, Kolxozobod tumanlari bo‘ylab o‘tkazgan ekspeditsiyasi, ayniqsa, samarali bo‘ldi¹. Bu ekspeditsiya natijasida Dang‘ara tumanining Joribqo‘l qishlog‘ida yashovchi 80 yashar To‘la soqi Haybat o‘g‘li repertuarida “Alpomish” dostonining o‘ziga xos varianti mavjudligi aniqlandi. Bu ilmiy kashfiyotning ahamiyati shunda ediki, “Alpomish” dostonining To‘la soqi Haybat o‘g‘li variantida Barchinning otasi Qarmishboy deb atalishi atoqli olim Hodi Zarifning “Shajarai tarokima”dagi “o‘g‘uz elini og‘izlarig‘a qaratib ko‘p-yillar beklik qilgan yetti qizning ikkinchisi Qarmishboyning qizi va Momishbekning haloli Barchin suluv erdi” degan qaydnoma “Alpomish” dostoniga daxldor degan ilmiy farazini² tasdiqlovchi g‘oyat muhim dalil bo‘ldi. Chunki “Alpomish” dostonining To‘la soqi Haybat o‘g‘li T.Mirzayevga aytib bergan variantida ham xuddi Abulg‘oziy Bahodirxon yozganidek,³ Barchinning otasi Boysari emas, balki Qarmishboy deb ataladi. Buning ustiga “To‘la soqining guvohlik berishicha, XIX asrning II yarmi – XX asr boshlarida yashagan Haybat soqi Shomol o‘g‘li, Qunduz soqilar kuylab kelgan “Alpomish” dostoni variantlarida ham Barchinning otasi

¹Ўзбек халқ дostonчилиги анъаналарини ўрганишда муҳим босқич сифатида эътироф этилган мазкур илмий экспедиция ҳақида тўлароқ маълумот олиш учун қаранг: **Мирзаев Т., Муродов М.** Ўзбек халқ оғзаки ижоди дурдоналарини излаб // Ўзбек тили ва адабиёти. –1963. –№1; **Мирзаев Т.** “Алпомиш” дostonи вариантларини излаб // Ўзбек тили ва адабиёти. –1964. –№2. – Б.78-79; **Яна ўша.** Қўшқиялик бахши // Ўзбекистон маданияти, 1964 йил, 8 июль; **Яна ўша.** Тожикистонда яшаётган ўзбек дostonчилари ижодини ўрганиш ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти. –1964. –№5. –Б.64-66; **Яна ўша.** Тожикистонлик ўзбек бахшилари // Совет Тожикистони, 1965 йил, 8 июль.

²**Зарифов Х.** “Алпомиш” эпосининг асосий мотивлари // Шарқ юлдузи. –1957. – №1. –Б.129.

³**Кононов А.Н.** Родословная туркмен, сочинение Абул-гази хана хивинского. –М.-Л., 1958.-С. 78.

Qarmishboydir. Buni Aral qishlog'ida yashayotgan Ula soqi, Mustafuqul soqilar ham tasdiqlaydi"¹.

O'zbek-laqay baxshilari repertuaridagi "Alpomish" dostonida Qarmishboy obrazining mavjudligi tasodifiy bo'lmay, geneologik afsonalar syujetining ham detallaridan biridir. Chunki "laqay" urug'ining kelib chiqishi haqidagi geneologik afsonaning 1948 yil 4 oktabrda Ko'lob viloyatining Davat qishlog'ida yashovchi 104 yashar Eshquvvat otadan o'qituvchi K.Do'sayev yozib olgan variantida ham Qarmish obrazi mavjud. Afsonada aytilishicha, Qarmish Chingizxonning kenja ukasining ismi bo'lib, laqaylarning bobokaloni sifatida talqin qilingan². Shuningdek, V.V.Bartoldning qayd qilishicha, Qo'rquut otaga nisbat beriluvchi maqollardan tuzilgan "Atalar sozu" nomli qo'lyozmadagi 75-hikmatda Qo'rquutning otasi Qarmish yoki Qirmish deyilgan³.

Ana shu ma'lumotlarning o'zi ham T.Mirzayevning o'zbek-laqay baxshilari repertuaridagi dostonlarni yozib olish va bu hududdagi dostonchilik an'alarini tadqiq etish maqsadida olib borgan ekspeditsion izlanishlari qahramonlik eposi syujetining genetik ildizlarini aniqlashga doir g'oyat qimmatli ma'lumotlarni berganligini ko'rsatadi. Ekspeditsiya davomida Janubiy Tojikistonda yashovchi baxshi-shoirilar ijodini keng ko'lamda o'rgangan T.Mirzayev kolxozobodlik Bo'riboy Ahmedovdan "Alpomish" dostonini, Kolxozobod tumanidagi Toshobod qishlog'ida yashovchi 66 yashar Nazar Shukurovdan "Xonoyim", Dang'ara tumanining Gulbuloq qishlog'ida istiqomat qiluvchi 85 yashar Shomurod soqi Boyman o'g'lidan "Avazxonning Girdob ko'liga safari", Zardolubog' qishlog'ilik 68 yashar Moro soqi Jalmatovdan "Go'ro'g'lining nobud bo'lishi" dostoni, shuningdek, "Yozi bilan Zebo" dostonidan parchalar, bir necha ertaklar, qo'shiqlar, termalar va maqollarni yozib oldi. Bundan tashqari, o'rganilgan hududda Mustafuqul soqi, Ula Haybat o'g'li, Bozor

¹Мирзаев Т. "Алпомиш" достони вариантларини излаб // Ўзбек тили ва адабиёти. –1964. –№2. –Б.79.

²Кармышева Б.Х. Узбеки-локайцы Южного Таджикистана. –Сталинабад, 1954. – С.23-25.

³Бартольд В.В. Турецкий эпос и Кавказ // Сочинения. Т.V. - М: 1968. - С.484.

Sherov, Bo'ron soqi, Avg'on Rahimov, Qoraxon soqi va boshqa baxshilar yashab, doston kuylayotganliklari aniqlandi. Mazkur ekspeditsiya materiallari tadqiqotchiga Janubiy Tojikistonda yashaydigan o'zbek baxshilari repertuarini umumo'zbek dostonchilik an'analari tizimida qiyosiy-tarixiy jihatdan tekshirish, folklorda versiya va variantlilikni o'rganish, dostonchilikdagi jonli ijrochilik an'analari saqlanish darajasi va taraqqiyot qonuniyatlarini aniqlash, epik syujetlarning tarqalish doirasi hamda baxshichilik san'atida ro'y berayotgan o'zgarishlarni tahlil qilish imkonini berdi. Natijada "Alpomish" dostoni o'zbek variantlarining o'ziga xos xususiyatlari, doston syujetining tarixiy asoslari, rivojlanish bosqichlari va tarqalish areali, dostonchilikda versiya va variantlilik masalalariga bag'ishlangan ilmiy maqolalari yuzaga keldi.¹

Aspirantura tahsili tugagach, O'zR FA Til va adabiyot institutda ishga qoldirilgan T.Mirzayev 1964-yil apreldan 1966-yil iyul oyigacha Folklor bo'limining kichik ilmiy xodimi lavozimida o'z ilmiy tadqiqotlarini davom ettirdi.

Folklor asarlarini barcha tur va janrlar asosida yaxlit tadqiq etishning ilmiy metodlarini takomillashtirishga katta hissa qo'shgan T.Mirzayev o'zining o'zbek xalq qahramonlik eposini o'rganishga doir izlanishlarini umumlashtirib, 1965-yilda "Alpomish" dostonining o'zbek variantlari" mavzuidagi nomzodlik dissertatsiyasini himoya qildi.

Professor T.Mirzayev folklorshunoslikning nazariy-metodologik asoslarini belgilovchi jiddiy ilmiy asarlar yaratish bilan bir qatorda, XX asrning 60-yillaridan e'tiboran O'zR FA Til va adabiyot institutining Folklor ekspeditsiyasi rahbari sifatida O'zbekistonda folklor asarlarini to'plash va sistemallashtirishdek ezgu ishga ham yetakchilik qiladi. U boshchilik qilgan ilmiy ekspeditsiya mamlakatimizning barcha viloyatlari,

¹Қаранг: **Мирзаев Т.** "Алпомиш" дostonининг ўзбекча прозаик мазмунлари ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти. –1963. –№5. –Б.17-20; **Яна ўша.** "Алпомиш" дostonининг ўзбек версиялари ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти. –1963. –№6. –Б.23-27; **Яна ўша.** Ўзбек эпосида вариация масалалари // Ўзбек тили ва адабиёти. –1964. –№4. –Б.59-62.

Qoraqalpog'iston Respublikasi, shuningdek, qo'shni mamlakatlarning o'zbeklar istiqomat qiladigan hududlarida ilmiy safarda bo'lib, o'zbek folklorining barcha janrlariga oid nodir ma'naviy qadriyatlarni to'pladilar.

Har bir ekspeditsiyada faol ishtirok etgan T.Mirzayev folklorshunoslikdagi ilmiy qarashlarni boyitadigan, yangilaydigan va to'ldiradigan qiziqarli materiallarni to'pladi. Jumladan, 1963, 1974, 1977-yillarda Janubiy Tojikiston bo'ylab o'tkazilgan ekspeditsiyalar davomida o'zbek-laqay baxshilarining o'ziga xos dostonchilik an'analari o'rganilgan bo'lsa, 1972-yil 21-23-iyul kunlari qashqadaryolik Hazratqul baxshi Xudoyberdiev, Bozor Omonov kabi ijrochilar orqali Qamay dostonchilik maktabiga xos yetakchi epik belgilar aniqlandi. 1969-yilgi folklor ekspeditsiyasining rahbari sifatida Chimkent viloyatiga yo'l olgan T.Mirzayev Sayram tumanining Qoramurt qishlog'ida yashovchi 34 yashar Qumri Ahmedova, 76 yoshli Qumri Ne'matova, 73 yashar Unsin G'oyibova, 65 yashar Toji Rahmatullaeva, Qozig'urt qishlog'ilik 62 yashar Hasan Noralieva, Sultonrabot qishlog'ida yashovchi 62 yashar Oyimbuvi Abdurasulova va boshqa ijrochilardan lapar, xalq orasida "haqqonalar", "ko'hnaalar" nomi bilan mashhur bo'lgan qadimiy xalq qo'shiqlarini yozib oldi. Bu materiallar o'zbek marosim folklorining qish fasli bilan aloqador janrlaridan biri – "yas-yusun marosimi"ni tadqiq etish,¹ shuningdek, lapar janrining o'ziga xos janr xususiyatlari, ijro holati, to'y marosim folkloridagi o'rni va badiiyati masalalarini o'rganish² uchun manba bo'ldi.

1973-yilgi folklor ekspeditsiyasi tarkibida Surxon vohasiga ilmiy safar qilgan T.Mirzayev 27-iyul kuni Boysun tumanining Rabot qishlog'ida yashovchi 76 yashar Nurmamat Badalovdan "Yo ramazon" qo'shig'i, turli irim-sirim va aytimlar qatori yomg'ir yog'dirish maqsadida qadimda o'tkazib kelingan "So'z xotin" marosimiga oid qimmatli etnofolkloristik materiallarni yozib oldi.

¹Қаранг: **Саримсоқов Б.** Ўзбек маросим фольклори. –Тошкент: Фан, 1986.

²Қаранг: **Мирзаев Т.** Ўзбек фольклорида лапар // Ўзбек тили ва адабиёти. –№1. – Б.42-45; **Яна ўша.** Ozbek folklorinde leper ve onun temel ozelikleri // Uluslararası dördüncü türk kültürü kongresi bildirileri. –Ankara. 2000. –S.369-374.

Xullas, bir necha avlod o'zbek folklorshunoslarining ko'p yillik mashaqqatli izlanishlari natijasida yuzaga kelgan Hodi Zarif nomli O'zbek folklori arxivi T.Mirzayevning sa'y-harakatlari tufayli Markaziy Osiyoning eng nodir folklor yozuvlari saqlanadigan ulkan ilmiy markazga aylantirildi.

O'zbek folklori asarlarini to'plash va sistemalashtirish ishiga katta hissa qo'shgan M.Murodov 1959-yildan to 90-yillarning oxirigacha respublikamizning turli viloyatlarida folklor ekspeditsiyalarida bo'lib, Yusuf O'tagan o'g'li, Razzoq Qozoqboy o'g'li, Husan baxshi Rajab o'g'li, Haydar Boycha o'g'li, Usmon Madumar o'g'li, Eshqobil Qo'shoq o'g'li, Hazratqul Xudoyberdi o'g'li, Qodir Rahim o'g'li, Xushvaqt Mardonaqul o'g'li kabi baxshilarning repertuarini o'rgangan, yuzlab ertak, rivoyat, afsona, maqol va topishmoqlarni yozib olgan.

Folklorshunos S.Asqarovning to'plovchilik faoliyati 1945-yildan boshlangan. U o'sha yili Samarqand viloyatiga uyushtirilgan folklor ekspeditsiyasida qatnashib, Islom shoirdan "Gulixiromon", "Sohibqiron" dostonlarini va bir qancha termalarni yozib olgan. Shundan keyin Toshkent (1970), Qashqadaryo (1971-72, 1976), Samarqand (1974), Surxondaryo (1978), Sirdaryo (1980), Jizzax (1982) viloyatlarida folklor ekspeditsiyasida bo'lib, "Yusuf va Ahmad", "Og'a Yunusning olib qochilishi", "Avazxonning keltirilishi", "Avazxon va Gultan pari" (Hazratqul baxshi Xudoyberdi o'g'li), "Nomoz", "Gulovar pari", "Bahodir shahzoda" (Ochil Eshmurod o'g'li), "Gulruxsora" (Alim Haqqulov), "Erka qiz", "Guliqoqi", "Dilorom", "Mahmudxon polvon" (Chori Xo'jambari o'g'li), "Nurali, G'uppanoy va Semurg" (Rajab Normurot o'g'li), "Kuntug'mish" (Ro'zimbek Murodov), "Qironxon" (Egamberdi Ollomurodov) kabi yetmishga yaqin doston, ertak, afsona va termalarni yozib olgan.

Folklorshunos olim T.G'oziboyev o'z faoliyati davomida Farg'ona vodiysi xalq og'zaki badiiy ijodi asarlarini to'plash bilan izchil shug'ullanib keldi. U uzoq-yillar mobaynida Namangan davlat universiteti O'zbek filologiyasi fakulteti talabalarining folklor ekspeditsiyasi rahbari sifatida vodiy viloyatlari,

shuningdek, O'sh viloyati tumanlarini qadamba-qadam kezib chiqib, minglab qadimiy ertaklarni, juda ko'plab qo'shiq, terma, lapar, o'lan, maqol, topishmoq, naql, latifa, lof, askiya, rivoyat, afsona, marosim folklori asarlari, bolalar folklori namunalari, bolalar o'yinlarini to'plashga muvaffaq bo'ldi. Farg'ona vodiysi o'zbek xalq og'zaki poetik ijodining o'ziga xos badiiy olami haqida to'la ma'lumot bera oladigan bu noyob folklor materiallari bugungi kunda O'zR FA Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot instituti Folklor arxivida 1682, 1819, 1820 va boshqa inventar raqamlari ostida saqlanadi.

T.G'oziboyevning folklorshunoslik faoliyatida Namangan xalq ertaklarini yozib olish va nashr etish alohida ahamiyatga ega. U o'zi to'plagan folklor materiallari asosida "Gulpari. Namangan ertaklari" majmuasini "O'zbek xalq ijodi" silsilasida 1968-yilda nashr ettirdi. Bu to'plamdan o'rin olgan xalq ertaklari mamlakatimizning boshqa viloyatlaridan yozib olingan epik matnlarga o'xshamasligi, o'ziga xos syujet tizimiga egaligi, motivlar tarkibining qadimiy qatlamini saqlab qolganligi bilan ajralib turadi.

Butun umrini Farg'ona vodiysi xalq ijodini to'plashdek ezgu ishga baxshida etgan fidoyi folklorshunos olim, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan o'qituvchi, filologiya fanlari nomzodi, dotsent Tojiboy G'oziboyev folklor asarlarini yozib olish orqali ijodiy dahosi g'oyat yuksak bo'lgan xalqimiz badiiy qadriyatlarini kelgusi avlodlarga saqlab qolishdek ezgu ishga salmoqli hissa qo'shdi. Zero, bu xassos olim tomonidan yozib olingan folklor asarlari xalqimiz badiiy tafakkurining olmos qatralarini namoyish etuvchi nodir durdonalar sirasiga kiradi.

Atoqli folklorshunos Komiljon Imomov o'zining sermahsul ilmiy faoliyati davomida og'zaki nasr janrlari (mif, afsona, rivoyat, ertak, naql, latifa, lof, og'zaki hikoya va boshqalar)ga oid materiallarni to'plashga katta hissa qo'shgan. U 1930-yil 10-yanvar kuni Toshkent shahrida ziyoli-bastakor, xalqimizning sevimli san'atkori Imomjon Ikromov oilasida tug'ildi. U o'rta maktabni tamomlagandan keyin 1949-1954-yillarda Belinskiy

nomidagi Toshkent kechki pedagogika institutida o'qidi. 1955-1960-yillarda Toshkent shahridagi 36-sonli o'rta maktabda onatili va adabiyoti fanidan dars berdi hamda ilmiy bo'lim mudiri bo'lib ishladi. 1960-1966-yillarda esa, Toshkentdagi 1-son o'rta maktabda o'qituvchilik qildi. O'tgan-yillar mobaynida o'z bilimini oshirish borasida tinimsiz izlangan K.Imomov xalq og'zaki badiiy ijodiyotini o'rganishga kirishdi va 1966-yilda O'R FA Til va adabiyot institutining aspiranturasiga o'qishga kirib, uni 1968-yilda muvaffaqiyatli tamomladi. Komiljon Imomov aspiranturani tugatgach, institutning Folklor bo'limida ishga qoldirildi va u bu yerda 1968-1971-yillarda kichik, 1971-1998-yillarda katta ilmiy xodim lavozimida ishladi.

Xalq og'zaki ijodi asarlarini bevosita ijrochilar og'zidan yozib olmagan, ya'ni jonli og'zaki an'anadagi folklorni to'plashdek mashaqqatli va lekin g'oyatda sharaflilik bilan shug'ullanmagan mutaxassis haqiqiy folklorshunos bo'lolmaydi, albatta. Shu ma'noda, K.Imomov ko'pchilik folklorshunoslar havas qilsa arzigulik ilmiy-ijodiy yo'lni bosib o'tdi. U hali aspirantlik chog'idayoq o'zining folklor to'plovchilik faoliyatini boshladi va Toshkent shahrida istiqomat qiluvchi ertakchilar repertuaridagi durdona asarlarni qunt bilan yozib oldi. O'zR FA Til va adabiyot instituti folklor ekspeditsiyasi tarkibida Turkiston, Chimkent, Sayram, Qorabuloq (1969), Farg'ona, Namangan, Andijon (1972), Qashqadaryo (1976), Samarqand, Navoiy, Buxoro va Turkmaniston Respublikasining Forob tumani (1986, 1988) bo'ylab o'tkazilgan ilmiy safarlarda o'zbek xalq qo'shiqlari, marosim folklori, ertak, afsona, rivoyat, naql, maqol va topishmoqlarga doir boy materiallar to'pladi.

O'zbek xalq lirikasining yirik tadqiqotchisi taniqli folklorshunos, filologiya fanlari doktori Asqar Musaqulovga nisbatan aytilganday tuyula beradi. Chunki 1951-yilda Jizzax viloyati G'allaorol tumani Nayman qishlog'ida tavallud topgan bu zahmatkash olimning qirq yillik ilmiy-ijodiy faoliyati O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot institutining Folklor bo'limida muqim bir holda kechdi

va bugun ham shu makonda samarali davom etmoqda. U 1967-73-yillarda Toshkent davlat universiteti (hozirgi O'zMU) o'zbek filologiyasi fakultetining kechki bo'limida tahsil oldi. 1974-75-yillarda armiya safida xizmat qildi. 1971-yildan buyon O'zR FA Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot institutining Folklor bo'limida laborant (1971-74), katta laborant (1974-84), kichik ilmiy xodim (1984-85), ilmiy xodim (1985-88), katta ilmiy xodim (1989-97) bo'lib ishladi. Bu yerda 1984-yilda nomzodlik dissertatsiyasini yoqladi, 1995-yilda fan doktori bo'ldi, oddiy laborantlikdan yetakchi ilmiy xodimlikkacha bo'lgan ilm yo'lining o'nqir-cho'nqirlarini bosib o'tdi.

Taniqli olim Asqar Musaqulovning folklorshunoslikka oid ishlari haqida so'zlaganda, birinchi o'ringa uning to'plovchilik faoliyatini qo'ygan bo'lar edik. Chunki u 1971-yildan beri Til va adabiyot institutining folklor ekspeditsiyalariga muntazam ravishda ishtirok etib kelmoqda. Ekspeditsiyalar va yakka safarlar davomida ko'plab xalq ijodi namunalarini yozib oldiki, ular Folklor arxividagi salmoqli jildlarni tashkil etadi. Asqarda xalq ijodi namunalarini his qilish va anglashda o'ziga xos bir sezgirlik mavjud. Nimani yozib olish zarurligini tezda fahmlay oladi. Birgina misol keltiraylik. 1977-yilda Tojikiston Respublikasining janubiy hududlariga uyushtirilgan folklor ekspeditsiyasiga borishda Shahrison tumanining Qayirma qishlog'iga qo'nib o'tishga to'g'ri kelib qoldi. Ekspeditsiya a'zolari qishloq chekasidagi ko'l bo'yiga joylashib ulgurmasidanoq, Asqar Musaqulov qishloq oralab ketdi. Bir-ikki soat o'tar-o'tmas keyinchalik bir qator tadqiqotlarga asos bo'lgan «Badik»ning eng go'zal va badiiy jihatdan mukammal bir variantini yozib olib keldi. Bu folklor materialining ahamiyati shundan iborat ediki, o'sha paytga qadar o'zbek folklorshunosligida hali "Badik" to'la holida og'zaki ijroda yetib kelmagan, degan qarashlar mavjud edi. Ertasiga bu variantni magnitofonda yozib olib, yo'limizda davom etdik. Jonli ijroda kamdan-kam uchrashi mumkin bo'lgan, tobora unutilib borayotgan, so'z magiyasiga asoslangan bu janrning nisbatan mukammal variantining yozib olinishi folklor merosi xazinasini

boyitish bilan birga yangi-yangi tadqiqotlar olib borishga keng imkoniyat yaratishi tabiiydir.

Xassos folklorshunos Asqar Musaqulovning to'plovchilik faoliyatidan bunday misollarni ko'plab keltirish mumkin. Folklor to'plovchi sifatida samarali faoliyat ko'rsatgan A.Musaqulov 1971-97-yillarda davomida O'zR FA Til va adabiyot institutining Samarqand, Jizzax, Navoiy, Buxoro, Xorazm, Qashqadaryo, Surxondaryo, Farg'ona vodiysi, Toshkent viloyati, Turkmaniston respublikasining Chorjo'y viloyati hamda Janubiy Tojikiston bo'ylab o'tkazilgan folklor ekspeditsiyalarida faol ishtirok etib, o'zbek xalq marosim qo'shiqlari, irim-sirim va inonch-e'tiqodlar bilan bog'liq aytim hamda alomatlar, maqol, topishmoq va lirik qo'shiqlarni yozib olish orqali xalq og'zaki badiiy ijodi xazinasini boyitishga munosib hissa qo'shdi.

Xorazm xalq qo'shiqlari va dostonchilik an'analarining yirik to'plovchisi va tadqiqotchisi sifatida tanilgan Safarboy Ro'zimboyev 1942-yil 14-martda o'ziga xos folklor ijrochiligi san'ati rivojlangan hududlardan biri – Xorazm viloyatining Qo'shko'pir tumanidagi Ko'hnazey qishlog'ida tug'ilgan. Shu qishloqdagi al-Xorazmiy nomli o'rta maktabni bitirib, 1959-1960-yillarda Xosiyon paxta tayyorlash majmuida hisobchi bo'lib ishlagan. 1960-1965-yillarda esa Xorazm davlat pedagogika instituti (hozirgi UrDU)ning filologiya fakultetida tahsil olib, uni imtiyozli diplom bilan tugatgan. 1965-1966-yillarda harbiy xizmatda bo'lgan. 1967-yildan boshlab Xorazm davlat pedagogika institutining "O'zbek adabiyoti" kafedrasida o'qituvchi bo'lib ishlay boshlagan. 1975-1984 hamda 1992-1996-yillarda O'zbek filologiyasi fakultetida dekan lavozimida ishlagan. 1997-2007-yillarda universitet ilmiy kotibi lavozimida ishlagan. Hozirda universitet huzuridagi "Filologik tadqiqotlar markazi" rahbari sifatida faoliyat ko'rsatib kelmoqda.

Uzoq-yillar mobaynida Xorazm vohasi folklorini to'plash, nashr etish va ilmiy o'rganish bilan izchil shug'ullanib kelayotgan S.Ro'zimboyev 1972-yilda professor Q.Maqqsetov rahbarligida "Xorazm vohasi o'zbek xalq qo'shiqlarining g'oyaviy-badiiy

xususiyatlari” mavzuidagi nomzodlik, 1990-yilda “Xorazm xalq dostonlarining spesifikasi, tipologiyasi va poetikasi” mavzusida doktorlik dissertatsiyasini himoya qildi. Serqirra ilmiy-pedagogik faoliyati uchun 1993-yilda unga professor ilmiy unvoni berildi.

Professor S.Ro‘zimboyevning bosib o‘tgan yo‘liga bir nazar tashlaydigan bo‘lsak, uning ijodiy faoliyati juda samarali, sermahsul bo‘lganligiga to‘la ishonch hosil qilish mumkin. Zero, uning 20 dan oshiq har xil mavzudagi monografiya, qo‘llanma va ilmiy-ommabop kitoblari, xalq og‘zaki badiiy ijodiyotining dolzarb masalalariga bag‘ishlangan 300 ga yaqin ilmiy maqolalari Xorazm folklorining turli xil janrlarini chuqur tadqiq qilishga bag‘ishlangan.

S.Ro‘zimboyev 1961-yildan beri Xorazm viloyatining barcha tumanlarida, Qoraqalpog‘iston Respublikasining Amudaryo, To‘rtko‘l, Beruniy, Ellikqal’a tumanlarida, Turkmanistonning Toshovuz viloyatida folklor ekspeditsiyalarida bo‘lib, xalq qo‘shiqlarini, ertak va afsonalarini to‘plagan. Bola baxshi Abdullayevdan “Xirmondali”, Oshiq G‘arib va Shohsanam” (1981), “Bozirgon” (1969), Tursun baxshi Jumaniyozovdan “Avaz uylangan” (1980), “Hurliqo va Hamro” (1981), Qodir sozchi Karimovdan “Oshiq G‘arib va Shohsanam” (1970) dostonlarini yozib olgan. U xalq qo‘shiqlarining badiiy xususiyatlarini tadqiq etgan, Xorazm dostonchilik an‘analari, o‘zbek-turkman folklor aloqalari, baxshilar repertuarining o‘ziga xos xususiyatlari, janriy rang-barangligi va ijro usuliga doir materiallar to‘plagan.

Fidoyi olim S.Ro‘zimboyev o‘z ilmiy-ijodiy faoliyati davomida Xorazm folklorini tadqiq qilayotgan tadqiqotchilarga rahbarlik qilish, ularning ijodini ilmiy jamoatchilikka tanishtirish, folklorshunoslikning eng yangi yutuqlarini keng ommalashtirish, shuningdek, talabalar folklor praktikaga rahbarlik qilish orqali izchil to‘plovchilik ishlariga boshchilik qilish natijasida katta amaliy faoliyat ham olib bormoqda. U Urganch davlat universiteti talabalari uchun tayyorlangan “O‘zbek adabiyoti tarixi” (1998), “O‘zbek xalq poetik ijodi” (2001), “Adabiyotshunoslikka kirish” (2001), “Folklor atamalari qisqacha lug‘ati” (2007), “Xorazm

dostonchiligi epik an'analari" (2007), "Folklor amaliyoti bo'yicha tavsiyalar" (2007), "O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi" (2009) kabi o'quv qo'llanmalarining muallifi hamdir.

Urganch davlat universiteti O'zbek adabiyoti kafedrası arxivida olim rahbarligida to'plagan ko'plab maqollar, topishmoqlar, afsona, rivoyat, ertaklar, latifalar, turli irim-sirimlar, olqish va qarg'ishlar, bolalar folkloriga oid materiallar saqlanmoqda. Ularni ketma-ket ravishda nashr qilish rejalashtirilgan. Bundan tashqari, talabalar tashabbusi bilan ko'plab eski qo'lyozmalar, turli qo'shiqlar va dostonlar yozilgan magnitofon tasmlari mavjud. Bu manaviy boylik tadrijiy ravishda ommalashtirib borilmoqda.

K.A.Ahmedova-Olimboyeva 1949-yilda xorazmlik Bola baxshi Abdullayevdan "Shohsanam va G'arib" dostonining to'la matnini yozib olib, uni rus tiliga tarjima qilgan va qo'shiqlarini notaga tushirgan. 1950-yilda san'atshunoslar I.Akbarov va T.S.Vizgo rahbarligida «Shohsanam va G'arib» dostoni» mavzusida diplom ishini himoya qilgan. U Farg'ona vodiysi va Toshkent (1951), Xorazm va Samarqand viloyatlari (1952) hamda Janubiy Qozog'istonda (1953) folklor ekspeditsiyalarida bo'lib, o'zbek xalq qo'shiqlari va cholg'u kuylarini to'plagan, xalq shoirlari va sozandalar ijodiyotiga doir materiallar to'plagan. Ekspeditsiya materiallari asosida "Farg'ona va Toshkent xalq sozandalari", "Xorazm sozandalari", "O'zbekiston bo'ylab folklor ekspeditsiyasi kundaligi" kabi ilmiy-adabiy ocherklarini yaratgan. Olima o'zbek xalq musiqa merosini saqlab kelayotgan atoqli sozandalar repertuarini, ularning ijrochilik mahoratini, o'zbek cholg'u kuylarining milliy o'ziga xosligi, xalq qo'shiqlarining yaratilish tarixi masalalarini o'rgangan. U bir nechta folklor to'plamlarining muallifi sifatida o'zbek xalq qo'shiqlari va cholg'u kuylarini nashrga tayyorlagan.

M.A.Mirkamolova janubiy Tojikistonda yashovchi o'zbek-laqaylar folklorini chuqur tadqiq etgan. U o'zbeklar yashaydigan asosiy hududdan ancha olisda istiqomat qiluvchi laqaylarning boy folklor materiallarini to'plash maqsadida Ko'lob, Vose' (1961),

Dang'ara, Yovon (1964), Qo'rg'ontepa (1965) tumanlariga safar qilgan va o'ttizdan ortiq xalq baxshilari-soqilarni aniqlab, ularning ijodiyotini o'rgangan. Olima folklorshunoslar ichida birinchi bo'lib laqay baxshi-soqilarining repertuaridagi dostonlarni yozib olishga kirishgan va "Go'ro'g'li", "Alpomish", "Yusuf va Ahmad", "Gulmirza", "Bedil va Shodmon", "Ko'ktemir", "Oyparcha", "Ollonazar", "Oykelin", "Kal Yozi", "Yozi bilan Tansuq", "Zebixon" kabi dostonlarni yozib olgan. Shuningdek, M.A.Mirkamolova 1967-69-yillarda Samarqand viloyatining Urgut tumani qishloqlari bo'ylab o'tkazgan folklor ekspeditsiyalarida xalq qo'shiqchilik san'ati an'alariga doir materiallar to'plagan.

Filologiya fanlari nomzodi Subhonqul Umarov 1960-yildan Buxoro vohasi folklorini to'plash bilan izchil shug'ullangan. U yozib olgan ertak, naql, qissa, rivoyat, afsona va qo'shiqlardan iborat 360 b.t. material O'zR FA Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot instituti Folklor arxivida saqlanadi. Ibn Sino, Ulug'bek, Alisher Navoiy, Ahmad Donish nomi bilan bog'liq tarixiy rivoyatlarni yozib olganligi o'zbek xalq nasrining mavzu doirasini o'rganishda muhim ahamiyatga ega. U Buxoro vohasidagi an'anaviy qissaxonlik maktablari, qissaxonlar ijodi va ularning repertuariga doir ilmiy kuzatishlar olib borgan, buxorolik qissaxonlardan "Sherzod va Gulshod", "Qahramoni qotil", "Gul va Sanobar", "Zaynularab", "Rustami doston" kabi qissalarni yozib olgan.

Folklorshunos Kamol Ochilov 1962-68, 1974-85-yillarda Qashqadaryo, Surxondaryo, Buxoro viloyatlarida, shuningdek, Turkmaniston va Tojikiston Respublikalarining o'zbeklar yashaydigan hududlarida folklor ekspeditsiyasida bo'lib, o'zbek xalq mehnat qo'shiqlari, maqol, doston, ertaklarni to'plagan. U dehqonchilik bilan bog'liq qo'shchi qo'shiqlari, o'rim qo'shiqlari, xirmon yanchish payti aytiladigan "xo'p-mayda" qo'shiqlari, chorvachilik bilan aloqador "xo'sh-xo'sh", "churey-churey", "turey-turey" qo'shiqlari, urchuq, charx yigirish, kashta tikish qo'shiqlarini to'plab, 1984-yilda "Boychechak" majmuasida nashr ettirgan.

Shuningdek, XX asrning 40-80-yillarida H.Zarifov, A.Alaviya, M.Afzalov, M.Toshpo'latova, Z.Husainova, F.Karomatov, H.Razzoqov, T.G'oziboyev, J.Qobulniyozov, O.Sobirov, M.Saidov, M.Qodirov, Y.Jo'rayev, T.Mirzayev, M.Murodov, T.Ochilov, G'.Jahongirov, R.Muhammadiyev, T.Ashurov, S.Asqarov, F.Sultonova, A.Qahhorov, S.Sodiqov, K.Imomov, B.Sarimsoqov, R.Abdullayev, O.Madayev, T.Sobitova, M.Qalandarova, S.Ro'zimboyev, O.Safarov, A.Musaqulov, I.Yormatov, U.Jumanazarov, A.Tursunqulov, I.Bekmurodov, K.Ochilov, A.Ergashev, M.Jo'rayev, Sh.Turdimov o'zbek folklorshunoslari keng ko'lamli folklor to'plash ishlari bilan mashg'ul bo'ldilar.

80-yillardan boshlab o'zbek marosim folklori B.Sarimsoqov tomonidan o'rganila boshlangan. Olim o'zbek marosim folklorining janrlar tarkibi, tasnifi, genezisi va tarixiy taraqqiyoti, o'zbek oilaviy-maishiy marosimlar folklori, mavsumiy marosimlar folklori, so'z magiyasiga aloqador badik, kinna, olqish va qarg'ish kabi janrlarga oid materiallarni yozib olgan.

O'zbek folklorshunosligi maktabi vakillari folklor asarlarini to'plab, arxivlashtirish va ilmiy tavsiflash borasida o'tgan asrning 20-yillaridan buyon izchil ish olib borishmoqda. O'zbek folklorini to'plash maqsadidagi ilmiy ekspeditsiyalar XX asrning o'rtalaridan to hozirgi kunga qadar muntazam ravishda o'tkazilib kelinmoqda. Ekspeditsiya qamrovi kengligini shundan ham bilsa bo'ladiki, turli-yillarda H.Zarifov, M.Afzalov, B.Karimov, M.Alaviya, Z.Husainova, G'.Jahongirov, S.Qosimov, M.Murodov T.Mirzayev, K.Imomov, B.Sarimsoqov va boshqa olimlar boshchilik qilgan folklor ekspeditsiyalari mamlakatimizning barcha viloyatlari va Qoraqalpog'iston Respublikasida, shuningdek, qo'shni Respublikalarning o'zbeklar istiqomat qiladigan hududlarida ilmiy safarlarda bo'lib, o'zbek folklorining barcha janrlariga oid materiallar to'pladilar.

M.Jo'rayevning 1981-yilda Buxoro viloyatining Qorako'l tumani bo'ylab o'tkazgan folklor ekspeditsiyamiz davomida o'zbeklarning yomg'ir yog'dirish maqsadida o'tkazib kelingan marosimlari tizimining muhim halqasi – «Chala xotin» marosimi

qo'shiqlari, shuningdek, navro'z bayrami bilan aloqador an'anaviy «Sumalak beviti» udumiga oid materiallar yozib olindi.

XX asrning 70-80-yillarida Qashqadaryo (A.Qahhorov, K.Ochilov, Ch.Hamro, A.Ergashev), Buxoro (O.Safarov, Y.Nurmurodov, D.O'rayeva), Xorazm (S.Ro'zimboyev, H.Abdullayev, N.Saburov), Namangan (T.G'oziboyev), Andijon (H.Razzoqov), Surxondaryo (Q.Mamashukurov), Qo'qon (G'.Akramov, I.Bekmurodov)da o'z ilmiy faoliyatlarini olib borgan folklorshunoslar keng ko'lamli to'plovchilik faoliyati bilan shug'ullanganlar.

Mustaqillik davrida o'zbek folklorining to'planishi

Milliy mustaqillikka erishganimizdan keyin ma'naviy qadriyatlarni tiklash va milliy mentalitetimizni belgilaydigan folklor an'analarini tiklash va rivojlantirishga alohida ahamiyat berila boshlandi. Natijada, dunyo ma'naviy tamadduniga o'zining benazir ijodiy qudrati bilan munosib hissa qo'shgan xalqimiz yaratgan qadimiy qo'shiqlar, marosim va an'analar bugungi kunda yosh avlodni ezgu an'analar ruhida kamol toptirishning muhim vositalaridan biriga aylantirildi.

Milliy mustaqillik xalqimizning o'z bobolari zakovati tufayli yaratilgan ulkan madaniy merosga bo'lgan munosabatini tubdan yangilab, ajdodlarimiz tarixi, madaniyati, ma'naviy qadriyatlari tizimini keng ko'lamda targ'ib etishning misli ko'rilmagan imkoniyatlarini ochib berdi. Istiqlol sharofati bilan dunyoqarashimizda, ongimizda ro'y bergan yangilanish, ruhiy poklanish va ma'naviy tiklanish jarayoni folklor san'atining taraqqiyotida ham yaqqol aks eta boshladi. Zero, folklor san'ati an'analari "mustaqil dunyoqarashga ega, ajdodlarimizning bebaho merosi va zamonaviy tafakkurga tayanib yashaydigan barkamol shaxs-komil insonni tarbiyalash"¹dek ulug'vor maqsadlarga xizmat qiladi.

¹ **Каримов И.А.** Озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон ҳаёт - пировард мақсадимиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2000. 25-бет.

Bugungi tarixiy-folkloriy jarayon o'ziga xos taraqqiyot tamoyillariga egaligi bilan ajralib turadi. Mamlakatimiz istiqloлга erishgandan keyin boshlangan keng ko'lamdagi ma'naviy tiklanish jarayoni bilan uzviy bog'liq holda ajdodlarimiz tomonidan asrlar davomida yaratilib, badiiy sayqal berib kelingan muhtasham folklor yodgorliklarining jahonshumul ahamiyati xususida so'z yuritish, xalq ijodiyotining unutilish arafasiga kelib qolgan ko'plab janrlarini qayta tiklash, ijrochilik an'alarini rivojlantirishning misli ko'rilmagan imkoniyatlari yuzaga keldi. Natijada joylarda faoliyat olib borayotgan folklor-etnografik jamoalar soni ko'paydi, nafaqat, Surxondaryo, Qashqadaryo va Xorazm viloyatida, balki baxshichilik maktablarining jonli an'analari yo'qolib ketgan deb hisoblangan Samarqand, Jizzax, Sirdaryo viloyatlarida ham baxshi-shoirlar yetishib chiqib boshladi. "Alpomish" dostoni yaratilganligining 1000 yilligi tantanalari keng nishonlanishi va baxshi-shoirlar hamda oqinlarning ko'rik-tanlovlari an'anaviy tarzda o'tkazib kelinayotganligi ham ko'plab yangi ijrochilarni kashf etish bilangina cheklanib qolmasdan, "Alpomish", "Kuntug'mish", "Go'ro'g'li", "Orzigul", "Oshiq G'arib va Shohsanam" singari an'anaviy dostonlarning yangi variantlari yuzaga kelishiga yo'l ochdi. Baxshi-shoirlar hur diyorimizda istiqloл-yillarida amalga oshirilgan bunyodkorlik ishlarini tarannum etuvchi doston va termalarni yaratdilar. O'zbek marosim folklori, askiyachilik, qiziqchilik, tomosha san'ati, xalq hunarmandchiligining qadimiy an'analari tiklandi.

Milliy istiqloл o'zbek folklori asarlarini barcha hududlar bo'yicha izchil to'plash va sistemalashtirish borasidagi ishlarni jadallashtirib yubordi. Bu davrda O'zbekistonda folklor to'plovchilik ishlari O'zR FA Til va adabiyot instituti Folklor bo'limi (T.Mirzayev, M.Jo'rayev, A.Musaqulov, Sh.Turdimov, L.Xudoyqulova, M.Pirmatova, X.Xolova) Hamza nomidagi San'atshunoslik instituti (R.Abdullayev, I.Abdurahmonov), Toshkent davlat madaniyat instituti Xalq ijodiyoti kafedراسи (M.Murodov, G'.Jalolov, T.Ashurov, S.Yo'ldosheva, N.Qosimov), Respublika Xalq ijodiyoti va madaniy-ma'rifiy ishlar ilmiy-metodik

markazida (O'Tohirov, M.Qozoqboyev) izchil davom ettirildi. Bundan tashqari, xalq og'zaki badiiy ijodi namunalarini yozib olish ishlari O'zbekiston milliy universiteti (O.Madayev, T.Sobitova), Buxoro davlat universiteti (O.Safarov, D.O'rayeva, S.Avezov, R.Saidova), Urganch davlat universiteti (S.Ro'zimboyev, J.Yusupov, S.Soriev, N.Quronboeva), Qarshi davlat universiteti (A.Ergashev, D.Xalilova), Andijon davlat universiteti (S.Mirzayeva), Jizzax davlat pedagogika instituti (U.Jumanazarov), Termiz davlat universiteti (R.Mustafoqulov), Toshkent viloyat davlat pedagogika instituti (M.Boboyev, I.Yormatov, F.Eshboeva), Navoiy davlat pedagogika instituti (O.Qayumov, F.Nurmonov, U.Sattorov), Qo'qon davlat pedagogika instituti (I.Bekmurodov) da ham amalga oshirildi.

Sobiq sho'rolar mafkurasining tazyiqi tufayli yozib olinishi mushkul bo'lgan ayrim janrlar, jumladan, marosim folklorining ko'plab namunalari to'plandi. Masalan, «yo ramazon» qo'shiqlari, nikoh to'yi marosimida ijro etiladigan fотиha olqishlari, Amir Temur, Alisher Navoiy, Bobur singari ulug' yurtodoshlarimiz to'g'risidagi tarixiy rivoyatlar, joy nomlari, qadimiy shaharlar, qal'alar, ziyoratgohlar, muqaddas mozorlar va qadamjolar bilan bog'liq afsonalar, xalqimizning qadimiy mifologik tasavvurlari hamda miflari yozib olindi. Istiqlol-yillarida O'zR FA Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot instituti Folklor bo'limi xodimlari tomonidan bir nechta folklor ekspeditsiyalari o'tkazildi. Xususan, M.Jo'rayev Samarqand, Navoiy, Buxoro viloyatlari aholisining tabiat hodisalari va osmon yoritqichlari bilan bog'liq mifologik qarashlarini to'pladi; M.Jo'rayev, U.Sattorov, R.Saidovalar Buxoro va Navoiy viloyatlaridan toponimik afsonalarni yozib oldilar; M.Jo'rayev va M.Pirmatovanning ko'p yillik izlanishlari natijasida Buxoro, Surxondaryo, Navoiy, Samarqand, Xorazm viloyatlari hamda Qirg'iziston respublikasining O'sh viloyatida istiqomat qiluvchi o'zbeklarning an'anaviy taqvimiga oid boy folklor materiallari yozib olindi. Folklor bo'limining ilmiy xodimlaridan X.Xolova Buxoro viloyatining Qorako'l va Olot tumanlarida ilmiy izlanish ishlari olib borib, to'y marosim qo'shiqlarini to'plagan

bo'lsa, L.Xudoyqulova Surxon vohasi aholisining bola tug'ilishi bilan aloqador irim-sirimlari, beshik to'yi, sunnat to'yi va nikoh to'yi marosimi folklorini yozib oldi.

Istiqlol sharofati tufayli xalq og'zaki badiiy ijodiyotini to'plash, sistemalashtirish, ommaviy va akademik nashrlarni amalga oshirish hamda keng ko'lamli fundamental tadqiqotlarni yaratish borasida bugungi kunda yirik ishlarni amalga oshirib kelayotgan O'zR FA Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot institutining Folklor arxiviga mamlakatimizning boy madaniy merosni o'zida mujassamlashtirgan noyob ilmiy ob'ektlaridan biri maqomi berildi. Folklor arxivi mamlakatimizning yetakchi ilmiy fondlaridan biri bo'lib, unda saqlanayotgan materiallar o'zbek filologiyasining taraqqiyotini belgilovchi yirik ilmiy ishlarning yaratilishi uchun manba bo'ladi.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishganidan keyin folklor asarlarini nashr etish borasidagi ishlar ham sifat, ham miqdor, ham qamrov jihatidan o'sdi. Ko'pgina dostonlar, xalq kitoblari ilk bor nashr ettirildi. "Alpomish" dostoni yaratilganligining 1000 yilligi keng nishonlanishi munosabati bilan professor T.Mirzayev bu dostonning Berdi baxshi, Po'ltan va Ergash Jumanbulbul o'g'li, Bekmurod Jo'raboy o'g'li, Saidmurod Panoh o'g'li variantlarini 1999-yilda alohida kitoblar holda to'la nashr ettirdi. U folklorshunoslik amaliyotida birinchi marotaba "Alpomish" dostoni Fozil Yo'ldosh o'g'li variantining matni rus tiliga qilingan ilmiy-adabiy tarjimasi bilan birgalikda akademik nashrga tayyorlab, chop ettirdi.

T.Mirzayev va Z.Husainova xalq baxshisi Rahmatulla Yusuf o'g'li repertuaridagi "Go'ro'g'li" turkumiga kiruvchi dostonlarni to'la nashrga tayyorladilar va uning asosiy qismi "Go'ro'g'lining tug'ilishi" (1996), "Avazxon" (1997), "Go'ro'g'li dostonlari" (2006) nomi bilan nashr etildi. 2006 yilda esa Rahmatulla Yusuf o'g'li repertuaridagi "Go'ro'g'li" dostonlari to'la holda nashr etildi. Bundan tashqari, 2006-yilda M.Jo'rayev va H.Eshchonovlar tomonidan o'zbek eposining qadimiy namunalaridan biri – "Ediga"

(Tulumxo'ja) dostoni, 2007-yilda esa "Rustamxon" dostoni (nashrga tayyorlovchi: J.Eshonqul) nashr etildi.

O'zbek xalq ertaklarining bir nechta to'plamlari dunyo yuzini ko'rdi. Jumladan, K.Imomov "O'zbek xalq ertaklari"ni lotin yozuvida chop ettirdi (2000). 2007-yilda uch jildlik "O'zbek xalq ertaklari" majmuasi nashrdan chiqdi. Shuningdek, K.Imomov "Dev qiz. O'zbek xalq ertaklari" (1992), "Ming bir kulgi. O'zbek xalq ertaklari" (1994), "Sichqon qiz. O'zbek xalq ertaklari" (1998), "Kenja botir. O'zbek xalq ertaklari" (2000), "Jo'ja bilan tulki. O'zbek xalq ertaklari" (2005) kabi to'plamlarni nashrga tayyorlab chop ettirdi. J.Yusupov to'plagan "Xorazm ertak, rivoyat va naqllari" (2005), T.G'oziboyev yozib olgan "Namangan ertaklari" (2005) to'plamlari ham o'quvchilar qo'liga yetib bordi.

O'zbek folklorshunoslari, afsona va rivoyatlardan tuzilgan folklor to'plamlarni chop ettirdilar. Xususan, "El desa Navoiyni. Hazrat Mir Alisher Navoiy haqidagi rivoyatlar" (to'plab, nashrga tayyorlovchi: M.Jo'rayev, 1991-yil). "Ipak yo'li afsonalari" (to'plab, nashrga tayyorlovchi: M.Jo'rayev, 1993-yil), "Predanie glasit" (nashrga tayyorlovchi: M.Abdurahimov, 1994-yil), "Bobolardan qolgan naqllar" (to'plab, nashrga tayyorlovchi: M.Jo'rayev, 1998-yil), "Buxoro afsonalari" (to'plab, nashrga tayyorlovchilar: M.Jo'rayev va R.Saidova, 2002-yil) kabi to'plamlar mustaqillik davri o'zbek folklorshunosligi tarixida muhim o'rin tutadi.

Istiqlol tufayli marosim folklorining ilgari nashr etilmagan yoki qisman ommalashtirilgan namunalari chop ettirildi. Xususan, o'zbek folklorshunosligi tarixida birinchi marta navro'z bayrami bilan bog'liq o'zbek folklori asarlaridan tuzilgan "Navro'z" kitobi (tuzuvchilar: T.Mirzayev va M.Jo'rayev, 1992-yil), yilboshi bayrami va bahoriy udumlar bilan aloqador urf-odat hamda marosimlar, unda ijro etiladigan qo'shiqlar tahliliga bag'ishlangan "Navro'z qo'shiqlari" (M.Jo'rayev, 2007-yil), xalqimizning tabiat hodisalari bilan aloqador inonch va ta'birlari jamlangan "Ob-havo darakchilari" to'plami (to'plab, nashrga tayyorlovchi: M.Jo'rayev, 1996-yil), "Ulug' oy umidlari. "Yo ramazon" qo'shiqlari" (to'plab, nashrga tayyorlovchilar: M.Jo'rayev va Sh.Shomusarov, 2001-yil),

o'zbek dafn va ta'ziya marosimlari folklori namunalaridan tarkib topgan "Bo'zlardan uchgan g'azal-yey" (nashrga tayyorlovchilar: O.Safarov, D.O'rayeva, 2005-yil) singari kitoblar xalqimizning marosim folklorini to'la nashr etish yo'lidagi muhim qadamlardan biri hisoblanadi.

Shuningdek, folkloristik izlanishlar samarasi o'laroq "Ostonasi tillodan. To'y marosim qo'shiqlari" (to'plab, nashrga tayyorlovchilar: M.Mirzayeva, A.Musaqulov, 1993-yil), "Qizil gulning g'unchasi. "Kelin salom"lar" (to'plab, nashrga tayyorlovchilar: M.Jo'rayev va O.Ismonova, 1999-yil), "Oy oldida bir yulduz. O'zbek xalq marosim qo'shiqlari" (to'plab, nashrga tayyorlovchi: M.Jo'rayev, 2000-yil), "To'y muborak yor-yor" (nashrga tayyorlovchi: O.Safarov, 2003-yil), "Sarchashmadan tomgan injular. Surxon vohasi o'zbek to'y marosim qo'shiqlari" (to'plab, nashrga tayyorlovchi: L.Xudoyqulova, 2007-yil) kabi folklor to'plamlari nashrdan chiqdi.

Folklor bo'limi xodimlarining xorijiy mamlakatlardagi ilmiy markazlar va oliy o'quv yurtlari bilan ilmiy aloqalari ham yaxshi samara bermoqda. Ayniqsa, Germaniyadagi Bonn universiteti professori Karl Rayxelning Folklor bo'limi bilan ijodiy aloqalari samarasi o'laroq bir qator o'zbek xalq ertaklari va "Alpomish" dostonining nemis tiliga qilingan tarjimasi nashrdan chiqdi. Alisher Navoiy haqidagi o'zbek xalq tarixiy rivoyatlarining M.Jo'rayev nashrga tayyorlagan majmuasi 1996-yilda Bokuda ozarbayjon tilida chiqdi. Folklor bo'limida o'z ilmiy malakasini oshirgan Filiz Qirbosh o'g'li (Turkiya) "Go'ro'g'lining tug'ilishi" dostonini, Selami Fidokor (Turkiya) esa "Rustamxon" va "Erali va Sherali" dostonlarini turk tiliga tarjima qilib nashr ettirdi. Shuningdek, Turkiyada ham "Alpomish" dostoni bosilib chiqdi. Yapon olimi Xerokining "Turkiy xalqlar qahramonlik eposi" kitobi (2002) Tokioda, Karl Rayxelning "Turkiy xalqlar eposi" kitobi (2002) Anqarada bosilib chiqdi. 2007 yilda professor T.Mirzayev hamda J.Eshonqul tomonidan nashrga tayyorlangan "Oychinor", "Erali va Sherali" dostonlari Turkiyada chop ettirildi.

O'zbek xalq maqollarini to'plash va uning eng mukammal majmuasini yaratish borasidagi ishlar uzluksiz davom ettirildi. Natijada 2005-2006-yillarda T.Mirzayev, B.Sarimsoqov, A.Musaqulovlar tomonidan nashrga tayyorlangan "O'zbek xalq maqollari"ning krill va lotin alifbosidagi nashri "Sharq" nashriyot-matbaa konsernida bosmadan chiqarildi.

1999-yilda Termiz shahrida "Alpomish" dostoni va uning jahon xalqlari epik ijodiyotida tutgan o'rni" mavzuidagi xalqaro ilmiy anjuman o'tkazildi. Ilmiy konferensiya materiallari o'zbek, rus va ingliz tillarida bosmadan chiqarildi. O'sha yili "Alpomish" dostoniga bag'ishlangan eng yaxshi tadqiqotlarining natijalari "Fan" nashriyotida chop ettirilgan "Alpomish" – o'zbek xalq qahramonlik eposi" nomli ilmiy to'plamda o'z aksini topdi.

Istiqlol-yillarida "Alpomish" dostonining shakllanish tarixi va poetikasi (T.Mirzayev, M.Murodov), o'zbek xalq lirikasining tarixiy asoslari (A.Musaqulov), o'zbek xalq dostonlari poetikasi (I.Yormatov, S.Mirzayeva, J.Eshonqulov); folklor-etnografik jamoalar ijodiyoti va uning hozirgi tarixiy-folkloriy jarayondagi o'rni (S.Yo'ldosheva), o'zbek mifologiyasi (M.Jo'rayev, T.Xaydarov, T.Rahmonov, Sh.Shomusarov), dev, yalmog'iz, pari, ilon-ajdar, Xizr kabi mifologik obrazlar (J.Eshonqulov, B.Jumaniyozov, O.Qayumov, D.Fayziyeva, F.Nurmonov), "Go'ro'g'li" turkumi dostonlarining tarixiy ildizlari, tipologiyasi va badiiyati (Sh.Turdimov, S.Soriev), afsona va rivoyatlar (K.Imomov, M.Jo'rayev, U.Sattorov, M.Rahmonova, R.Saidova, Z.Jumayev), lingvofolkloristika (M.Yoqubbekova, M.Jumaniyozova, J.Xolmurodova), bolalar folklori (O.Safarov, N.Qurbonova, Sh.Galiev, S.Avezov, H.Ro'zmetov, N.Safarova), xalq qo'shiqlari (K.Ochilov, N.Qosimov, N.Shomamatov), tarixiy voqelik va folklor (U.Jumanazarov, B.Boboyev, S.Umarov) fundamental tadqiq etildi.

Har bir xalqning milliy o'zligi avvalo, uning urf-odatlar va marosimlarida namoyon bo'ladi. Shuning uchun mustaqillik-yillarida o'zbek folklorshunosligida marosim folklorining janrlar tarkibi, genezisi va badiiy xususiyatlari, ayniqsa, ilgari kam o'rganilgan janrlarni tadqiq etish tamoyili kuchaydi. Professor

T.Mirzayevning “lapar” janrining o‘ziga xos badiiy tabiatiga doir maqolasi (1998), S.Mirzayevaning afsun-avrash janriga oid monografik tadqiqotlari (1993-2005), O.Ismonovaning O‘sh viloyati o‘zbek nikoh to‘yi marosimi folklorining janrlar tarkibi va unda “kelin salom” janrining tutgan o‘rniga doir tadqiqoti (1999), S.Davlatovning Qashqadaryo vohasi o‘zbek to‘y marosim folkloriga bag‘ishlangan ilmiy ishi (1996), N.Quronboevaning Xorazm to‘y marosim qo‘shiqlarini o‘rganish borasida olib borgan tadqiqotlari (1994), R.Abdullayevning marosim folklori janrlarining Markaziy Osiyo xalqlari musiqa folklori tizimida tutgan o‘rniga oid izlanishlari (2007), O.Safarov, M.Jo‘rayev, Sh.Shomusarov, Z.Jumayev, M.Pirmatovalarning «yo ramazon» janriga oid tadqiqotlari; L.Xudoyqulovanning Surxon vohasi aholisi to‘y marosim folklorining lokal xususiyatlari va o‘ziga xosligini ochib berishga qaratilgan izlanishlari (2005-07), M.Jo‘rayev, M.Pirmatovalarning o‘zbek xalq taqviimi va mavsumiy marosimlar folklori janrlarini o‘rganishga oid ilmiy tadqiqotlari (1997-2007), O.Qayumovning o‘zbek shomon marosimlari folklorini yozib olish va ilmiy o‘rganish borasidagi ishlari (2006), buxorolik olimi D.O‘rayevaning o‘zbek motam marosimi folklorining genezisi, janrlar tarkibi va poetikasiga bag‘ishlangan monografik tadqiqoti (2005), F.Eshboevaning o‘zbek xalq qarg‘ishlariga doir dissertatsiya ishi (2008) muhim ilmiy qimmatga ega.

Xalq dostonlarining variantlari va versiyalarini qiyosiy tadqiq etish orqali folklorning milliy o‘ziga xosligini ko‘rsatishga qaratilgan qator ilmiy tadqiqotlar yaratildi. Bu yo‘nalishda Janubiy O‘zbekiston dostonchiligining hozirgi holati va baxshilar repertuari (A.Ergashev, N.Ochilov), “Yusufbek va Ahmadbek” (R.Jumaniyozov) “Oshiq G‘arib va Shohsanam” (G.Eshchonova), “Shirin bilan Shakar” (N.Madrahimova), “Hurliqo va Hamro” (I.Divanova), “Yozi bilan Zebo” (D.Xalilova), “Ollonazar-Olchinbek” (Sh.Qahhorova) dostonlari variantlarining qiyosiy tavsifi, genezisi va poetikasiga doir tadqiqotlarni eslatib o‘tish lozim.

Istiqlol-yillarida o‘zbek ertakshunosligi yangi bosqichga ko‘tarildi. Folklorshunos olim K.Imomov o‘zbek xalq nasrining

janrlar tarkibini tasniflashning ilmiy mezonlarini bayon qildi, ertak va ijtimoiy hayot, ertak motivlari va qadimgi marosimlarning o'zaro munosabati, o'zbek xalq ertaklarining asosiy syujet tiplari, obrazlar tarkibi va badiiy xususiyatlariga doir qator tadqotlarini nashr ettirdi. Shuningdek, o'zbek xalq ertaklaridagi "sehrli" raqamlar (M.Jo'rayev), ertaklarning hududiy-lokal xususiyatlari (J.Yusupov), sehrli ertaklarning strukturual tahlili (N.Do'stxo'jayeva), hayvonlar haqidagi ertaklarning genetik asoslari (S.Jumayeva), maishiy ertaklarning tasnifi va poetikasi (Q.Beknazarov), ertak-novellalarning spesifikasi (Z.Usmonova), o'gay qiz haqidagi o'zbek xalq ertaklarining o'ziga xosligi, genezisi va poetikasi (M.Sodiqova), ertaklarda epik zamon va makon talqini (K.Qodirov) monografik jihatdan o'rganildi.

Mustaqillikka erishganimizdan keyin xalqimizning milliy an'analarini tiklash va qadriyatlarimizni keng ko'lamda targ'ib etish borasida katta ishlar amalga oshirildi. Jumladan, mamlakatimiz prezidenti I.Karimovning navro'zi olamni umumxalq bayrami sifatida keng nishonlash to'g'risidagi farmoni asrlar davomida insoniyatni ezgu manzillar sari chorlab kelgan bu benazir an'anaga qayta hayot baxsh etdi. Folklorshunoslikda ham ana shu qadimiy va navqiron bayramning tarixiy ildizlari, rivojlanish bosqichlari, folklorini to'plash va o'rganish borasida samarali ishlar qilindi. Jumladan, T.Mirzayev va M.Jo'rayevlar tomonidan tayyorlangan "Navro'z" majmuasi (1992), M.Jo'rayevning "O'zbek xalq taqvimi va mifologik afsonalar" (1994), "Navro'z qo'shiqlari" (2007) kitoblari nashr etildi.

O'zbek folklorshunosligi maktabining kelgusidagi rejalari o'zbek folklori materiallarini izchil to'plash maqsadida atoqli alloma H.Zarif asos solgan ilmiy ekspeditsiya ishini yanada kengroq qamrovda o'tkazish va uning muntazamligini ta'minlash; H.Zarifov nomli O'zbek folklori arxivi materiallarini to'la ilmiy tavsif qilish va kataloglashtirishni amalga oshirish; folklorshunos olimlar tomonidan qariyb 80 yil mobaynida to'plangan arxiv materiallari va kelgusidagi ilmiy ekspeditsiyalar davomida yozib

olinadigan folklor namunalari asosida “O‘zbek folklori yodgorliklari” 100 jildlik akademik nashrini tayyorlash; folklor asarlarining ilmiy, ilmiy-ommabop va ommabop nashrlarini tayyorlab, lotin yozuvida chop ettirish; o‘zbek folklori janrlarining tarixiy asoslari, tipologiyasi va poetikasini dunyo folkloristikasining ustuvor ilmiy metodlari asosida tadqiq etish; oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun xalq og‘zaki badiiy ijodiyoti bo‘yicha yangi darslik va qo‘llanmalar yaratishdan iboratdir.

FOLKLOR TO'PLOVCHILIK ISHI VA UNING ASOSIY SHAKLLARI

Asrlar ardog'ida sayqallanib kelgan fusunkor ohanglar xalqimiz qalbining so'zlar sehri ila mo'jizaga aylangan ajoyib durdonalaridir. Tildan tilga, dildan dilga o'tib, bebaho xazina sifatida bizning kunlarimizgacha yetib kelgan xalq ijodiyotining "oltin sandig'i"ni ochish madaniyatimizning eng ko'hna va nodir namunalaridan bahramand bo'lish imkonini beradi. Zero, xilma-xil janrlardan iborat boy folklorimizni to'plash va saqlab qolish bir zamonlar o'z elining, ona yurtining dardlarini qo'shiqqa qo'shib, bamisoli daryoday jo'shib kuylagan chechan ijrochilarning benihoya ulkan badiiy dahosiga bo'lgan ehtiromning bir ko'rinishidir.

X asrda yashab ijod qilgan mashhur muarrix Abu Bakr ibn Ja'far Narshaxiy o'zining "Buxoro tarixi" asarida shahar va qishloq nomlari, tarixiy obidalar hamda o'tmishda bo'lib o'tgan voqea-hodisalar haqidagi xalq rivoyatlari, afsonalarni keltirgan bo'lsa, XI asrning buyuk olimi Mahmud Koshg'ariy turkiy qavmlar diyoriini kezib yurar ekan, maqol, matal, qo'shiq, rivoyat, afsona, naql singari folklor janrlariga oid boy materiallarni yozib olib, "Devonu lug'otit turk" asariga kiritgan. Shuningdek, maqol va matallarni yozib olib, ularning badiiy xususiyatlarini o'rgangan Mahmud Zamaxshariy, qadimgi xorazmliklarning mif, afsona, rivoyat va hikoyatlarini "Qisasi Rabg'uziy"ga jamlagan Nosiruddin Burhonuddin Rabg'uziy, o'zbek xalq she'riyatining janrlar tarkibi xususida fikr yuritgan Alisher Navoiy, ulug' o'zbek shoiri to'g'risidagi xalq rivoyatlarini naql qilgan xassos tarixnavis Xondamir, musiqa folklorining turli xil janriy rang-barangligiga doir materiallarni yozib qoldirgan Darvesh Ali Changiy, o'zbek xalqining urf-odatlarini, marosimlari, maqol va hikmatli so'zlari, rivoyatlari haqida qiziqarli faktlarni keltirgan Zahiriddin Muhammad Bobur, o'zi tuzgan lug'atdan ko'plab o'zbek xalq qo'shiqlaridan misol keltirgan tilshunos olim Shayx Sulaymon Buxoriy o'zbek folklori asarlarining ilk to'plovchilari edilar.

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida O'rta Osiyoda faoliyat yurgizgan sharqshunos, tilshunos, etnograf, folklorshunos olimlar, shuningdek, o'lkashunos va sayyohlar – A.Divaev, A.Eyxgorn, A.N.Samoylovich, N.P.Ostroumov, V.Vyatkin, L.Kun, N.Likoshin, P.Komarov, A.Xoroshxin, K.G.Zeleman, Yu.Kazbekov, L.Bundzinskiy, M.Rostislavov va boshqalar mahalliy aholining folklori, irim-sirimlari, mifologik e'tiqodlari, marosim va udumlari, an'anaviy taqvimi, bayram va sayllariga oid materiallarni yozib olib, asosan rus tilida nashr ettirdilar.

O'zbek folklori namunalarini izchil yozib olish va to'plash ishlari asosan 1918-yildan boshlandi. Xalq og'zaki ijodi asarlarini to'plash bilan bog'liq izlanishlar o'sha paytlarda sobiq Turkiston sho'ro Respublikasi Xalq Maorif komissarligi "Ilmiy bo'limi" tomonidan amalga oshirildi. Keyinchalik mazkur vazirlik tizimida "Turkiy seksiya" (1918-1920-yillar), "Ilmiy bo'lim" (1920-1921-yillar), "Ilmiy kengash" (1921-1922-yillar), "Davlat ilmiy kengashi" (1922-1924-yillar) kabi nomlar bilan faoliyat yurgizgan¹ ushbu bo'lim mamlakatimizdagi an'anaviy folklorini yozib olishni tashkil etishda katta ishlarni amalga oshirdi. 1918-yilda "Maorif" jurnalining 1-sonida folklor asarlarini to'plovchilar uchun maxsus qo'llanma chop ettirildi.

1919 yildan e'tiboran Xalq Maorif komissarligi "Ilmiy bo'limi" tarkibidagi "Musiqqa-etnografik bilim hay'ati", "O'zbek bilim hay'ati", "Teatr-etnografik bilim hay'ati", "Etnografiya bilim hay'ati" a'zolari keng ko'lamli folklor to'plovchilik ishlarini boshladilar. V.A.Uspenskiy, N.N.Mironovlar tomonidan xalq qo'shiqlari va an'anaviy kuylarni yozib olishda maxsus ovoz yozish uskunasi – fonografdan foydalanildi. G'O.Yunusov Toshkent va Samarqand viloyatlariga (1922-yil), G'ulom Zafariy Farg'ona vodiysiga (1921-1922-yillar), Mahmud Yunusov (Elbek) Toshkent viloyati Bo'stonliq tumani(1921-yil)da folklor ekspeditsiyasida bo'ldilar.

¹ Зарифов Х. Ўзбек фольклористикаси тарихидан // Ўзбек фольклори масалалари. – Тошкент.: Фан, 1970, 224-225-бетлар.

1925-1929-yillarda folklor to'plash ishlari Xalq Maorif komissarligi Davlat ilmiy sho'rosining "O'zbeklarni o'rganish qo'mitasi"da markazlashtirildi. 1925-yilda o'zbek xalq dostonlarining to'liq matnini bevosita baxshilar ijrosi jarayonida yozib olishga kirishildi. 1925-1929-yillar davomida o'n xalq baxshisidan 42 ta doston, jumladan, "Go'ro'g'li" turkumiga mansub 22 ta doston, shuningdek, "Alpomish", "Kuntug'mish" dostonlarining eng mukammal matnlari to'la yozib olindi. "O'zbeklarni o'rganish qo'mitasi"ning folklor ekspeditsiyalari natijasida Ergash Jumanbulbul o'g'li, Fozil Yo'ldosh o'g'li, Muhammadqul Jomrot o'g'li Po'ltan singari buyuk baxshilar aniqlandi.

"Maorif va o'qitg'uvchi" jurnalining 1926-yil 7-8-sonlarida "O'zbeklarni o'rganish qo'mitasi" raisi, professor G'ozi Olim Yunusov tomonidan yozilgan "O'zbek el adabiyotiga tegishli ma'lumotlarni to'plaguvchilarga qo'llanma" chop ettirildi. Bu qo'llanmada o'zbek folklori asarlarini yozib olishning asosiy ilmiy mezonlari va to'plovchilik ishi metodikasi keng yoritib berilgan edi.

1928-yilda Samarqandda Xalq Maorif komissarligi tarkibida "O'zbekiston mumtoz va xalq musiqasini o'rganish bo'yicha ilmiy tekshirish instituti" (hozirgi Hamza nomidagi San'atshunoslik instituti) hamda "Etnografiya, folklor va arxeologiya bo'yicha ilmiy tekshirish kabineti" tashkil etildi. 1929-yilning dekabr oyida atoqli olim H.Zarifov ana shu kabinetga mudir etib tayinlangach, bu bo'lim O'zbekiston Davlat ilmiy tekshirish instituti tarkibida faoliyat yurgiza boshladi. 1930-yilda mazkun instituti Xorazm vohasi aholisining folklori, etnografiyasi va shevasiga doir materiallarni to'plash maqsadida professor G'.O.Yunusov rahbarligida Ye.D.Polivanov, H.Zarifov, L.P.Potapov, I.G.Potapova, Q.Ramazonov, B.Rahmonov, B.Karimov, S.Salimov, P.Benkovlardan iborat kompleks ekspeditsiya tashkil etdi.

1932-yilda folklor asarlarini to'plash ishlari Xalq Maorif komissarligi tizimidagi Madaniy qurilish ilmiy tekshirish institutida davom ettirildi. Folklorshunos olim H.Zarifovning

tashabbusi va fidoyiligi tufayli 1925-1930-yillarda yozib olinib, 1931-yilda folklor to'plash ishlari asossiz ravishda to'xtatib qo'yilgandan keyin turli joylarda qolib ketgan, sochilib ketgan folklor asarlari ana shu ilmiy dargohga olib keltirildi. 1932-yil may oyida Elbek rahbarlik qilgan folklor ekspeditsiyasi (tarkibi: Ye.D.Polivanov, H.Zarifov, G'.O.Yunusov, Q.Ramazonov) Toshkent viloyatining Ohangaron va Chirchiq daryolari bo'yidagi qishloqlarda ish olib bordi. O'sha yili G'.O.Yunusov (rahbar), Elbek, Sh.Abdullayevalardan iborat folklor ekspeditsiyasi Farg'ona vodiysi bo'ylab ilmiy safarda bo'ldi.

1934-yilda Madaniy qurilish ilmiy tekshirish institutining filologik tuzilmalari negizida O'zbekiston Respublikasi Xalq Maorif komissarligi Fanlar qo'mitasiga qarashli Til va adabiyot ilmiy tekshirish instituti tashkil etildi. Xalq og'zaki badiiy ijodi asarlarini to'plash ishlari ana shu institutining Folklor bo'limi faoliyatining ajralmas qismi sifatida belgilandi va mazkur bo'lim hozirga qadar O'zbekistonda amalga oshirilayotgan folklor to'plovchilik ishlarini markazlashtiruvchi, yo'naltiruvchi hamda yozib olingan barcha folklor namunalarini saqlovchi bosh ilmiy dargoh hisoblanadi.

XX asrning 20-30-yillarida V.A.Uspenskiy, N.N.Mironov, Ye.Ye.Romanovskaya, Yunus Rajabiy o'zbek musiqa folklori asarlarini yozib olgan bo'lishsa, G'ulom Zafariy, A.K.Borovkov, K.K.Yudaxin, M.F.Gavrilov o'zbek xalq og'zaki teatri an'alarini o'rgandilar. G'ozim Olim Yunusov, Elbek, Ye.D.Polivanov, L.Potapov, Bekjon Rahmon, H.Zarifov, A.K.Borovkov, Ye.M.Pechereva, V.Drujinin, V.G.Andreev, Q.Ramazonov, A.Alaviy, Sh.Rizo, Sh.Ro'zi, Sh.Abdullayeva, B.Karimiy, M.Alaviya va boshqa mutaxassislar o'zbek folklorining eng nodir asarlarini yozib olish maqsadida tashkil etilgan dastlabki folklor ekspeditsiyalarida faol qatnashdilar. 40-80-yillarda esa H.Zarifov, A.Alaviya, M.Afzalov, M.Toshpo'latova, Z.Husainova, F.Karomatov, H.Razzoqov, T.G'oziboyev, J.Qobulniyozov, O.Sobirov, M.Saidov, M.Qodirov, Y.Jo'rayev, T.Mirzayev, M.Murodov, T.Ochilov, G'.Jahongirov, R.Muhammadiyev, T.Ashurov, S.Asqarov, F.Sultonova, A.Qahhorov, S.Sodiqov, K.Imomov, B.Sarimsoqov, R.Abdullayev, O.Madayev,

T.Sobitova, M.Qalandarova, S.Ro‘zimboyev, O.Safarov, A.Musaqulov, I.Yormatov, U.Jumanazarov, A.Tursunqulov, I.Bekmurodov, K.Ochilov, A.Ergashev, M.Jo‘rayev, Sh.Turdimov o‘zbek folklorshunoslari keng ko‘lamli folklor to‘plash ishlari bilan mashg‘ul bo‘ldilar. Mamlakatimiz istiqlolga erishgandan keyin O‘zbekistonda folklor to‘plovchilik ishlari O.Madayev, R.Abdullayev, M.Jo‘rayev, L.Xudoyqulova, M.Pirmatova (Toshkent), D.O‘rayeva, S.Avezov (Buxoro), A.Ergashev (Qarshi), S.Mirzayeva (Andijon), O.Qayumov (Navoiy)lar tomonidan izchil davom ettirilmoqda.

FOLKLOR TO'PLOVCHILIK ISHI VA UNING ASOSIY SHAKLLARI

Folklor asarlarini yozib olish va to'plash XX asrning 20-yillaridan e'tiboran faqat folklorshunoslarning vazifasi bo'libgina qolmay, balki ko'pchilik o'zbek ziyolilarining ham sharaflari ishiga aylandi. Respublikamizda folklor asarlarini yozib olish bilan shug'ullanib kelgan va bugungi kunda ham bu an'anani davom ettirayotgan to'plovchilarning kasbi, bilim saviyasi, maxsus filologik-tayyorgarligi va to'plash usuliga ko'ra xalq og'zaki badiiy ijodi asarlarini to'plovchilik amaliyotini to'rt tipga ajratishimiz mumkin.

Havaskor folklor to'plovchilik

Bunday to'plovchilar odatda xalq og'zaki badiiy ijodiyotining havasmandlari bo'lib, asosiy kasbi-kori, yumushi boshqa bo'lsa-da, o'zi istiqomat qiladigan hududda mavjud bo'lgan folklor asarlarini yozib olib, kelgusi avlodlar uchun saqlab qolishdek ezgu maqsadda xalq ijodi durdonalarini yozib olishga kirishganlar. Ular asosan, o'qituvchilar, jurnalistlar, shoir va adiblar, klub va madaniyat uylarining xodimlari, folklor-etnografik jamoalarning rahbarlari hamda qatnashchilaridan iboratdir.

Havaskor to'plovchilar o'zlari yozib olgan folklor asarlarini O'zR FA Til va adabiyot instituti huzuridagi Folklor arxiviga topshirdilar, eng yaxshi asarlarni esa tuman, viloyat, respublika vaqtli matbuoti sahifalarida e'lon qilib bordilar. Lekin ular to'plagan folklor materiallari ko'zda kechirilganda, maxsus filologik bilim va folklorshunos-to'plovchi sifatidagi malaka yetishmasligi oqibatida ayrim kamchiliklarga yo'l qo'yilganligi, xususan, ayrim o'rinlarda yozib olish mezonlari buzilganligi, yozib olingan folklor asarlariga o'zlaricha ishlov berganliklari ko'zga tashlanadi. Aslida ana shunday kamchiliklarning yuzaga kelishiga sabab folklor asarlarini yozib olish yuzasidan maxsus qo'llanmalarining yetishmasligidadir. Shunday bo'lsa-da, havaskor

folklor to'plovchilar har bir hududda kechayotgan tarixiy-folkloriy jarayonning o'ziga xos jihatlarini doimiy kuzatib borish, o'zbek folklorining hududiy rang-barangligiga doir faktik materiallarni to'plash, folklorning ayrim qadimiy janrlariga oid matnlar yo'qolib ketishining oldini olish va eng muhimi, xalqimizning og'zaki badiiy ijodiyoti xazinasini to'la-to'kis yozib olib, arxivlashtirish borasida juda katta ishlarni amalga oshirdilar. Shu jihatdan qaraganda, havaskor folklor to'plovchilar o'zbek xalk og'zaki badiiy ijodiyotining chinakam jonkuyarlari hisoblanishadi.

"Maorif" jurnali o'zining 1918-yil 1-sonida "Qalam ahllaridan o'tinch" sarlavhasi ostida chop ettirgan murojaatnomasida ziyolilarni xalq og'zaki badiiy ijodiyoti asarlarini to'plashga undagan edi: "Xalq tilinda so'ylanib yuraturg'on turli hikoyalar, rivoyatlar, topishmoqlar, kulgi so'zlar, maqollar, she'rlar va shunga o'xshash xalqning e'tiqodini, urf-odat ham turmushina oid qandaygina bo'lmasin so'zlarni va umuman...xalq adabiyotini yig'ib "Maorif" mujallasi idorasiga yozib yuborilsin" (o'sha manba, 8-bet).

Xalq Maorif komissarligining tashabbusi bilan folklor to'plovchilar uchun qo'llanma tarzida yozilgan ushbu murojaatnomada xalq og'zaki badiiy ijodiyoti asarlarni to'plash ishiga ziyolilar ommasini qatnashtirish, to'plovchilik bilan bog'liq dala ishlarini bevosita xalq orasida o'tkazish hamda folklori keksa kishilar, eng avvalo, xotin-qizlardan yozib olish tavsif qilingan edi. Bu murojaatnomadan keyin ko'pgina ziyolilar folklor asarlarini havaskorlik yo'li bilan to'plashga kirishdilar.

1922-1923-yillarda o'zbek folklorining lapar, maqol, topishmoq, ertak, bolalar qo'shiqlari va bolalar o'yin folkloriga oid boy materiallarni yozib olgan shoir Elbek, 1921-22-yillarda Toshkent va Farg'ona viloyatlari bo'ylab safar qilish davomida qo'g'irchoqbozlik va qiziqchilik san'atiga doir materiallarni to'plagan hamda og'zaki drama namunalari yozib olgan G'ulom Zafariy, Xorazm vohasida ommalashgan xalq maqollarini to'plab, 1924 yilda "O'zbekcha otalar so'zi" nomli kitobni nashr ettirgan Rahmon Bekjon, 20-yillarda Samarqand viloyatining Bulung'ur

tumanidagi Kaptarxona qishlog'ida xalq dostonlarining mukammal variantlarini kuylagan mashhur baxshi-shoirlar – Fozil Yo'ldosh o'g'li, Ergash Jumanbulbul o'g'li, Muhammadqul Jonmurot o'g'li Po'lkandan xalq eposi namunalarini yozib olish ishini izchil tashkil etgan hamda xalq urf-odatlarini, marosimlari, irim-sirim va e'tiqodiy qarashlariga doir boy etnofolkloristik materiallarni to'plagan fidoyi o'zbek ziyolisi Iso Ernazar o'g'li havaskor folklor to'plovchilikning ilk qaldirg'ochlari bo'lishgan.

Atoqli xalq shoiri Ergash Jumanbulbul o'g'lining doston va termalari majmuasi bo'lmish "Bulbul taronalari"ning 1973-yilda chop etilgan beshinchi jildida shunday ma'lumotlar bor: "O'zbekiston xalq Maorif komissarligi Ilmiy markazining o'zbeklarni o'rganish komiteti xalq dostonlarini to'plashga kirishganda, dastlab Fozil Yo'ldosh o'g'li vositasida aniqlangan Ergash Jumanbulbul o'g'lini Nurota rayonining Qo'rg'on qishlog'idan Samarqandga olib kelish va asarlarini izib olishda Iso Ernazar o'g'lining amaliy yordami katta bo'ldi. 1925-yilda atoqli xalq shoirini Samarqandga olib kelib olimlarga tanishtirgan ham ana shu oliy himmatli ajoyib folklor to'plovchi Iso Ernazar bo'ldi. 1926-28-yillarda Ergash ota ko'pincha Qirqshodi qishlog'ida qadrdoni Iso Ernazar o'g'linikida yashadi. Shuning uchun ham uning ko'pgina asarlari shu yerda qalamga olindi. Atoqli xalq baxshilari Fozil Yo'ldosh o'g'li, Muhammadqul Jonmurod o'g'li Po'lkanning bir necha dostonlari shu qishloqda izilgan (286-bet)".

Bizga ma'lum bo'lishicha, Iso Ernazar o'g'li o'tgan asrning 20-yillarda xalq shoirlarini izlab topish va ularning ijodini ilmiy jamoatchilikka ma'lum qilishda alohida jonbozlik ko'rsatgan. Ularni bir joyga to'plab, xalq dostonlarini izib olishni tashkil qilgan va bu bilan cheklanmay, o'zi ham Ergash shoirdan "Kunduz bilan Yulduz", "Alpomish" (Po'ltan shoir bilan birgalikda aytilgan) dostonlarini, "Shoirlarga rahbar Hodi", "OxunBoboyev", "G'oz Olim", "Otajon Hoshim" kabi termalarni, Fozil Yo'ldosh o'g'lidan "Malika Ayyor", "Murodxon", "Shirin bilan Shakar", Po'ltan shoirdan "Go'ro'g'lining Arab Rayhonning qizini olib qochib

kelishi” kabi dostonlarni lzib olgan. Iso Ernazar o’g’li haqida bizga ma’lum bo’lgan bor-yo’q ma’lumot ana shundan iborat edi, xolos.

Biz Iso Ernazar o’g’lining halti va ijodi bilan qiziqib, “Ostonasi tillodan” ekspeditsiyasining 2001-yil aprel oyida Samarqand viloyatiga qilgan ijodiy safarini “Chavqi” gulxanining alangasi asrlar davomida zim-zil tun bag’rini tilib ko’kka o’rlagan Bulung’ur tumanidan boshladik. Ekspeditsiyamiz ikki guruhga bo’linib ish olib bordi. Filologiya fanlari doktori Mamatqul Jo’rayev, filologiya fanlari nomzodlari Shomirza Turdimov, Abbos Tursunqulovlardan iborat ijodiy guruh folklor to’plovchi Iso Ernazar o’g’li bilan bog’liq xotiralarni lzib olish hamda Qirqshodi qishlog’i folklorini o’rganish bilan shug’ullandi.

Ekspeditsiyamiz a’zolari el deya el oralab yurib, so’z gavharlarini yiqqan xassos folklor to’plovchi Iso Ernazar o’g’lining izlarini axtarib, u yashagan Qirqshodi qishlog’iga bordi. U yerda o’tgan asrning 20-30-yillarda ro’y bergan voqealarni yaxshi biladigan keksa kishilar bilan suhbatlashdik. Ularning xotirlashlaricha, Iso Ernazar o’g’li 1887-yilda Hozirgi G’allaorol tumanidagi Gadoy qishlog’ida tug’ilgan. Uning otasi tirikchilik bois Qirqshodi qishlog’iga kelib o’rnashib qoladi. Muhammad Iso qishloqdagi eski maktabda savodini chiqargach, Samarqanddagi madrasalardan birida to’rt-besh yil tahsil oladi. Mulla Muhammad Iso Ernazar o’g’lining farzandi Sa’dulla Isaevning aytishicha, uning otasi Buxoro va Turkiyadagi ilm dargohlarida ham o’qigan ekan. 20-yillardan boshlab Muhammad Iso Ernazar o’g’li bir qancha vaqt Bulung’ur nohiya xalq sudida xizmat qilgan.

Xalq og’zaki ijodiga ixlosi baland bo’lgani uchun u Fozil shoir bilan do’stlashadi, keyinchalik folklorshunos olimlar bilan tanishib, xalq og’zaki ijodiltining ahamiyatini tushungach, folklor asarlarini lzib olishga qattiq bel bog’laydi. Fozil shoir ko’magida Samarqand viloyatining turli qishloqlarida yashab ijod qilaltgan xalq baxshilarini aniqlaydi. Ayniqsa, Ergash shoir va Po’lkan shoirlarni ilmiy jamoatchilikka ma’lum qilishi madaniyatimiz tarixidagi ulkan voqealardan biri bo’lgan. U 1925-yilda

Samarqandning chekka qishloqlaridan biri – Jo‘shga borib, Ergash Jumanbulbul o‘g‘lini izlab topadi va uni Qirqshodiga olib keladi.

Muhammad Iso Ernazar o‘g‘li Kaptarxona degan mahalladagi boylardan birining mehmonxonasida yashagan. 1925-28-yillarda ana shu mehmonxonada Ergash shoir, Fozil shoir, Po‘lkan shoirlar haftalab yashashgan va doston kuylashgan ekan. O‘sha davrda o‘zbeklarni o‘rganish qo‘mitasining Toshkentdan kelgan olimlari ham shu yerda turib, Iso Ernazar o‘g‘li lrdamida Samarqand atrofidagi qishloqlardan xalq baxshilarini to‘plab, doston izib olishgan. Xususan, Qirqshodi yaqinidagi So‘loqli qishlog‘ida yashovchi 82 yashar Abdug‘ofur Shukur o‘g‘li Ergash Jumanbulbul o‘g‘li va Po‘lkan shoirlardan boshqa baxshilar ham kelishib, navbatma-navbat doston aytishgani, qishloq ahli Iso Ernazar o‘g‘lining uyida tong otguncha doston eshitganini xotirlaydi. Haqiqatan ham professor Hodi Zarifning ma‘lumotlaridan alnki, 1926-28-yillarda Qirqshodi qishlog‘i o‘ziga xos o‘zbek dostonchiligining markaziga aylangan va bu xayrli, muqaddas ishning tashabbuskori Iso Ernazar o‘g‘li edi.

Ergash Jumanbulbul o‘g‘li o‘zining “Kunduz bilan qunduz” dostonida qirqshodi qishlog‘idagi aytishuvlarni va do‘sti Iso Ernazar o‘g‘lini eslab, shunday degan edi:

*So‘zimni o‘qisang qog‘oz betida,
Bir ming to‘qqiz yuz yigirma yettida,
Tamom qildim shu dostonni men o‘zim,
Tarixini aytsam yanvar to‘rtida,
Shu kunida tamom qildim dostonni,
Qichab yetdim-da qirqlarning yurtida.*

*Odamga qo‘shilmay bitib panada,
Qirqning qishlog‘ida, Kaptarxonada,
Qaysi vaqtda bitgan ekan demasin,
Bitganimni aytib qo‘ydim sanada,
Begona emasdi, qirqdandir o‘zi,
Shu dostonning ko‘pi Isoning so‘zi,
Maorifga xizmat qilib tanilgan,*

Urug'i bo'ladi qirqman yuzi.

Bu doston qo'llzmasining O'zR FA Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyat instituti Folklor arxivida saqlanaltgan qo'llzmasining so'nggi varag'ida esa shunday qaydnoma ham bitilgan: "1927-yilning 4-yanvarida Mulla Ergash Jumanbulbul o'g'lining og'zidan eshitib izilgan, deb Maorif so'z yig'novchisi Muhammad Iso Ernazar o'g'li".

Iso Ernazar o'g'li faqat doston va termalarini izib olish bilangina cheklanib qolmay, o'zbek xalqining urf-odatlarini, irimlarini, marosim va an'analari bilan aloqador e'tiqodiy qarashlarini to'plashga ham katta hissa qo'shgan. O'zR FA Til va adabiyat institutining folklor arxivida Iso Ernazar o'g'lining «Odamning tug'ilishi, ism qo'yish, ulg'ayishi va o'lishi bilan bog'liq urf-odatlar» deb nomlangan materiallar majmuasi saqlanadi. Unda G'allaorol tumaniga qarashli qishloqlarda yashovchi qirq, yuz, nayman, uyshun kabi o'zbek urug'lariga mansub kishilarning urf-odatlarini va irim-sirimlari haqida batafsil hikoya qilinadi.

Masalan, ko'klam kunlari dehqonlar dala hovlisiga ko'chib chiqmoqchi bo'lganda o'zlari tanlagan joyga pichoq suqib belgi qilishi va band qilish uchun biror buqchani tashlab kelishi – "buqcha tashladi" odati fikrimiz dalili bo'la oladi. Folklor to'plovchi Iso Ernazar o'g'li tomonidan 1926-1927-yillarda Jizzax va Samarqand viloyatidan yozib olingan etnografik materiallarning guvohlik berishicha, bahor fasli boshlanib, dalaga chiqiladigan bo'lganda xalq taqvimini biladigan odamlardan "yulduz o'ngmi, chap?" – deb yulduzning "o'ng" yoki "chap"ini so'rashgan: Agar u yulduzni "o'ng" desa, ko'chib chiqishgan, "chap" desa, yulduz "o'ng" bo'lguniga qadar kutib turishgan. Bordi-yu o'sha so'ragan kuni yulduz "o'ng" bo'lmasa, yo tanlagan joy qulay bo'lmasa, yo qo'shnisi bo'lmasa, yo biron zarur ish chiqib qolganligi sababli shu kun ko'cholmaydigan bo'lsa, oqsoqollar: "shu bugun ko'chmaqqo o'ng edi, ko'chmasangiz boradigan joyingizga bir narsani irim qilib tashlab keeling", – deyishgan.

Shunda dalaga o'tlanayotgan dehqon "yulduz chap bo'lib qolmasin" deb bir buqcha, yo bo'lmasa, shunga o'xshagan biror

ro'zg'or buyumini qo'liga olib yo'lga tushgan. Agar dalasiga qo'shni ko'chib chiqqan bo'lsa, haligi buqchani shuning uyiga irim qilib qo'yib kelgan. Dalada qo'shni bo'lmasa va erta-indin yulduz chap bo'lib, ko'cholmay qoladigan bo'lsa, o'zi ko'chib borishga mo'ljallagan joyga bir pichoqni suqib yo tashlab kelgan.

Ko'chayotganda esa ot-aravaga ko'ch-quronini ortgan dehqon o'zi yo'lga chiqishdan avval darvozasining oldida ko'chaning ikki tarafiga o't yoqqan va shuning o'rtasidan otini minib o'tgan.

Ma'lumki, chorvadorlar orasida cho'pon tayog'i bilan bog'liq ko'plab irimlar mavjud: cho'pon tayog'ining ustidan hatlamaydilar; tayoqni birovga bermaydilar. Boysunlik kekxa cho'pon, 1912-yilda tug'ilgan Xoliq buva Rahmonovdan 2003-yilda yozib olingan ma'lumotga ko'ra, biror cho'pon boshqasiga "molimni olgansan" deb davo qilsa, o'rtaga tayoqni tashlaydi-da, shuning ustidan hatlab o'tishni talab qiladi. Agar u cho'ponning molini olmagan bo'lsa, tayoq ustidan hatlab o'tgani bilan hech qanday ziyon ko'rmaydi. Mobodo aybdor bo'lsa bamisoli cho'pon tayog'idan qurib o'ladi deb irim qiladilar. Chorvadorlarning cho'pon tayog'i to'g'risidagi tasavvur va inonchlarini o'rganishda havaskor folklor to'plovchi Iso Ernazar o'g'li tomonidan 1926-27-yillarda Bulung'ur tumanidan yozib olingan etnofolkloristik ma'lumotlar g'oyat qimmatli manba sanaladi. Ushbu qo'lyozmaning "Tayoq saqlamoqning irimi" deb atalgan faslida quyidagilarni o'qiymiz: "Molli odamlar, ushaq janliq baqdigan cho'panlar irg'ay tayoq binan mol boqadi. Mevali yog'ochlarning shoxidan ham tayoq qilaberadi. Gujum, qayrag'och, tol, tut, tovning qattiq yog'ochlaridan tayoq qilaberadi. Lekin jingg'il degan yog'ochdan tayoq qilmaydi. Sirayam uyiga keltirmaydi. Yoqmoq uchun o'ting'a olib kelsayam, kosov qilmaydi. Jingg'ildan tayoq qilmaslik katta irim bo'ladi. Molining soni ko'p bo'lsa, jingg'ildan tayoq qilsa ozayadi, degan irim bor. Shul irimlarg'a qarab jingg'ildan tayoq qilmaydi".

Bu urf-odatlar va irim-sirimlarning aksariyati endilikda yo'qolib ketganligi, hisobga olsak, Iso Ernazar o'g'lining xalqimiz

qadriyatlarini saqlab qolish borasidagi bu fidokorona xizmati nechog'liq qadrli ekanligi yaqqol ko'rinadi.

Ma'lumki, XX asrning 30-yillarida boshlangan qatag'on juda ko'p hur fikr zillilarimizni o'z komiga tortib ketdi. Xalq ijoditining jonkuyari, fidoyi folklor to'plovchilaridan biri bo'lgan Iso Ernazar o'g'li ham ana shu qatag'on qurboni bo'ldi. Uni 1931-yilning 19-dekabrda Qirqshodi qishlog'ida hibsga olishgan. Uzoq vaqt Muhammad Isoning taqdiri noma'lum bo'lib kelgan. Ikki norasida bilan qolgan xotini bu musibatga chidayolmay olamdan o'tgach, uning farzandlari Qirqshodilik yaxshi odamlar qo'lida kamol topishgan.

Muhammad Isoning o'g'li Sa'dulla Isaevning tinimsiz ravishda tegishli tashkilotlarga murojaat qilishi va izishmalari natijasida otasining taqdiriga doir muhim ma'lumotlarni aniqlashga muvaffaq bo'ldi. Ma'lum bo'lishicha, 1887-yilda tug'ilgan, hibsga olinguniga qadar (1931-yil 19-dekabr) Samarqand viloyatida xalq sudyasi bo'lib ishlagan Iso Ernazarovning ayblov ishi Turkiston harbiy okrugining harbiy tribunali tomonidan 1965-yil 21-dekabrda qayta ko'rib chiqilgan. 1932-yilning 14-oktabrida chiqarilgan hukm bekor qilingan va ish to'xtatilib, Iso Ernazarov oqlangan.

Yillar, o'n-yillar, asrlar o'tadi, xalqning jonli tili yashar ekan, uning og'zaki ijodi ham xalq xotirasiga yo'ldosh bo'lib yashayveradi. Ota-bobolarning, ajdodlarimizning tarixiga, madaniy merosiga bo'lgan qiziqish hech qachon yo'qolmaydi. Og'zaki badiiy qadriyatlarimizni to'plashga ulkan hissa qo'shgan Muhammad Iso Ernazar o'g'li kabi fidoyi kishilarning nomlari esa xalqimizning bebaho dostonlarida madh etilgan Alpomishu Go'ro'g'lilarday abadiy barhalt bo'lishiga ishonasan kishi.

30-40-yillarda esa Fotima (familiyasi aniq emas), Mullo Abdurahmon Mullo Toji o'g'li, oqtoshlik maktab o'qituvchisi G.M.Minsafin bir nechta xalq dostonlarini yozib oldilar. Toshkentlik maktab o'quvchisi J.Asomiddinov (keyinchalik "Alp Jamol" taxallusi bilan ijod qilgan dramaturg) poytaxt mahallalarini kezib yurib, yuzdan ortiq xalq ertaklarini, Alisher Navoiy

to'g'risidagi rivoyatlarni, baxshilardan bir nechta terma hamda "Bahrom va Gulandom" dostonlarini yozib oldi. O'zbekiston San'atshunoslik ilmiy tekshirish instituti tomonidan o'zbek xalq og'zaki teatri an'alariga doir materiallarni to'plash maqsadida A.L.Troiskaya rahbarligida Farg'ona vodiysiga yuborilgan folklor ekspeditsiyasi 1936-1940-yillarda 111 ta qiziqchilik asarlarini to'plashga muvaffaq bo'lgan bo'lsa, shundan 74 tasini mazkur ekspeditsi a'zosi, havaskor folklor to'plovchi Talas Normammedov yozib olgan. 1939-1941-yillarda ham folklor asarlarini to'plash borasida ancha katta natijalarga erishgan bu to'plovchi Ikkinchi jahon urushida halok bo'lgan.

Qiziltepa tumanining Kenagas qishlog'idagi maktabning 6-sinf o'quvchisi Shamsi Murodov Saidmurod Panoh o'g'lidan "Alpomish" dostonining ajoyib variantlaridan birini, shuningdek, "Go'ro'g'lining Qrimga borishi" dostonini yozib olishga muvaffaq bo'ldi. Bunday turli turli kasb egalarining ajdodlarimiz madaniy merosini saqlab qolishdagi mashaqqatli izlanishlari beiz ketmadi: ularning nomlari o'z xalqi ma'naviyatining nodir xazinasini boyitish yo'lida tengsiz ijodiy jasorat ko'rsatgan ma'rifatparvarlar sifatida adabiy tarix sahifalariga bitildi.

O'zbek folklorshunosligining asoschisi, atoqli olim Hodi Zarifov ham o'z faoliyatini dastavval havaskor folklor to'plovchilikdan boshlanganligini shunday xotirlaydi: "Bir kun kelib o'zbek folkloristikasi tarixi haqida qalam tebratish xayolimga kelmagan, buni idrok va tasavvur qilish imkoniyatdan tashqari bo'lgan o'sha davrda men **ko'ngilli, havaskor sifatida** folklor to'plashga kirishdim. Bu sohada seni A.A.Divaev qiziqtirdi. Bu muhtaram olim mening tog'am, birinchi o'zbek professori G'ozi Olim Yunusov bilan maslahatlashib, menga ishni o'zbek xalq maqol va matallarini to'plashdan boshlashni tavsiya etdi. A.A.Divaev juda oddiy va sodda qilib xalq donishmandligining ahamiyatini menga tushuntirgan va bu ulkan boylikning estetik

kuchi bilan meni sehrlab qo'ygan edi. Shundan beri o'zbeklar o'rtasidan maqol va matallarni to'plab kelaman".¹

XX asrning 50-60-yillarida Farg'ona vodiysida Robiddin Ishoqov, Otash XolMirzayev, Yo'ldosh Sultonov, Qashqadaryo viloyatida Hazratqul Xudoyberdi o'g'li, Chori Hamro, Xorazm viloyatida Nasrullo Saburovlar keng ko'lamli to'plovchilik ishlari bilan shug'ullandilar. Natijada o'zbek xalq maqollari, ertak, afsona, rivoyat, bolalar folklori, doston, terma, qo'shiq, marosim folkloriga oid boy faktik materiallar jamlandi.

Bu sohada o'zbek folklorshunosligining asosichisi, alloma H.Zarifovning topshirig'iga ko'ra Nurota tog'lari etaklaridagi qishloqlar bo'ylab folklor to'plovchilik ishlarini yo'lga qo'ygan baxshi Rahmatulla Yusuf o'g'li olib borgan ishlar, ayniqsa, samarali bo'ldi. Asli o'zi Nurotaning olis Qorakisa qishlog'ida istiqomat qilgan Rahmatulla Yusuf o'g'li Samarqand viloyatining tog'li hududlarida joylashgan qishloqlarda yashovchi aholi orasida ommalashgan ertak, afsona, naql, rivoyatlarni yozib olgan; xalq tabobati hamda o'zbeklarning vaqt hisobi amallari – an'anaviy taqvimga doir materiallarni to'plagan; "Go'ro'g'li" turkumiga kiruvchi dostonlarni yozib olgan.

Uzoq-yillar mobaynida havaskor folklor to'plovchilik faoliyati bilan shug'ullangan Nasrullo Saburov Toshkent davlat pedagogika institutining filologiya fakultetini tamomlagan. 1965-68-yillarda O'zR FA Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot institutida ishlagan N.Saburov Xorazm vohasi folklorining izchil to'plovchilaridan biridir.

U 1955-yildan xorazmlik xalfalar ijodiyoti, ertakchi va qo'shiqchilar repertuariga doir materiallar to'plash bilan shug'ullanib kelgan. 1956-65-yillar davomida Saodat xalfa Xudoybergan qizi, Maxfira Sobirova, Xoji Xudoyberganov, Ro'zi Yoqub Kamina, Matnazar Jabborov, Roziya xalfa Matniyoz qizi, Ochil Eshmurod o'g'li kabi xalfa va baxshilardan terma, qo'shiq hamda dostonlar yozib olgan. 1967-yilda namanganlik Razzoq

¹ Зарифов Х. Ўзбек фольклористикаси тарихидан // Ўзбек фольклори масалалари. – Тошкент.: Фан, 1970, 227-бет.

Qozoqboy o'g'li dostonlarini yozib olishda ham ishtirok etgan. U yozib olgan "Xurshid bilan malikai Moh", "Usta bola" (M.Sobirova), "Qorako'z oyim", "Avazning Chambilga keltirilishi" (Matnazar Jabbor o'g'li) dostonlari va bir qancha tarixiy qo'shiqlar, 1965-67-yillarda to'plangan ertak, maqol, qo'shiq, lapar, latifa va afsonalar O'ZR FA Til va adabiyot institutining Folklor arxivida saqlanadi.

70-yillarning boshida akademik Ya.G'ulomov rahbarligida Toshkent viloyatidagi arxeologik yodgorliklarning mukammal xaritasi yaratildi. Tarixiy va madaniy yodgorliklarni saqlash respublika Jamiyati Toshkent viloyat bo'limining rejasiga ko'ra, 760 ta osori atiqani o'z ichiga olgan bu xaritaga har bir yodgorlik to'g'risidagi tarixiy ma'lumotlar bilan bir qatorda xalq orasida saqlanib qolgan toponimik afsona, rivoyat va hikoyatlar ham ilova qilinishi lozim edi. Ana shu maqsadida folklor asarlarini to'plash bilan shug'ullanuvchi maxsus ijodny guruh tuzildi. O'sha davr vaqtli matbuoti va arxiv materiallarining guvohlik berishicha, olmalqlik o'lkashunos I.V.Pechurkinning bu boradagi faoliyati, ayniqsa, samarali bo'lgan. U o'zi o'qituvchilik qilgan maktab o'quvchilari bilan birgalikda Olialiqlik atrofidagi qishloqlarga folklor ekspeditsiyalari uyushtirib, qadimiy konlar, ko'hna qal'alar, qishloq, ovul nomlari bilan aloqador yuzdan ortiq afsonalarni yozib olgan. To'plangan toponimik afsona va rivoyatlarning bir qismini o'z hamshahri, keksa muallim, arab va fors tillarining puxta bilimdoni A.T.Maxsumjonov bilan hamkorlikda rus tiliga tarjima qilgan I.V.Pechurkin eng yaxshi folklor asarlarini "Алмалыкский рабочий" ("Olmaliqlik ishchisi") gazetasining 23 sonida (1972-73-yillar mobaynida) "Xalq afsonalari izidan" rukni ostida e'lon qildirgan.

Bobolarimiz donishmandligining olmos qatralariga aylangan bu badiiy mo'jizalarning o'zbek xalq afsonalari poetik silsilasida tutgan o'rni quyidagi jihatlariga ko'ra belgilanadi:

Birinchidan, havaskor folklor to'plovchi I.V.Pechurkin Toshkent viloyatidagi qadimiy madaniy markazlardan biri – Iloq vodiysidagi joy nomlari bilan bog'liq g'oyat sermazmun afsona va

rivoyatlarni yozib olgan. Bu materiallar xalq og'zaki ijodi poetikasini o'rganish manbai sifatidagi emas, balki o'z syujet tizimida Shosh, Tunkent, Choshtepa, Xonobod, Imloq, Sharqiya, Qangqa tepa kabi tarixiy toponimlar, Sag'irtosh, Eltamg'ali, Oytamg'ali, Qo'shtamg'ali, Olmaliq, Ko'lota, Do'rman, Galabotir, G'ortepa, Yettitepa, Polvontosh singari qishloqlar va Parpiota, Zangaota, Qirqqiz kabi muqaddas qadamjolar nomining kelib chiqishini izohlovchi ma'lumotlarni saqlab kelganligi bilan ham etnolingvistik ahamiyat kasb etadi.

Ikkinchidan, mazkur toponimik afsonalar Iloq vodiysida qachonlardir bo'lib o'tgan tarixiy voqealar xuruj qilgan bosqinchilarga qarshi ajdodlarimiz olib borgan mardonavor kurashlarni aks ettiruvchi lavhalarga boyligi bilan ajralib turadi. Toshkent viloyati hududida qachonlardir yashagan mug' deb atalgan qavmlardan tortib, turkiy elatlarning kelib o'rnashishigacha bo'lgan etnogenetik jarayonlar, voha aholisi etnik tarkibining shakllanish tarixi haqida ham qiziqarli ma'lumotlar jamlangan.

Uchinchidan, I.V.Pechurkin to'plagan toponimik afsona va rivoyatlar syujet tuzilishining o'ziga xosligi. o'zbeklar yashaydigan boshqa hududlarda qayd qilinmagan mavzular tizimining mavjudligi, xalqimizning hozir unutilib ketgan ko'pgina mifologik qarashlari, urf-odat va marosimlarini o'rganishda qiyosiy manba bo'la olishi bilan ham xarakterlanadi.

Havaskor folklor to'plovchi I.V.Pechurkin toponimik afsona va rivoyatlarni ommalashtirish jarayonida ayrim kamchiliklarga ham yo'l qo'ygan bo'lib, bu nuqsonlar ayrim mifologik qahramonlar va tarixiy shaxslar obrazining talqinida, tarixiy, etnografik va jo'g'rofiy ma'lumotlarni izohlashda, ayrim qadimiy tushunchalar bilan bog'liq so'zlar ma'nosini sharhlashda ko'zga tashlanadi. Bu juz'iy qusurlaridan qat'iy nazar I.V.Pechurkin ma'lum jo'g'rofiy hududda keng tarqalgan o'zbek xalq afsonalarini sistsmali ravishda to'plab, ular ustida keng qamrovli izlanishlarni boshlab bergan dastlabki tadqiqotchilardan biridir. U Toshkent viloyatidagi toponimik afsona va rivoyatlarni to'plash hamda

ommallashtirish bilan izchil shug'ullangan fidoyi o'lkashunos sifatida xalqimizning ma'naviy qadriyatlari xazinasini boyitishga katta hissa qo'shgan.¹

Shu o'rinda Xorazm vohasi folklorining yozib olinishiga katta hissa qo'shgan toshovuzlik muallim Sobir Jumaniyozov (Sobir Ehson Turk) amalga oshirgan to'plovchilik ishlari haqida alohida to'xtab o'tish kerak bo'ladi. Turkmaniston Respublikasining Toshovuz viloyatidagi Ilonli tumaniga qarashli Guliston qishlog'ida tug'ilib o'sgan S.Jumaniyozov o'quvchilik-yillaridayoq o'z hamqishloqlaridan bolalar folklori namunalarini yozib olishga kirishgan. 1974-1978-yillarda Toshkent davlat universitetining matematika fakultetida tahsil olgach, o'zi o'qigan maktabga o'qituvchi bo'lib ishga boradi. Ana shu davrdan e'tiboran uning havaskor folklor to'plovchi sifatidagi keng ko'lamli faoliyati boshlanadi. Yozgi ta'til paytida va dam olish kunlari Xorazm vohasining turli hududlari – Ko'hna Urganch, Taxta, Pitnak, Shobbozda bo'lib, yo'qolib borayotgan noyob folklor asarlarini yozib olish bilan shug'ullandi. Uning 70-yillar oxirlarida Amudaryo bo'ylab Pitnak-Chorjo'y yo'nalishidagi folklor ekspeditsiyalari, ayniqsa, samarali yakunlangan. Bu safarlar chog'ida u Pitnak, Gaz o'choq, Sarimoy, Zaungur, Sulton Sanjar, Doyaxotin, Darg'onota, Chorjo'yni yayov kezib, bolalar o'yin qo'shiqlari, marosim folklori namunalari, allalar, erkalamalar, maqol va topishmoqlar, ertak, rivoyat va afsonalar, naqlarni to'pladi. Fidoyi folklor to'plovchi S.Jumaniyozov tomonidan yozib olingan xalq og'zaki badiiy ijodi durdonalarining bir qismi K.Nurjonov tomonidan nashrga tayyorlandi va 1996-yilda Urganchdagi "Xorazm" nashriyotida "Xorazm xazinası" nomi bilan chop ettirildi.

Asli kasbi jurnalist bo'lgan Guljahon Mardonova "Saodat" jurnalining muxbiri sifatida mamlakatimizning Andijon, Farg'ona,

¹ *Бу ҳақда қаранг: Жўраев М. Ўлкашунос М.В.Печуркин тўплаган топонимик афсоналарнинг тарихий-филологик таҳлили // Тошкент шаҳри ва вилояти топонимлари муаммолари. Илмий-амалий конференция докладлари тезислари. – Тошкент, 1994, 80-82-бетлар).*

Namangan, Samarqand, Qashqadaryo viloyatlarining qishloqlarida bo'lganida, xalq ijodining rang-barang janrlariga oid qimmatli materiallarni yozib oldi. G.Mardonova tomonidan to'planib, nashrga tayyorlangan "Alla aytay, jonim bolam" (Toshkent, 1996) to'plamiga kiritilgan folklor materiallari orasida allalar, yor-yorlar, kelin salomlar, lirik qo'shiqlar, aytishuv-laparlar, yig'i-yo'qlovlar, qo'y, echki va tuya soqqanda aytiladigan mehnat qo'shiqlari hamda ro'za oyida bolalar ijro etadigan "yo ramazon" qo'shiqlari alohida ajralib turadi.

Namangan viloyatining Yangiqo'rg'on tumanidagi Pishqo'rg'on qishshlog'ida yashovchi muallim Otash aka XolMirzayev 1957-yildan beri Farg'ona vodiysida yashab ijod qilayotgan baxshilar, ertakchi va qo'shiqchilar repertuaridagi folklor asarlarini yozib olish bilan shug'ullanib keladi Uning fidoyiligi tufayli Namangan viloyatining shahar va qishloqlarida yashab ijod qilgan Razzoq baxshi Qozoqboy o'g'li, Haydar sannovchi Boycha o'g'li, Usmon Mamatqul o'g'li, Husan baxshi Rajab o'g'li, Alim shoir Niyoz o'g'li, Omon baxshi Razzoq o'g'li, Egamberdi shoir Olim o'g'li kabi yirik so'z ustalarining epik repertuaridagi folklor asarlari yozib olindi. Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O'zbek tili, adabiyoti va folklori institutining Folklor arxivida bevosita Otash akaning o'zi yozib olgan Razzoq Qozoqboy o'g'lining "Alpomish" (1967-yil), "Kunlarim" (1967-yil), "Avazning arazi" (1967-yil), "To'lab botir" (1967-yil), "Yusuf va Ahmad" (1974-yil), "Rayhon arab" (1974-yil), "Go'ro'g'li" (1975-yil), "Yozi bilan Zebo" (1975-yil), "Qunduz bilan Yulduz" (1976-yil), "Haydar firqa" (1967-yil), "Ergash" (1967-yil), haydar Boycha o'g'lining "Avazxonning olib kelinishi" (1968-yil), Abduaziz Abdurazzoqovning "Shohdorxon", (1959-yil), "Bo'tako'z" (1976-yil), "Oysanam" (1978-yil), Omon Razzoqovning "Qunduz bilan Yulduz" (1976-yil), "Yusuf va Ahmad" (1974-yil), "Go'ro'g'lining tug'ilishi" (1975-yil), "Alpomish" (1976-yil), "Zamonbekning to'yi" (1972 va 1976-yillar), "Yozi bilan Zebo" (1972, 1975 va 2017-yillar), Mamasodiq Razzoqovdan "To'lab botir" (1975-yil) kabi dostonlar

saqlanishining o'zi ham bu tinib-tinchimas insonning folklor to'plovchilik faoliyati naqadar qizg'in va keng qamrovli bo'lganligiga yorqin dalil bo'la oladi. Otash aka faqat baxshilar ijodiy faoliyatini o'rganish va ular ijro etgan asarlarni yozib olish bilangina cheklanib qolgani yo'q. U kishini yaxshi bilgan shogirdlarining aytishlariga qaraganda, Otash aka xoh xizmat vazifasini o'tayotgan payt bo'lsin, to'y-hasham yoki marakada bo'lsin, xoh biror yumush bilan safarga ketayotgan bo'lmasin yonidagi hamrohlari yoki xamsuhbatidan birorta maqol, hikmatli so'z yoki naqlni eshitsa, darhol yon daftarchasiga yozib qo'yarkan. Folklor arxivida saqlanayotgan biri-biridan go'zal Namangan xalq qo'shiqlari, bamisoli purviqor tog'lardek qadimiy o'lanlar, asrlar silsilasidan so'zlaguvchi afsonayu rivoyatlarning Otash XolMirzayev tomonidan yozib olinganligi ham shu fikr to'g'riligini ko'rsatadi. O.XolMirzayev o'zi yozib olgan 20 mingdan ziyod maqol, ko'plab qo'shiq, ertak, latifa, askiyalar hamda 20 ta xalq dostonini Folklor arxiviga topshirgan.

Folklor asarlarini to'plashga keng jamoatchilikni jalb qilish va joylarda faoliyat ko'rsatayotgan havaskor folklor to'plovchilar ishini rag'batlantirishda vaqtli matbuotning roli ham katta bo'ldi. Chunki havaskor to'plovchilar tomonidan yozib olingan folklor asarlari mamlakatimizning gazeta va jurnallarida chop ettirilishi xalq og'zaki badiiy ijodini ommalashtirishda muhim ahamiyat kasb etdi. XX asrning 50-60-yillarida gazeta va jurnallarda "Xalq qo'shiqlari" rubrikasi ostida Tesha Saydaliev, To'ra Sulaymon, Nasrullo Soburov, Nazirjon Barakaev, Hamroqul Rizo, Muhammad Zulfiqorov, Chori Hamroev, Robiddin Ishoqov, Yo'ldosh Sultonov kabi havaskor to'plovchilar tomonidan mamlakatimizning turli viloyatlaridan yozib olingan ko'plab qo'shiqlar chop ettirildi. 1988 yilda "Turkiston" gazetasida "Shoir xalqim" nomli rubrikaning ochilishi natijasida xalqimizning qo'shiqchilik san'ati bilan qiziquvchi ko'pgina havaskor to'plovchilar aniqlandi.

XX asrning oxiridan e'tiboran mamlakatimizda ko'plab folklor-etnografik jamoalar tashkil etila boshlanishi bilan havaskor folklor to'plovchilikning yangi tipi shakllandi: bu

jamoalar o'zlari faoliyat ko'rsatayotgan hudud folklorining o'ziga xos jihatlarini namoyish etish, dasturlarini yangi asarlar bilan muntazam to'ldirib borish maqsadida xalq ijodi asarlarini ijro etuvchi keksa qo'shiqchilar, baxshi-shoirlar, laparchi, o'lanchilardan ko'plab matnlarni yozib oldilar. Ayniqsa, marosim folklori va urf-odatlarga doir qimmatli materiallar to'plandi. Bu borada X.Xursandov (Surxondaryo), R.Abduqodirov (Jizzax viloyati), O.Hasanova (Buxoro viloyati) kabi folklor-etnografik jamoalarning rahbarlari alohida o'rnak ko'rsatdilar. Natijada "Gulyor", "Boysun", "Chavqi", "Mohisitora", "Gashtak" kabi folklor-etnografik jamoalarning o'ziga xos "Folklor fondi" ham yuzaga keldi.

Havaskor folklor to'plovchilar faoliyatiga hamisha alohida e'tibor bermoq kerak. Chunki ular o'zlari istiqomat qilib turgan joyning folkloriy hayotini doimiy kuzatib, tarixiy-folkloriy jarayondagi har bir o'zgarishni yozib borish, folklori muttasil to'plash imkoniga egadirlar. Ayniqsa, ayrim folklor janrlari yo'qolib, ba'zi janrlarda muayyan o'zgarishlar ro'y berayotgan bugungi kunda, ya'ni o'z tabiatiga ko'ra an'anaviy xalq og'zaki ijodiyotidan anchayin farq qiladigan "postfolklor" hodisasini o'rganishda ana shunday izchil kuzatishlar asnosida to'plangan faktik materiallar tahlili muhim ahamiyat kasb etadi.

Mutaxassis folklorshunoslar havaskor folklor to'plovchilar bilan yaqin hamkorlik qilishlari, ular tomonidan yozib olingan asarlar Folklor arxiviga jamlanib, sistemalashtirib borilishi zarur. Ayniqsa, u yoki bu folklor ijrochisi – baxshi-shoir, xalfa, jirov, askiyasi, qiziqchi, lapar yoki o'lan ijrochisi repertuaridagi asarlarni to'la yozib olishda havaskor to'plovchilar bilan hamkorlik qilish yaxshi samara beradi. Buning uchun havaskor folklor to'plovchilarga mo'ljallangan metodik qo'llanmalar, xalq og'zaki badiiy ijodiyotiga oid materiallarni yozib olish uchun anketa-savolnomalar tayyorlab, yetkazib berish, ular tomonidan to'plangan materiallarining Folklor arxiviga topshirilishini tashkil etish lozim.

Professional folklor to'plovchilik

Xalq og'zaki badiiy ijodiyotining o'ziga xos tabiati bo'yicha nazariy bilimlarni puxta egallagan, ya'ni maxsus filologik tayyorgarlikka ega bo'lgan folklorshunos olimlar "mutaxassis to'plovchilar" hisoblanadi. Folklor nazariyasi va amaliyoti bo'yicha katta tajriba to'plagan folklorshunoslar tomonidan yozib olingan folklor asarlari alohida ilmiy va va amaliy ahamiyatga ega.

Xalq og'zaki badiiy ijodi asarlarini muayyan ilmiy mezonlar asosida yozib olish an'anasini atoqli olim, professor G'ozi Olim Yunusov boshlab bergan. O'zbek folklorini to'plash va ommalashtirishning tashabbuskorlaridan biri bo'lgan G'.O.Yunusov Fozil Yo'ldosh o'g'li, Ergash Jumanbulbul o'g'li kabi xalq baxshilarini aniqlagan. O'zbek eposshunosligi tarixida birinchi bo'lib 1922-yilning yozida Fozil Yo'ldosh o'g'li va Hamroqul baxshilardan "Alpomish" dotonidan parchalar yozib olgan. U o'zining "O'zbeklarda el tanish ishi" nomli maqolasida ("Turkiston", 1922, 18.X11) folklorshunosligimizda birinchi bo'lib "Alpomish", "Go'ro'g'li", "Yusuf va Ahmad" dostonlari haqida fikr yuritib, "Alpomish" dostonini jahon adabiyotining "Odisseya", "Iliada" kabi ajoyib durdonalariga qiyoslagan. 30-yillarda tashkil etilgan folklor-etnografik ekspeditsiyalarga boshchilik qilgan olim Toshkent, Sirdaryo, Samarqand viloyatlarida bo'lib, ko'plab qo'shiq, ertak, afsona, maqol, topishmoq va rivoyatlarni yozib olgan, O'zbek marosim folkloriga doir kuzatishlar ham olib borgan G'.O.Yunusov o'zbek folklorshunosligi tarixida birinchi bo'lib xalq og'zaki badiiy ijodi namunalarini to'plovchilar uchun metodik qo'llanma ham yaratgan.

O'zbek folklorshunosligi fanining asoschisi H.Zarifov ham o'zining folklorshunos sifatidagi ilmiy faoliyatini to'plovchilikdan boshladi. H.Zarifovning o'zbek xalqi madaniyati xazinasiga qo'shgan eng ulkan hissasi Fozil Yo'ldosh o'g'li, Ergash Jumanbulbul o'g'li, Po'ltan va Islom shoirdek zabardas so'z san'atkorlarini aniqlab, ularning ijodiy merosini yozib olganligidir. Bu baxshilardan yozib olingan "Alpomish", "Yodgor", "Jahongir", "Rustam", "Ravshan", "Yusuf va Ahmad", "Avazning uylanishi",

“Shayboniyxon” kabi dostonlar o‘zbek eposining badiiy jihatdan eng ajoyib namunalari sirasiga kiradi. H.Zarifov 1929-yilda G.O.Yunusov rahbarligidagi folklor ekspeditsiyasining a‘zosi sifatida Qashqadaryo-Surxondaryo vohalarida bo‘lib, Abdulla Nurali o‘g‘li, Xolyor Abdukarim o‘g‘li kabi chechan baxshilar ijodiyotini o‘rgandi. 1930-yilgi Xorazm folklor-etnografik ekspeditsiyasida esa Bola baxshi, Qurbon sozchi, Bibi shoira, Ahmad Matnazar o‘g‘li, Xo‘jayor baxshi Vois o‘g‘li kabi xalq shoirlaridan “Asilxon”, “Xirmondali”, “Qirq ming” kabi dostonlarni yozib oldi. H.Zarifov 1935-yili Farg‘ona vodiysi dostonchilik maktabining Bo‘ri Sodiq o‘g‘li, Usmon Mamatqul o‘g‘li, Umrzoq baxshi, Hasan Xudoyberdi o‘g‘li, Hasanboy Rasul o‘g‘li kabi ijrochilarini aniqlanganligi folklorshunoslik uchun muhim yangilik bo‘ldi. Bu baxshilardan yozib olingan doston va termalar Farg‘ona vodiysida dostonchilik an‘analari allaqachon yo‘qolib ketgan degan da’volarning asossiz ekanligini isbotladi.

H.Zarifov XX asrning 70-yillariga qadar O‘zR FA Til va adabiyot instituti Folklor bo‘limining ekspeditsiyalariga rahbarlik qildi. Uning bevosita ishtiroki va rahbarligida institutda “O‘zbek folklori arxivi” yuzaga keldi.

O‘zbek musiqa folklorining to‘plovchisi, noshiri va faol targ‘ibotchisi Yunus Rajabiy o‘zbek xalq qo‘shiqlari va cholg‘u musiqasini to‘plashga 30-yillardayoq kirishgan. 1951-57-yillarda musiqa folklori ekspeditsiyasining a‘zosi sifatida Farg‘ona vodiysida, Buxoro va Samarqand viloyatlarida bo‘lib, xalq qo‘shiqlarini yozib olgan.

O‘zbek xalq qo‘shiqlarini to‘plash va ilmiy tadqiq qilishga katta hissa qo‘shgan folklorshunos olim M.Alaviya Qashqadaryo, Surxondaryo, Xorazm, Samarqand, Buxoro, Andijon, Farg‘ona, Toshkent viloyatlarida folklor ekspeditsiyalarida bo‘lib, xalq og‘zaki ijodiyotining eng qadimiy namunalari bo‘lmish qo‘shiq, afsona, rivoyat va ertaklarni to‘pladi. Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li, Islom shoir, Boymurod Boymat o‘g‘li, Haydar Boychaev, Abdulla shoir Nurali o‘g‘li, Umr shoir Safarov, Qo‘zi va To‘qli kabi xalq baxshilaridan o‘nlab termalar va dostonlarni yozib oldi.

Xassos folklorshunos Z.Husainova 1951-yildan 1985-yilgacha O'zR FA Til va adabiyot institutining folklor ekspeditsiyasi safida Respublikamizning barcha viloyatlarida, janubiy Tojikiston va O'sh viloyatida bo'lib, xalq og'zaki ijodiyotining qo'shiq, maqol, topishmoq, ertak, latifa kabi janrlariga doir matnlarni to'pladi. Bekmurod Jo'raboy o'g'lidan "Malika ayyor", "Xolbeka" (1946), Umr Safar o'g'lidan "Zandigor" (1949), Abdulla Nurali o'g'lidan "Alpomish", Toshmurod baxshi To'rabovdan "Mayda savdogar", Hamro Ergashovdan "Alpomish", Niyoz Alimqul o'g'lidan "Yusuf va Ahmad", Beknazar Rahmatovdan "Qoraqum" dostonlarini, qashqadaryolik ertakchi Abdug'afur Shukurov repertuaridagi ertaklarni yozib oldi.

M.Mirkamolova esa janubiy Tojikistonda yashovchi o'zbeklaqaylar folkloriga doir materiallarni to'plash maqsadida Ko'lob, Vose' (1961), Dang'ara, Yovon (1964), Qo'rg'ontepa (1965) tumanlariga safar qildi va o'ttizdan ortiq xalq baxshilari mavjudligini aniqlab, ularning repertuaridagi "Go'ro'g'li", "Alpomish", "Yusuf va Ahmad", "Gulmirza", "Bedil va Shodmon", "Ko'ktemir", "Oyparcha", "Ollonazar", "Oykelin", "Kal Yozi", "Yozi bilan Tansuq", "Zebixon" kabi dostonlarni yozib oldi.

M.Murodov 1959-yildan respublikamizning turli viloyatlarida folklor ekspeditsiyalarida bo'lib, Yusuf O'tagan o'g'li, Razzoq Qozoqboy o'g'li, Husan baxshi Rajab o'g'li, Haydar Boycha o'g'li, Usmon Madumar o'g'li, Eshqobil Qo'shoq o'g'li, Hazratqul Xudoyberdi o'g'li, Qodir Rahim o'g'li, Xushvaqt Mardonaqul o'g'li kabi baxshilarning repertuarini o'rganib, yuzlab doston, juda ko'p ertak, rivoyat, afsona, maqol va topishmoqlarni yozib oldi.

O'zbek folklorining o'ziga xos janri bo'lgan askiyani to'plab, tadqiq etishga kirishgan birinchi o'zbek folklorshunosi R.Muhammadiyevning tashabbusi bilan askiya san'ati materiallarini to'plash, o'rganish va ommalashtirish maqsadida maxsus folklor ekspeditsiyalari o'tkazdi. Farg'ona vodiysida bo'lgan birinchi ekspeditsiyada (1961) askiya janrining tarqalish darajasi va doirasi, tarixiy taraqqiyotini o'rganishga doir materiallar to'plandi, askiya payrovlarini yozib olindi. 1963-yilda

o'tkazilgan ikkinchi ekspeditsiyada mashhur askiyabozlarning repertuari yozib olindi. Ustoz so'z san'atkorlari haqidagi xotiralar, rivoyatlar va latifalar to'plandi va o'zbek askiyachilarining ijodiy merosi o'rganildi. 1965-yilning yozida esa Farg'ona vodiysining shimoliy tumanlarida, Sirdaryo va Toshkent viloyatlaridagi yosh askiyachilar ijodiyoti o'rganildi. R.Muhammadiyevning izlanishlari natijasida askiyaning payrov, bo'lasizmi, o'xshatdim, gulmisiz, rayxonmsiz, jambilmisiz, kofiya, laqillatish, kinoya, afsona, tugal, lof kabi qadimiy turlariga oid boy matnlar to'plandi.

Xalq teatrini o'rganishni an'anaviy og'zaki dramalarni yozib olishdan boshlagan M.Qodirov 1958-yildan boshlab Suxondaryo, Samarqand, Buxoro, Qashqadaryo, Farg'ona, Namangan, Andijon, O'sh, Xorazm viloyatlarida bo'lib, 300 ga yaqin xalq teatri ijrochilarining ijodiy faoliyatini o'rgandi, ellikdan oshiq professional va havaskor masxarabozlar bilan ijodiy suhbatlar o'tkazdi, yuzga yaqin xalq dramasi, kulgi-hikoya va qiziqchilik namunalarini yozib oldi, ko'plab pantomima, xalq raqslari va tomosha san'atining boshqa an'anaviy turlariga doir materiallar to'pladi. U 1958-yilda Samarqand viloyatidagi G'us qishlog'ida yashovchi san'atkor ayollardan o'ttizta og'zaki drama va kulgi-hikoyalarni yozib oldi M.Qodirovning folklor to'plovchilik faoliyati Respublikamizda o'zbek xalq an'anaviy teatrining uch maktabi - Buxoro, Qo'qon va Xorazm maktabi mavjudligini, har bir an'ananing umumiy va o'ziga xos tomonlari borligini ko'rsatdi.

1953-yildan e'tiboran Qarshi Davlat pedagogika instituti (hozirgi Qarshi Davlat universiteti) filolog-talabalarining an'anaviy folklor ekspeditsiyasiga rahbarlik qilgan A.Qahhorov Sherna baxshi, Umr shoir Safarov, Qodir Rahim o'g'li, Hazratqul baxshi Xudoyberdi o'g'li, Qora baxshi Umirov, Tosh shoir Chorshanbiev, Murod shoir Doniyorov, To'qli shoir, Qo'zi shoir, Chori baxshi Umirov kabi dostonchilar ijodiy merosini yozib oldi. Janubiy O'zbekiston hududidagi joy nomlari bilan bog'liq afsona va rivoyatlarni, xalq qo'shiqlari, marosim folklori asarlarini to'pladi.

O'z ustozini H.Zarifovning xalq og'zaki badiiy ijodi asarlarini to'plash borasida boshlab bergan keng ko'lamli ishlarini muvaffaqiyatli davom ettirgan professor T.Mirzayev XX asrning 60-yillaridan e'tiboran O'zbekistonda folklor asarlarini to'plash ishining asosiy yo'nalishlarini belgilab kelayotgan tadqiqotchidir. Uning o'zbek-laqaqlar folklorini to'plash hamda baxshilar ijodiyotini jonli ijro jarayonida o'rganish maqsadida 1963yil iyun-avgust oylarida Janubiy Tojikistonning Vose', Dang'ara, Qo'rg'ontepa, Kolxozobod tumanlari bo'ylab o'tkazgan ekspeditsiyasi, ayniqsa, samarali bo'ldi. Bu ekspeditsiya natijasida Dang'ara tumanining Joribqo'l qishlog'ida yashovchi 80 yashar To'la soqi Haybat o'g'li repertuarida "Alpomish" dostonining o'ziga xos varianti mavjudligi aniqlandi. Bu ilmiy kashfiyotning ahamiyati shunda ediki, "Alpomish" dostonining To'la soqi Haybat o'g'li variantida Barchinning otasi Qarmishboy deb atalishi atoqli olim Hodi Zarifning "Shajarai tarokima"dagi "o'g'uz elini og'izlarig'a qaratib, ko'p-yillar beklik qilgan yetti qizning ikkinchisi Qarmishboyning qizi va Momishbekning haloli Barchin suluv erdi" degan qaydnoma "Alpomish" dostoniga daxldor degan ilmiy farazini¹ tasdiqlovchi g'oyat muhim dalil bo'ldi. Chunki "Alpomish" dostonining To'la soqi Haybat o'g'li T.Mirzayevga aytilgan variantida ham xuddi Abulg'oziy Bahodirxon yozganidek², Barchinning otasi Boysari emas, balki Qarmishboy deb ataladi. Buning ustiga, "To'la soqining guvohlik berishicha, XIX asrning II yarmi – XX asr boshlarida yashagan Haybat soqi Shomol o'g'li, Qunduz soqlar kuylab kelgan "Alpomish" dostoni variantlarida ham Barchinning otasi Qarmishboydir. Buni Aral qishlog'ida yashayotgan Ula soqi, Mustafoqul soqlar ham tasdiqlaydi".

Ana shu ma'lumotlarning o'zi ham T.Mirzayevning o'zbek-laqaqlar baxshilari repertuaridagi dostonlarni yozib olish va bu hududdagi dostonchilik an'alarini tadqiq etish maqsadida olib borgan ekspeditsion izlanishlari qahramonlik eposi syujetining

¹ Зарифов Х. "Алпомиш" эпосининг асосий мотивлари // Шарқ юлдузи. – 1957, 1-сон, 129-бет.

² Кононов А.Н. Родословная туркмен, сочинение Абул-гази хана хивинского. М.-Л, 1958. С.78.

genetik ildizlarini aniqlashga doir g'oyat qimmatli ma'lumotlarni berganligini ko'rsatadi. Ekspeditsiya davomida Janubiy Tojikistonda yashovchi baxshi-shoirlar ijodini keng ko'lamda o'rgangan T.Mirzayev kolxozobodlik Bo'riboy Ahmedovdan "Alpomish" dostonini, Kolxozobod tumanidagi Toshobod qishlog'ida yashovchi 66 yashar Nazar Shukurovdan "Xonoyim", Dang'ara tumanining Gulbuloq qishlog'ida istiqomat qiluvchi 85 yashar Shomurod soqi Boyman o'g'lidan "Avazxonning Girdob ko'liga safari", Zardolubog' qishlog'ilik 68 yashar Moro soqi Jalmatovdan "Go'ro'g'lining nobud bo'lishi" dostoni, shuningdek, "Yozi bilan Zebo" dostonidan parchalar, bir necha ertaklar, qo'shiqlar, termalar va maqollarni yozib oldi. Bundan tashqari, o'rganilgan hududda Mustafouq soqi, Ula Haybat o'g'li, Bozor Sherov, Bo'ron soqi, Avg'on Rahimov, Qoraxon soqi va boshqa baxshilar yashab, doston kuylayotganliklari aniqlandi. Mazkur ekspeditsiya materiallari tadqiqotchiga Janubiy Tojikistonda yashaydigan o'zbek baxshilari repertuarini umumo'zbek dostonchilik an'analari tizimida qiyosiy-tarixiy jihatdan tekshirish, folklorda versiya va variantlilikni o'rganish, dostonchilikdagi jonli ijrochilik an'alarining saqlanish darajasi va taraqqiyot qonuniyatlarini aniqlash, epik syujetlarning tarqalish doirasi hamda baxshichilik san'atida ro'y berayotgan o'zgarishlarni tahlil qilish imkonini berdi.

Qadimiy an'analarga boy bo'lgan Xorazm xalq qo'shiqlari va dostonchiligining yirik tadqiqodchisi S.Ro'zimboyev 1961-yildan beri Xorazm viloyatining barcha tumanlarida, Qoraqalpog'iston Respublikasining Amudaryo, To'rtko'l, Beruniy, Ellikqal'a tumanlarida, Turkmanistonning Toshovuz viloyatida folklor ekspeditsiyalarida bo'lib, xalq qo'shiqlarini, ertak va afsonalarini to'pladi, Bola baxshi Abdullayevdan "Xirmondali", Oshiq G'arib va Shohsanam" (1981), "Bozirgon" (1969), Tursun baxshi Jumaniyozovdan "Avaz uylangan" (1980), "Hurliqo va Hamro" (1981), Qodir sozchi Karimovdan "Oshiq G'arib va Shohsanam" (1970) dostonlarini yozib oldi, xalfalar repertuari va ijrochilik san'atiga doir materiallar yig'di.

Quyi Zarafshon vohasi, ayniqsa, Buxoro, Navoiy viloyatlari folklorini to'plashda Buxoro universiteti professori O.Safarovning filologik izlanishlari muhim o'rin tutadi. U uzoq-yillar mobaynida talabalar folklor ekspeditsiyasi bilan birga qishloqma-qishloq kezib chiqqan O.Safarov o'z shogirdlariga "folklor to'plovchilik"ning "ijrochi ko'nglini topa olish va uni matnni ijro etishga ko'ndira bilish", "folklor asarlarini to'g'ri yozib olish uchun zaruriy filologik bilimga ega bo'lish", "yozib olinajak asarlarning janriy mansubiyatini to'g'ri belgilash", "to'plangan materiallarni turlar va janrlar bo'yicha ilmiy tasniflash, variantlarni to'g'ri tavsiflay olish", "yig'ilgan asarlar matnidagi eskirgan so'zlarning lug'aviy ma'nosini aniqlash, ularning shevaga xos talaffuzini to'g'ri yoza bilish" kabi jihatlarini o'rgatdi. Uning say'-harakatlari natijasida o'zbek bolalar folklori, marosim folklori namunalari to'plandi, "Mavrigi" va "Buxorcha taronalari" kabi turkum qo'shiqlar silsilasi to'la yozib olindi. Ertak, afsona, latifa, maqol va topishmoq janriga oid boy materiallar jamlandi.

XX asrning 30-40-yillarida Buyuk Karimiy, M.Toshpo'latova, Sh.Abdullayeva kabi folklorshunoslar, S.Zufarov, S.Ibrohimov singari tilshunoslar folklor ekspeditsiyalari ishida faol qatnashganlar. 50-60-yillarda esa o'zbek folklorshunosligining M.Afzalov, O.Sobirov, J.Qobulniyozov, M.Saidov, H.Razzoqov, G'.Jalolov, F.Sultonova, Z.Karimova, G'.Jahongirov, Y.Jo'rayev, T.G'oziboyev, T.Ashurov, K.Imomov, S.Asqarov, T.Ochilov, K.Ochilov singari zabardast tadqiqotchilari ayni paytda tajribali mutaxassislar sifatida folklor to'plovchilik ishi bilan ham muntazam shug'ullanib kelishgan. Tilshunos F.Abdullayev Xorazm hamda Chimkent viloyatlarida istiqomat qiluvchi o'g'uz lahjasida so'zlashuvchi aholi folklorini to'pladi. 70-yillarda folklorshunoslik ilmiga B.Sarimsoqov, A.Musaqulov, A.Tursunqulov, M.Jo'rayev, Sh.Turdimov, U.Jumanazarov kabi bilimdon tadqiqotchilar va ayni paytda, zahmatkash folklor to'plovchilarining kirib kelishi folklorshunoslik fanining chinakam yutug'i bo'ldi.

Folklor asarlarini mamlakatimizning barcha hududlari bo'yicha izchil ravishda yozib olishni tashkil etish, folklor

ekspeditsiyalari ishini muntazam yo'lga qo'yish va to'plangan folklor asarlarini arxivlashtirish va sistemalashtirishda ana shu olimlarning xizmatlari samarali bo'ldi.

Talabalar folklor amaliyoti

O'zbekiston milliy universiteti, shuningdek, Respublikamizning barcha viloyatlarida mavjud bo'lgan universitet va pedagogika institutlarining O'zbek filologiyasi fakultetlari hamda Toshkent davlat madaniyat instituti va O'zbekiston davlat konservatoriyasining xalq badiiy ijodiyoti va musiqa folklori ixtisosligi bo'yicha tahsil olayotgan talabalari o'quv rejasiga muvofiq xalq og'zaki ijodi namunalarini yozib olish uchun folklor ekspeditsiyasiga chiqadilar. Respublikamizning ko'plab pedagogika institutlari va universitetlarida talabalar folklor ekspeditsiyasi uyushqoqlik bilan o'tkazilib, g'oyatda nodir folklor asarlari to'plandi. Ayniqsa, viloyatlarda ishlaydigan folklorshunos olimlarning talabalar folklor ekspeditsiyalariga rahbarlik qilishi va har bir ekspeditsiya avvaldan tayyorlangan reja asosida o'tkazilishi yaxshi samara berdi.

Talabalar folklor amaliyotiga rahbarlik qilgan folklorshunos olimlar – M.Saidov, O.Madayev (O'zbekiston milliy universiteti), M.Obidova, M.Qalandarova (Toshkent davlat pedagogika universiteti), O.Safarov, D.O'rayeva (Buxoro davlat universiteti), Q.Mamashukurov (Termiz davlat universiteti), A.Qahhorov, K.Ochilov, A.Ergashev (Qarshi davlat universiteti), S.Ro'zimboyev (Urganch davlat universiteti), I.Bekmurodov (Qo'qon davlat pedagogika instituti), T.G'oziboyev (Namangan davlat universiteti), H.Razzoqov, S.Mirzayeva (Andijon davlat universiteti), O.Qayumov (Navoiy davlat pedagogika instituti), T.Ochilov (Samarqand davlat universiteti) say'-harakatlari tufayli mamlakatimizning turli viloyatlarida muntazam folklor ekspeditsiyalari ish olib bordi. Bunday ekspeditsiyalarning asosiy maqsadi bo'lajak filolog-o'qituvchilarni folklor ijrochiligining jonli an'analari bilan bevosita tanishtirish, folklor asarlarini yozib olish

metodikasini o'rgatish, yosh avlodni xalqimizning ko'p asrlik badiiy-estetik qadriyatlari ruhida tarbiyalashdan iborat edi. Talabalar folklor ekspeditsiyalarida yozib olingan materiallarning asosiy qismi O'zR FA Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot instituti Folklor arxivida saqlangani holda, Qarshi Davlat universitetining "Folklor ilmiy laboratoriyasi", Buxoro va Andijon davlat universitetlarining O'zbek adabiyoti kafedrasida huzuridagi "Folklor fond"lari ham ana shu izlanishlar natijasida shakllangan.

Talabalarning folklor va dialektologik amaliyoti ularning kelajakda yetuk mutaxassis bo'lib yetishuvida muhim rol o'ynaydi. Chunki, birinchidan, talabalar auditoriyada olgan nazariy bilimlarini amaliyotda sinab ko'radi; ikkinchidan, xalqning jonli og'zaki ijodiy jarayoni bilan yaqindan tanishadilar; uchinchidan, kelajakda yoziladigan malakaviy-bitiruv ishlari, magistrlik dissertatsiyalari, shuningdek, talabalarning an'anaviy ilmiy anjumanlarida qiladigan ma'ruzalari uchun faktik materiallar to'playdilar; to'rtinchidan, xalqning turmush tarzi, ma'naviy madaniyati, urf-odat va an'analari bilan yaqindan tanishadilar; beshinchidan, marosim folklori va an'anaviy marosimlarning xalq maishiy hayotida tutgan o'rniga doir kuzatishlar olib borish orqali ajdodlarimiz badiiy dahosining o'ziga xos qirralari bilan bevosita ijro jarayonida tanishadilar: oltinchidan, xalq og'zaki badiiy ijodi asarlarini yozib olib xalqimizning badiiy qadriyatlarini to'plashdek ezgu ishga munosib hissa qo'shadilar.

Maktabda folklor o'lkashunosligi

O'rta maktab darsliklarida o'zbek xalq og'zaki badiiy ijodiyotining doston, ertak, afsona, rivoyat, maqol, topishmoq kabi janrlari hamda marosim folkloriga keng o'rin berilgan bo'lib, o'quvchilarga folklor janrlari va ularning badiiyati xususida muayyan nazariy ma'lumotlar ham berib boriladi. O'quvchilarga folklor asarlarining poetik tabiatini yanada teranroq tushuntirish orqali ularning ongiga zukko ajdodlar og'zaki badiiy merosining ma'naviy qadriyat durdonasi sifatidagi mohiyatini singdirishda

“folklor o‘lkashunosligi” yo‘nalishida olib boriladigan sinfdan tashqari mashg‘ulotlar katta samara beradi. To‘garak a‘zolari xalq og‘zaki badiiy ijodi namunalarini to‘plabgina qolmasdan, o‘z qishloqlarining tarixi, urf-odatlar va marosimlari, shevasining til xususiyatlarini ham o‘rganadilar. Folklor o‘lkashunosligi vositasida xalq ijodining jonli ijro jarayoni bilan bevosita tanishadilar.

Buxoro viloyatining Olot tumanidagi Ulug‘bek nomli 14-o‘rta maktab ona tili va adabiyoti fani o‘qituvchisi Abdukarim Islomov tomonidan 1987-yilda tashkil etilgan “Yosh folklor to‘plovchilar to‘garagi” ham folklor o‘lkashunosligi yuzasidan qiziqarli ishlarni amalga oshirgan. Maktabning yuqori sinflarida tahsil oladigan o‘quvchilardan iborat “Bolalar folklor ekspeditsiyasi” tumanning Oqshoq, Bangi, Qoraqalliq, Xosabo‘yi, Bayot, Qalliq, Bangi qishloqlarida yashovchi chechan qo‘shiqlar va zukko so‘z ustalaridan qo‘shiq, ertak, maqol, afsona va naqlarni yozib olishgan. Ular to‘plagan folklor materiallari asosida maktabning Adabiyot kabinetida jajji folklor fondi yuzaga kelgan. Biz O‘zR FA Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot instituti folklor ekspeditsiyasi tarkibida 1988-yil iyul oyida Olot tumanida bo‘lganimizda, 14-o‘rta maktabda faoliyat yurgizayotgan “Yosh folklor to‘plovchilar to‘garagi” ishi bilan tanishish jarayonida yosh folklor ixlosmandlari tomonidan yozib olingan materiallar tuman qo‘shiqchilik san‘ati haqida to‘la tasavvur tug‘dira olishiga ishonch hosil qildik. Olotlik yosh folklor to‘lovchilar tomonidan yozib olingan alla janriga oid quyidagi matn ham fikrimiz dalili bo‘la oladi:

*Mening bolam yoshginam-yey, alla,
Yonimda yo‘ldoshginam-yey, alla,
Alla jonimning uchi, alla,
Sening tillaring chuchi(k), alla.*

*Sanginaning har so‘zing-yey, alla,
Manga bollarda suji, alla,
Uzoqdan sovchi kelsa, alla,*

Bellariga bosay qamchi, alla.

*Huydi, huydi, huylandi, alla,
Ariq suvi loylandi, alla,
Baliqmi deb qarasam, alla,
Ilon bo'lib tovlandi, alla.*

*Bolaginam bor bo'lsin-yey, alla,
Qo'yni to'la nor bo'lsin-yey, alla,
Nori tushib loy bo'lsa, alla,
Jo'ralari yor bo'lsin-yey, alla.*

*Bulbul deganam bir qushdir-yey, alla,
Qandayam ovozi xushdir-yey, alla,
Bulbul degan guldadir-yey, alla,
Ikki ko'zi yo'ldadir-yey, alla.*

*Alla, alla, allasi, alla,
Qamishdandir qal'asi, alla,
Qamish boshi qayrilsa, alla,
Javlon urar onasi, alla.*

*Kiyik kelar chellar bilan, alla,
Sochin tarar gullar bilan, alla,
Shugina jonim yotgandir-yey, alla,
Yonboshida gullar bilan, alla.*

Bolalar folklor to'plashni avvalo o'z onalari, buvilaridan eshitgan allalarni yozib olishdan boshlaganliklari bejiz emas. Chunki inson dunyoga kelibdiki, ona allasining jozibador ohanglari og'ushida ulg'ayadi. Yosh folklor to'plovchilar bunday xalq qo'shiqlarini yozib olish jarayonida xalqimiz hayoti bilan yaqindan tanishadilar va ajdodlarimiz yaratgan bebaho badiiy qadriyatlar tizimida mujassamlashgan yaratuvchilik, bunyodkorlik, el-yurtga muhabbat g'oyalaridan ma'naviy quvvat oladilar.

Folklor asarlarini yozib olib, kelgusi avlodlarga saqlab qolishdek ezgu ish ona allasini tinglab ulg'aygan har bir kishining o'sha mehr baytlarini yaratgan ijodkor xalq oldidagi farzandlik burchidir. Zukko so'z san'atkorlari tomonidan yaratilgan xalq og'zaki badiiy ijodiyoti namunalarini to'plashni hamisha izchil davom ettirib, badiiy javohirlar xazinasini muttasil boyitib borishimiz zarur. Chunki qo'shiq, maqol, ertak, topishmoq, doston, afsona va rivoyatlar zamiridagi hayotiy haqiqatlarni anglamasdan turib, xalqimizning o'tmishini, uning o'y-xayollarini, turmush tarzi va mehnat xarakterini tushunish mumkul. Xalqimiz azaldan qo'shiqqa dilband el bo'lib, o'z farzandlarini qal to'ridan qaynab chiqqan oromijon ohanglar og'ushida voyaga yetkazgan. Asrlar bo'yi tildan tushmay kuylanib kelingan jonbaxsh qo'shiqlarda xalqimizning osmon qadar yuksak va g'oyat hayotbaxsh g'oyalari, musaffo orzu-umidlari, ruhiy olamining turfa kengliklari o'z ifodasini topgan. Binobarin, istiqbolning oydin yo'llari ajdodlarimiz yaratgan benazir badiiy meros hazinasining mo'tabar ostonasidan boshlanadi. Shuning uchun ham xalqimiz tomonidan ming-yillar mobaynida yaratilib, badiiy sayqal berib kelingan bebaho folklor asarlarini, urf-odat va marosimlarni, e'tiqodiy qarashlar, mifologik tasavvurlar, an'analarni to'plab, nomoddiy madaniyat durdonalari sifatida ko'z qorachig'iday asrashimiz kerak. Folklor asarlarini yozib olish va to'plovchilik faoliyati ana shu ezgu ishga xizmat qiladi.

FOLKLOR ASARLARINI TO'PLASH USULLARI¹

Folklor asarlarini yozib olish ishi to'plovchilar soniga ko'ra bir necha xil tiplarga bo'linadi: a) yakka to'plovchi sifatida folklor yig'ish; b) to'plovchilar jamoasi sifatida xalq og'zaki ijodi asarlarini yozib olish. Bundan tashqari o'zbek folklori namunalarini ekspeditsiyalar uyushtirish yo'li bilan yoki ilmiy safarlar tashkil etish natijasida to'plash mumkin. O'zbek folklori namunalarini yozib olish va to'plash borasida mamlakatimizda amalga oshirilgan folkloristik izlanishlar hamda to'plovchilik amaliyoti tajribalaridan shu narsa ma'lum bo'ldiki, xalq og'zaki badiiy ijodi asoslari asosan ikki xil metod vositasida to'planadi:

1. Ekspeditsion-qidiruv metodi. Folklor asarlarini "ekspeditsion-qidiruv metodi" vositasida to'plash hozirgi davrda eng keng tarqalgan usuldir. Buning uchun avvaldan folklor ekspeditsiyasi **tarkibi** (uning rahbari va a'zolari), izlanishlar olib boriladigan hudud marshruti (ekspeditsiya ishi qaysi tumanlar bo'yicha olib borilishi), **maqsadi** (folklor ekspeditsiyasini tashkil etish va o'tkazishdan ko'zlangan maqsad), **vazifalari** (folklor ekspeditsiyasi jarayonida qanday ishlarni bajarish mo'ljallanganligi), **muddati** (ekspeditsiya qachon boshlanishi va necha kun davom etishi, ekspeditsiyaning jo'nash va qaytib kelish vaqti), **texnik vositalari** (ekspeditsiya jarayonida qanday ovoz yozish, suratga tushirish va tasvirga olish vositalari qo'llanilishi) aniq belgilanadi.

Ekspeditsiya tarkibiga kiritilgan folklorshunos olimlar xalq og'zaki badiiy ijodi asarlarini bevosita ijrochi og'zidan umumiy daftarga, magnit lentasiga, videotasmaga yozib oladilar. Har bir folklor to'plovchi o'zining kundalik faoliyati davomida olib borgan folkloristik kuzatishlarini "Ekspeditsiya kundaligi" daftariga yozib boradi.

¹ Бу фаслни ёритишда О.Сафаров, М.Жўраев, А.Турсункуловлар томонидан chop этирилган "Фольклор практикаси" (Бухоро, 1992) номли қўлланма материалларидан қисман фойдаланилди.

Folklor asarlarini yaxshi biladigan kekxa avlod ijodkorlar va ijrochilar tobora kamayib borayotganligi, an'anaviy matnlarning noyob namunalarini biladigan kishilarni topish mushkullashayotgani, qadimiy janrlar jiddiy o'zgarishga yuz tutayotganligi folklor ekspeditsiyalari ishini izchil davom ettirishni taqazo etadi.

Mamlakatimizda folklor an'analarni o'rganish va xalq og'zaki badiiy ijodi namunalarini yozib olish maqsadida bir nechta folklor ekspeditsiyalari muntazam ishlab keladi. Shulardan biri O'zR FA Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot institutining folklor ekspeditsiyasi bo'lib, turli-yillarda H.Zarifov, M.Afzalov, M.Alaviya, T.Mirzayev, M.Murodov, M.Saidov, Z.Husainova, K.Imomov, B.Sarimsoqov, M.Jo'rayev kabi folklorshunoslar rahbarlik qilgan mazkur ilmiy ekspeditsiya XX asrning 30-yillaridan hozirgi kunga qadar izchil ish olib bormoqda. Aniq dastur va reja asosida ish olib borgan bu ekspeditsiyaning har bir safari yangidan-yangi ijrochilarning aniqlanishi va yangi folklor asarlarining yozib olinishiga imkon yaratgan. Masalan, 1960-yilning may-iyun oylarida H.Zarifov boshchiligidagi folklor ekspeditsiyasi a'zolari Buxoro viloyatiga borishdi. Bu ilmiy safarda o'zbek folklorshunoslari bilan bir qatorda tojikistonlik folklorshunos olimlar – B.Shermammedov, S.Ahrorovlar ham ishtirok etishdi. Ekspeditsiya a'zolari viloyatning Qorako'l, Vobkent, G'ijduvon, Rometon, Yangibozor hamda o'sha paytda Buxoro viloyati tarkibida bo'lgan Navoiy tumanlarining ko'pgina qishloqlarida bo'lib, boy folklor materiallarini yozib olishdi. Qorako'l tumanining Qoraun qishog'ida yashovchi Abdusattor baxshidan "Go'ro'g'li", "Yunus pari", "Avazxon", G'ijduvon tumanining Zaxkash qishlog'ilik 78 yashar Amin jirov Malikbulbul o'g'lidan "Go'ro'g'lining tug'ilishi", "Yozi bilan Zebo" dostonlari yozib olindi. Shuningdek, Vokent tumanining Xajuvon qishlog'ida yashovchi 1896-yilda tug'ilgan ertakchi Bozor Juma o'g'lidan ko'pgina ertak va naqlar, qorako'llik ijrochilardan esa Go'ro'g'li haqidagi afsonalar, Umir shoir, Davlat shoir, Murod baxshi kabi ustoz baxshilar to'g'risidagi xotiralar qalamga olindi. Ekspeditsiya

a'zolari bir oydan ortiqroq vaqt mobaynida Buxoro viloyati bo'ylab ilmiy safar qilib, o'zbek folklorining doston, ertak, maqol, topishmoq, qo'shiq, rivoyat, afsona, latifa, og'zaki hikoya va bolalar folkloriga oid boy materiallarni to'plab qaytdilar.

O'zR FA Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot instituti folklor ekspeditsiyasining ikki yo'nalish bo'ylab o'tkazilgan 1973-yilgi ilmiy safari ham g'oyat samarali bo'ldi. Folklorshunos olimlar Z.Husainova, K.Imomovlardan iborat birinchi guruh Qashqadaryo viloyatining Kitob tumanida ish olib bordi. Ular ertak, marosim qo'shiqlari, maqol, topishmoq, afsona janrlariga doir materiallarni yozib olodilar. Ekspeditsiyaning ikkinchi guruhi (Ekspeditsiya rahbari – T.Mirzayev, a'zolari – O.Sobirov, B.Sarimsoqov, I.Haqqulov, A.Musaqulov) esa Qashqadaryo viloyatining Dehqonobod, Surxondaryo viloyatining Boysun, Sherobod, Termiz, Jarqo'rg'on, Sho'rchi, Denov, Sariosiyo tumanlarida ishladi. Bu guruh asosan ikki yo'nalishda folkloristik izlanishlar olib bordi: 1) mavsum, marosim va mehnat qo'shiqlari, maqol va topishmoq, tez aytish kabi mayda janrlar hamda xalq urf-odatlariga doir materiallarni to'plash; 2) yangi yaratilgan yoki ilgari yozib olingan xalq dostonlarining yangi variantlarini yozib olish.

Shu tariqa 1973-yilda Yusuf O'tagan o'g'lidan "Shahidnoma", "Ahmad sardor", Eshqobil baxshidan "Xonsuluv", Mo'min baxshi Rahmonovdan "Nurali" dostoni, 80dan ortiq marosim qo'shiqlari yozib olindi.

1976-1980-yillarda Xorazm, O'sh, Jizzax viloyatlari va Janubiy Tojikistonga uyushtirilgan folklor ekspeditsiyalarida asosan urf-odat va mavsum-marosim bilan bog'liq xalq og'zaki badiiy ijodi asarlarini to'plashga alohida ahamiyat berildi. Natijada "Badik", "Olqish", "Sust xotin", "Yo ramazon", "Kelin salom", "Yo Haydar" kabi marosim folklori janrlarining to'liq matnlarini to'plashga muvaffaq bo'lindi.

Keyingi-yillarda folklor asarlarini to'plash va tarixiy-folkloriy jarayonni o'rganish maqsadida kompleks ekspeditsiyalar tashkil etish yaxshi samara bermoqda. Bunga O'zR FA Alisher Navoiy

nomidagi Til va adabiyot instituti, O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi, O'zbekiston teleradiokompaniyasi, Hamza nomidagi San'atshunoslik instituti hamkorligida 1996-2006-yillar mobaynida uzluksiz ish olib borgan "Ostonasi tillodan" nomli ilmiy ekspeditsiya, shuningdek, YuNESKO tashabbusi bilan tashkil etilib, 2002-2004-yillarda ish olib borgan "Boysun" xalqaro kompleks folklor ekspeditsiyasini misol qilib keltirish mumkin. Folklorshunos, etnograf, san'atshunos olimlar hamda madaniyat xodimlari, telejurnalistlardan tuzilgan bu ekspeditsiyalarda o'rganilayotgan hududlarning folklori, urf-odat va marosimlari, hunarmandchiligi, amaliy san'ati, turmush tarzi, kiyim-kechak va an'anaviy bezaklari, dehqonchilik va chorvachilik xo'jaligini yuritish bilan bog'liq an'analari har tomonlama tadqiq etilib, juda boy faktik materiallar to'plandi. "Ostonasi tillodan" ekspeditsiyasida esa folklorshunoslik amaliyotida birinchi marta videotasvirga olish uskunalaridan keng ko'lamda foydalanildi va joylarda aniqlangan eng nodir folklor asarlari jonli ijro jarayonida yozib olinib, "O'zbekiston" teleradiokanali orqali efirga ham uzatildi.

Folklor asarlarini to'plovchilar xalq ijodkorlari bilan g'oyatda ehtiyotkorona munosabatda bo'lishlari, o'zaro samimiy til topishishlari lozim. Xalq ijodkoridan folklor asarlarni yozib olish uchun uni mas'ul idoralarga chaqirish yoki bu ishga rahbar shaxslarni aralashtirish, ularni "qo'shiq yoki ertak ayt", deb majburlash kerak emas. Folklorshunos olim Malik Murodovning yozishicha, bunday hollarda "u (ya'ni aytuvchi) aytishdan yo butunlai bosh tortadi yoki buzib aytadi... Folklor asarlarini bevosita o'z muhiti, o'sha aytilib turgan joyida tinglash va yozib olish maqsadga muvofiqdir".¹

Olim o'z fikrining isboti sifatida judayam xarakterli bir voqeani hikoya qiladi. M.Murodov va A.Qahhorov Qashqadaryoning uzoq bir tog'li tumanida qishloq fuqarolar yig'iniga borib, uning raisidan baxshilar, qo'shiqchilar, ertakchilar bor-yo'qligini surishtiradi. Qishloq fuqarolar yig'ini raisi

¹ Муро́дов М. Сарчашмадан томчилар. - Тошкент, 1984, 22-бет.

mehmonlarni ovora qilmaslik uchun qo'shiqchini idoraga chaqiradi. M.Murodov bu voqeani shunday eslaydi. "... Xonaga bo'ydor, qo'l panjalari erkaklarnikiga o'xshash, chorpaxil ayol kirib keldi-da, ostonada to'xtab, biz bilan bosh irg'ab so'rashgan bo'ldi. So'ngra raisga yuzlanib:

– Chaqirtirgan ekansiz, bobo – dedi. Rais bizni qisqacha tanishtirdi-da, asl maqsadga ko'chdi. Ayol kulimsiradi. Uning chehrasi juda ham ochilib ketdi.

– Qo'shiq to'plagani kelganmiz, denglar, – dedi u jiddiy ohangda. Men bosh irg'ab tasdiqlagan bo'ldim.

– Afsus, qo'shiqchi emasman-da, bo'lmasa qo'shiq aytib bergan bo'lardim-da. Ha, aytganday, bir vaqtlar uncha-muncha... Lekin anchadan buyon og'zimga olmaganligim uchun esimdan chiqib ketgan.

Obbo, yana o'sha folklorshunoslar uchun tanish – kishini hayajonga, tashvishga, umidsizlikka soluvchi jumlar: "qo'shiqchi emasman..", "esimdan chiqqan", "shunchalik joydan kelibsizlar, bilganimda aytib berardim". Men, folklorshunoslar iborasi bilan aytganda, "eski plastinkani qo'yishga majbur bo'laman... Bu degan so'z – xalq og'zaki ijodi asarlarining go'zalligi-yu, latofati, fan uchun ahamiyati va boshqalar haqida tushuncha berish demakdir. Ammo deganlarimning birontasi ham ayolga ta'sir qilmadi. Keyin rais bobo ham, boshqalar ham navbatma-navbat so'zlashdi, iltimos qilib ko'rishdi, yo'q, natija chiqmadi. Ayol hech qanday ashula bilmasligini aytib, o'z so'zida qattiq turib oldi. Lekin... ko'zlaridan qo'shiqchiligi sezilib turardi".¹ Haqiqatan ham M.Murodov keyinchalik aynan o'sha ayoldan juda ko'p an'anaviy xalq qo'shiqlarini yozib olgan.

Shu o'rinda yana alohida ta'kidlab o'tish zarurki, folklor to'plovchi xalq ijodkori bilan uchrashganida ortiqcha va keraksiz savollar bermasligi, imkoni boricha ko'proq uni "gapirtirishi" lozim. Doston aytuvchi baxshi, ertakchi yoki qo'shiqchi bilan uchrashganida, ularning har biriga alohida-alohida, bir-biriga o'xshamaydigan, ijrochi aytadigan folklor janrining xarakteriga

¹ Муро́дов М. Сарчашмадан томчилар. - Тошкент, 1984, 22-23-бетлар.

mos keladigan savollar bilan murojaat etishi kerak. Shu sababli ham hali mukammal to'plovchilik malakasiga ega bo'lmagan, xalq ijodkorlari bilan ilk bor muloqotda bo'ladigan, ya'ni folklor asarlarini yozib olish malakasini hali yetarli darajada o'zlashtirmagan yosh folklor to'plovchilarga mo'ljallab maxsus savolnoma-anketalar tuziladi va qo'llanmalar tayyorlanadi.

2) **Statsionar o'rganish metodi.** Folklor asarlarini statsionar o'rganish metodi bilan to'plash deganda, ma'lum bir hudud (viloyat, tuman, qishloq kabi)da mavjud bo'lgan folklor ijrochiligi an'analarini bir necha yil davomida mukammal va sistemali ravishda uzluksiz o'rganish nazarda tutiladi. Bu metod yordamida muayyan jo'g'rofiy hududda yashovchi aholining etnik tarkibi (qaysi urug' vakillari istiqomat qilishi), sheva xususiyatlari, og'zaki ijodiyoti, jonli og'zaki ijroda saqlanib qolgan, rivojlanayotgan yoki folklor hodisasi sifatida so'nish jarayonini boshdan kechirayotgan folklor janrlari, janrlar transformatsiyasi, marosim folklori, urf-odatlar va an'alarining hozirgi holati kabi o'nlab masalalarni o'z ichiga olgan **tarixiy-folkloriy jarayonga** doir izchil kuzatish olib boriladi. Bu metod muayyan bir hududning folklor hayotini muttasil o'rganish asosida xalq og'zaki badiiy ijodiyotida ro'y beradigan o'zgarishlarni belgilash, bunday o'zgarishlarning sabablarini aniqlash, tarixiy-folkloriy jarayon dinamikasining badiiy-estetik, ijtimoiy-madaniy tamoyillarini yoritish imkonini beradi.

Bu metodning afzalligi muayyan folklor janrlarining hudud doirasida saqlanib qolishi, transformatsiyalanishi, janrlararo munosabatlarning ro'y berishi, matniy o'zgarishlar, yangi asarlarning yuzaga kelish jarayoni hamda hayotiy voqelik, aholi turmush tarzi, ijtimoiy hayotning xalq og'zaki badiiy ijodiyotiga ta'sirini o'rganish uchun muhim materiallar beradi. O'zR FA Til va adabiyot instituti folklorshunos olimlarining 1981, 1986, 1988, 1989-yillarda Buxoro viloyatining Qorako'l, Olot tumanlari, Chorjo'y viloyatining Forob tumaniga uyushtirgan folklor ekspeditsiyalari xalq og'zaki ijodini statsionar o'rganish namunasi bo'ldi.

Folklor asarlarini statsionar o'rganish metodi asosida to'plash uchun o'rganilayotgan hududda istiqomat qiluvchi havaskor folklor to'plovchilar, o'qituvchilar, ayniqsa, talabalardan unumli foydalanish mumkin. Statsionar o'rganish uchun mo'ljallangan hudud folklorini doimiy kuzatib kelayotgan folklorshunos o'sha tuman (qishloq) joylashgan viloyat markazidagi universiteti yoki pedagogika instituti O'zbek adabiyoti kafedrası mutaxassislari bilan hamkorlikda ish olib boradi. Shu tariqa mazkur kafedraning bir necha yillik ish rejasi ishlab chiqiladi va shunga ko'ra o'rganilishi ko'zda tutilgan etnofolkloriy hududdan kelib o'qiydigan talabalarga folklor asarlarini to'plash yuzasidan bir necha yilga mo'ljallangan topshiriqlar beriladi va har yilgi natijalar to'planib, tahlil qilinadi.

Taniqli o'zbek folklorshunosi, professor T.Mirzayev "folklorni statsionar o'rganish usuli"ning ahamiyatini ta'kidlab, quyidagilarni yozadi: "ayrim tumanlar, hatto viloyatlarni statsionar o'rganishga ko'chish kerak bo'ladi. Shuni ham aytish kerakki, bir qator tumanlar, hatto qishloqlar (masalan, Samarqandda Qo'rg'on, Qashqadaryoda Pomig', Janubiy Tojikistonda Jorubqul, Turkistonda Qarnoq va boshqalar) ma'lum ma'noda "o'z" an'alariga egaligi, u joylarda folklor nisbatan keng rivojlanganligi bilan ajralib turadi. Bunday tumanlar hamisha diqqat markazida bo'lishi, bu joylarda doimiy kuzatuv ishlari olib borilishi lozim".¹

Statsionar o'rganish metodining afzalligi shundaki, unda muayyan hudud folklor hayotini uzoq davr mobaynida muttasil kuzatish, tarixiy-folkloriy jarayonning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash, xalq badiiy tafakkuri tadrijida kechadigan o'zgarishlarni o'rganish imkoni yuzaga keladi. "Folklor hayoti an'alarining paydo bo'lishi, boyib borishi va yangilanishi, rivojlanishi yoki inqirozi, ayrim variantlarning yuzaga kelishi yoki yo'qolishi, yangi namunalarning yaratilishidan iborat muttasil ijod va qayta ijod davom etayotgan jonli og'zaki adabiy-tarixiy jarayondir. Ayniqsa,

¹ Мирзаев Т. Ўзбек фольклорини ўрганишнинг асосий натижалари // Ўзбек тили ва адабиёти, 1974, №5, 47-бет.

fan va texnika, adabiyot va san'at shaxdam qadamlar bilan rivojlanayotgan, butun xalq ommaviy-badiiy ijodkorlikka har qachongidan ko'ra keng jalb etilgan bizning zamonimizda to'xtovsiz oqib turuvchi bunday jarayonda turli-tuman o'zgarishlar tez sodir bo'lmoqda. Bu narsa folklor to'plovchilik ishlari oldiga yangi-yangi vazifalar qo'ymoqda. Shuning uchun ham xalq ijodi materiallarini ekspeditsiyalar yo'li bilan to'plashga alohida e'tibor berish bilan birga, statsionar tekshiruvlarga o'tishimiz, ayrim tumanlar va hududlar folklor hayotini doimiy kuzatishimiz zarur. Folklor an'alarining muayyan holatini, unda sodir bo'layotgan murakkab jarayonlarni xuddi shunday kuzatuvlar tufayligina atroflicha o'rganish mumkin".¹

Statsionar o'rganish metodidan talabalarning folklor praktikasida ham foydalanish mumkin. Buning uchun folklor janrlari yaxshi saqlanib qolgan va qadimiy ijrochilik an'anasi saqlanib qolgan tumanlarga bir necha yil davomida ketma-ket talaba-praktikantlar ekspeditsiyasi yuboriladi. Bu usul bilan muayyan hududdagi folklor janrlarining taraqqiyoti, yashash tarzi sistemali o'rganiladi. Statsionar o'rganish metodi folklor asarlarini to'plashdagi eng samarali usul hisoblanadi.

Folklor asarlarini yozib olish metodikasi

Xalq og'zaki badiiy ijodi asarlarini yozib olish bilan shug'ullanuvchi havaskor to'plovchilar ham, folklor materiallarini ilmiy asosda to'plovchi mutaxassislar ham, xalq ijodi namunalarini o'quv-pedagogik amaliyot doirasida qog'ozga tushiruvchi talabalar ham, folklor o'lkashunosligi bilan shug'ullanuvchi o'quvchilar ham folklor asarlarini yozib olish metodi va qoidalariga qat'iy, izchillik bilan rioya qilishlari talab qilinadi. Hozirgi zamon folklorshunosligida to'plangan tajribalar shuni ko'rsatadiki, xalq og'zaki ijodiyoti namunalarini, asosan, uch xil usulda yozib olinadi:

¹ Мирзаев Т. Фольклоршunosлигимиз равнақи учун // Ўзбек тили ва адабиёти, 1980, №4, 7-бет.

Folklor asarlarini qo'lda yozib olish.

Xalq og'zaki badiiy ijodiyoti asarlarini qo'lda yozib olish folklor to'plashning eng ko'hna va an'anaviy usuli hisoblanadi. XX asrning 20-40-yillarida mamlakatimizning turli viloyatlarida folkloristik izlanishlar olib borgan mutaxassislar folklor namunalarini faqat qo'lda yozib olganlar. O'zR FA Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot institutining Folklor arxivida saqlanayotgan arab, lotin va krill alifbosida yozib olingan ulkan folklor yodgorliklari buning yorqin dalilidir. Hozirgi kunga kelib esa folklor to'plovchilik ishida zamonaviy ovoz va tasvir yozish uskunalaridan keng ko'lamda foydalanilmoqda. Shunday bo'lsa-da, xalq ijodi asarini qo'lda yozib olish – ijrochi aytgan matnni aniq va to'la qog'ozga tushirish, ma'nosi tushunarsiz bo'lgan arxaik so'zlar yoki shevaga xos dialektal leksikaga oid so'z hamda atamalarga bevosita yozib olish jarayonida izoh berib ketish imkonini berishi bilan boshqa usullardan farqlanib turadi. Eng muhimi, qo'lda yozib olish jarayonida ijrochi bilan folklor asarini yozib oluvchi mutaxassis o'rtasida bevosita aloqadorlik, muloqot tizimi saqlanib turadi. Folklor asarini boshqa usullarda yozib olganda esa bunday yaqin, ya'ni bevosita muloqot mavjud bo'lmaydi.

Qolaversa, folklorni yozib olishda hamma vaqt ham magnitofondan foydalanish imkoniyati bo'lavermaydi. Shuningdek, folklor asarini dala sharoitida yoki bevosata ijrochi xizmat qilayotgan joyda yozib olishga to'g'ri kelganda elektr manbai asosida ishlaydigan texnik vositalardan foydalanish mumkin bo'lmay qoladi. Ba'zan esa, ayrim aytuvchilar magnitofon yoki videokamera qarshisida o'zini yo'qotib qo'yishi, ovozi magnit tasmasiga tushishini xohlamasligi, ijro jarayonida o'zini erkin tutolmasligi va boshqa shu kabi sabablar tufayli yozuvda texnik vositalardan foydalanishni mushkullashtirib qo'yishi mumkin. Qolaversa, o'zbek folklorining bir qator janrlarini, masalan, so'z magiyasiga ishonishga asoslangan folklor janrlari, irim-sirimlar bilan bog'liq aytim va alomatlar, marosim folklori, afsona, rivoyat,

maqol, topishmoq, matal va iboralarni magnitofonda emas, balki qo'lda yozib olgan ma'qul.

Folklor asarlarini qo'lda yozib olish yozib oluvchidan maxsus filologik tayyorgarlikni talab qiladi. Xalq og'zaki badiiy ijodi asarini to'plashga bel bog'lagan kishi, u xoh havaskor bo'lsin, xoh mutaxassis bo'lsin, folklorshunoslik, tilshunoslik, dialektologiya, tarix va etnologiya fanlaridan muayyai darajada bilimga ega bo'lishi lozim. Agar yozib oluvchi bu fanlardan bexabar bo'lsa, birinchidan, o'zi yozib olayotgan asarning mohiyatini, uning mazmunidagi nozik badiiy mo'jizalarni, asarning g'oyaviy-estetik xususiyatlarini yaxshi tushuna olmaydi. Ikkinchidan, filologik va etnografik bilim kamligi o'z-o'zidan folklor janrlarining o'ziga xos xususiyatlari, folklor ijrochiligidan tabiati, shuningdek, badiiy matndagi ba'zi bir frazeologik birikmalar, tarixiy shaxslar nomi, etnonimlar, toponimlar, urf-odat va marosimlarga doir atamalarining ma'nosini sharhlash, talqin qilish bilan bog'liq qator qusurlarning kelib chiqishiga sabab bo'ladi. To'plovchi folklor asarlarini yozib olishda quyidagi metodlarga qat'iy amal qilishi lozim:

a) **Folklor asarlarini faqat ijro etilayotgan paytida yozib olish kerak.** Biror asarning mazmunini esda saqlab qolish va uni keyin xayolda jonlantirib qog'ozga tushirish folklor asarini soxtalashtirishga, qalbakilashtirishga olib keladi. Bu holda og'zaki ijodga xos soddalik, lo'ndalik, fikrni xalqona quyma ifodalar orqali bayon qilish, tasvirdagi betakror joziba yo'qoladi. To'plovchi folklor asarini aytayotgan, kuylayotgan yoki hikoya qilib berayotgan ijrochi qanday aytgan bo'lsa, shundayligicha, hech qanday o'zgarish yoki qo'shimchalarsiz yozib olishi lozim. Ijrochi matnini qisqartirish yoki unga yozib oluvchi tomonidan qo'shimchalar kiritilishi folklor asarining an'anaviyligiga putur yetkazadi.

b) **Ijrochi yoki informatorga ijro vaqtida xalaqit bermaslik kerak.** Baxshi yoki ertakchi biror asarni aytayotganda to'plovchi uning so'zini bo'lsa yoki matn tarkibidagi ma'nosi tushunarsiz bo'lib tuyulgan so'z, ibora haqida so'rasa jonli, tabiiy

ijro jarayonida uzilish ro'y beradi. Bu esa folklor asari ijrosidagi izchillikka putur yetkazadi. Yozib oluvchi juda ziyrak bo'lishi va ijrochini asar ijrosi paytida o'z holicha, ya'ni erkin qo'yib berishi lozim. Ijrochi matnida ma'nosi tushunarsiz so'zlar ishlatilsa, to'plovchi bunday lug'aviy birliklarning tagiga maxsus chiziq tortib qayd qilib borishi va asar ijrosi nihoyasiga yetgach, ijrochidan bevosita so'rab, aniqlashtirib olishi mumkin bo'ladi. Bundan tashqari, folklor asarini ijro etayotgan ijrochiga ijro jarayonida u yoki bu o'rinlarni qisqartirish, o'zgartirib ijro qilish kabi ko'rsatmalar ham berib bo'lmaydi. Folklor – tabiiy ijroni xush ko'radigan san'at asaridir.

v) **Folklor asari ijrochi qanday aytgan bo'lsa, shundayligicha yozib olinadi.** To'plovchi folklor asarini ijrochidan qanday eshitgan bo'lsa, shundayligicha yozib olishi talab qilinadi. Atoqli olim H.Zarifov qayt qilganidek, "o'zbek tili dialektlari va shevalarining ko'pligi, folklor asarining u yoki bu shevada yaratilganligi, u biror sheva vakilidan yozib olinganligi tufayli matnda umumo'zbek xalq tilining xususiyatlari bilan bir qatorda, shevalar uchun xarakterli leksik va grammatik xususiyatlar ham o'z aksini topgan"¹ bo'lishi shart.

Yozib oluvchi yozib olinayotgan asarlar tilini adabiy lashtirishi, tahrir qilishi aslo mumkin emas. Albatta, sheva xususiyatlarini, talaffuzini joriy alifbemiz to'liq ifodalay olmaydi. Shu sababli ham bo'lajak folklorshunos dialektologiyaga oid ilmiy adabiyotlar bilan puxta tanishib chiqishi va transkripsiya belgilari vositasida unli tovushlarni to'liq aks ettirish yo'llarini batafsil o'rganishi kerak. Folklor asarlari ijrochi mansub bo'lgan shevada aynan yozib olish, birinchidan, folklorshunoslik fani uchun ahamiyatli bo'lsa, ikkinchidan, aytuvchiga bo'lgan hurmatni ham bildiradi. Fikrimiz isboti tariqasida atoqli o'zbek xalq baxshisi Fozil Yo'ldosh o'g'li bilan bog'liq bir misolni keltirib o'taylik. Fozil shoirning nevarasi, filologiya fanlari nomzodi, dotsent A.Tursunqulov 1980-yilda Fozil

¹ Ходи Зариф. "Ўзбек халқ ижоди" кўптомлигига кирадиган асарларни тайёрлаш принциплари // Ислон шоир ва унинг халқ поэзиясида тутган ўрни. – Тошкент, Фан, 1978, 129-бет.

Yo'ldosh o'g'lining qizi To'qsuluv Fozilovadan shunday bir xotirani yozib olgan: "Loyqa qishlog'ida yashagan folklor to'plovchi To'xtamurod Mirsoatov Fozil shoirdan doston va termalarni yozib olar ekan, kunlarning birida baxshi undan "Qani, aytgan dostonlarimdan biror joyini o'qib berchi, qanday aytibman ekan?" – deb so'rabdi. Chunki Fozil shoir o'zi aytgan doston va termalarning qanday chiqqanligini bilish uchun qayta o'qitib ko'rar ekan. T.Mirsoatov yozib olinayotgan dostonning tilini adabiy til me'yorlariga yaqinlashtirgan ekan, shoir aytganlarini qayta o'qib berishni so'raganida, u qanday yozgan bo'lsa shunday, ya'ni adabiylashtirib o'qib beribdi. Shunda shoir yozib oluvchidan qattiq xafa bo'lib: "Bor endi, sanga qo'shiq aytmayman", – deb dostonning davomini aytmagan ekan. Ertasi kuni T.Mirsoatovning qayta-qayta iltimoslari bilan o'sha dostonning davomi yozilgan. T.Mirsoatov asa shoir qanday aytsa, shunday yozib olishga kirishgan".

Demak, folklor asari matnidagi shevaga xos so'zlar, ya'ni dialektizmlar, shuningdek, ijrochi lahjasiga xos fonetik holatni saqlashda to'plovchi transkripsiyadan foydalanish kerak. Buning uchun esa folklor to'plovchi dialektologiya fanini ham puxta o'zlashtirgan bo'lishi talab qilinadi. Qolaversa, XX asrning 30-yillaridayoq H.Zarifov tomonidan o'zbek folklori asarlarini yozib olish uchun maxsus transkripsiya ishlab chiqilgan bo'lib, u to'plovchilik amaliyotida muvaffaqiyat bilan qo'llanildi.

g) Yozib olinayotgan asar turli xil qog'ozlarga, tasodifiy uchragan daftarlarga yozib borilmasdan, bir xil hajmdagi umumiy daftarga yozilishi shart. Ana shunda qanchadan mehnat sarflangan va xalqimizning ma'naviy boyligi hisoblangan folklor asarining taqdirini fojiali hodisalardan (turli sabablar bilan yo'qolish, yirtilish, ayrim varaqlarning bir-biri bilan aralashib ketishi) saqlab qolish mumkin. Yozib olinayotgan asar daftarning faqat o'ng tomoniga va bitta qator qoldirib yozilishi zarur. Chunki ana shunday yozib olinganda ravon va aniq yozilishi, ikkinchi tomoniga esa ayrim qaydlarni, tekst davomida uchragan maqol, ibora va so'zlarni yozib borish mumkin. Yozib oluvchi faqat

avtoruchkadan yoki ko'k rangda yozadigan sharikli ruchkadan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi.

d) **Yozib oluvchi tez va aniq yozib olish malakasiga ega bo'lishi lozim.** Bunday uchun yozib oluvchi folklorshunoslar tajribasidan foydalanib, tez yozishning ikki usulini qo'llashi mumkin.

Birinchisi, asar tekstidagi qaytariqlarni muayyan belgilar bilan ifodalash. Ma'lumki, o'zbek xalq og'zaki ijodi janrlarining ko'pchiligida, ayniqsa, lirikada va xalq prozasidagi sa'jda qaytariqlar ko'p uchraydi. Shu sababli misralar, boshida, o'rtasida yoki so'ngida kelayotgan ohangdosh takror so'zlarning tagiga chizib qo'yish zarur. Misol tariqasida cho'ponlarning qo'y sog'ish bilan bog'liq qo'shig'idan bir misol keltiraylik:

*Esli molim, oqilim, turey-turey,
Yelkamdagi kokilim, turey-turey,
Shuncha molning ichida, turey-turey,
Bog'da ochilgan gulim, turey-turey.*

*Qo'y ichida qorasan, turey-turey,
Aqllisan, donosan, turey-turey,
Agar bolang olmasang, turey-turey,
Bozorlarga borasan, turey-turey.*

*Bolaginang oqqina, turey-turey,
Uyqulari soqqina, turey-turey,
Agar bolang olmasang, turey-turey,
Sag'irdir beboqqinang, turey-turey.*

Yozib oluvchi aytuvchi ijro etayotgan paytda bu misralarni tez yozib olishga ulgurishi uchun "turay-turay" qaytarig'ini birinchi misrada to'liq yozgach, keyingi misralar oxirida bu takror o'rniga "- // -" belgisini qo'yib yozadi:

*Esli molim, oqilim, turey-turey,
Yelkamdagi kokilim, - // -,
Shuncha molning ichida, - // -,
Bog'da ochilgan gulim, - // -.*

Qo'y ichida qorasan, - // -,
Aqllisan, donosan, - // -,
Agar bolang olmasang, - // -,
Bozorlarga borasan, - // -.

Bolaginang oqqina, - // -,
Uyqulari soqqina, - // -,
Agar bolang olmasang, - // -,
Sag'irdir beboqqinang, - // -.

e) **Yozib olingan folklor asarining “pasporti” haqida aniq ma'lumot beriladi.** To'plovchi o'zi yozib olgan folklor asari qaerda va kimdan yozib olinganligi, asarni ijro etgan ijrochining yoshi, ma'lumoti, qaysi urug'ga mansubligi, muchali, asarni kimdan o'rganganligi, asar yozib olingan vaqt, yozib oluvchining ismi-sharifi haqida to'la ma'lumotni keltirishi kerak. Bundan tashqari, folklor asarini ijro etayotgan baxshi, qo'shiqchi, ertakchi, roviy, askiyachi yoki boshqa ijrochining asarni ijro etish usuli, o'ziga xos ijro manerasi, tinglovchilar auditoriyasi bilan muloqoti, ijrochilik mahoratiga ham e'tibor beradi.

Folklor asarlarini fonografik usulda yozib olish

Xalq og'zaki badiiy ijodi asarlarini ovoz yozish uskunalari vositasida to'plash ishlari mamlakatimizda XX asrning boshlaridan boshlangan. 1919-yilda Turkiston Xalq Maorif komissarligi Ilmiy bo'limining Musiqa-etnografik bilim hay'ati folklor ekspeditsiyalarida faol ishtirok etgan V.A.Uspenskiy, N.N.Mironov kabi musiqashunoslar bolalar va qizlar qo'shiqlarini fonografda yozib oldilar. N.N.Mironov ba'zi bir doston kuylarini ham fonografda yozib oldi. Shu bilan folklor asarlarini fonografik usulda yozib olishga asos solindi.

O'zR FA Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot instituti folklor ekspeditsiyalarida esa XX asrning o'rtalaridan e'tiboran magnitofondan foydalanila boshlandi. 1960-yilda Tosh shoir Chorshanba o'g'lidan “Kelinoy”, “Alpomish”, Yorlaqab shoir

Beknazar o'g'lidan "Alpomish", Xudoybergan baxshi O'taganovdan "Hurliqo-Hamro", Xudoybergan baxshi O'taganovdan "Oshiq G'arib va Shohsanam", 1962-yilda Egamberdi shoir Ollomurod o'g'lidan "Kuntug'mish", Qodir Karimovdan "Oshiq G'arib", Alim Haqqulovdan "Rustamxon", Ahmadjon Soyibnazarovdan "Ko'ktemir" dostoni magnit tasmasiga yozib olindi.

Magnitofon yoki diktofon yordamida xalq og'zaki badiiy ijodining doston, ertak, afsona, rivoyat kabi epik janrlariga oid materiallarni, shuningdek, marosim folklori namunalarini yozib olish folklorshunoslik fanida alohida ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Chunki aynan shu janrdagi asarlar magnitofon yordamida tabiiy, jonli og'zaki ijro holida ovozi, ohangi va kuyi bilan yozib olinadi. Agar imkoni bo'lsa, magnitofon ijrochidan salgina chekkada, unga ko'rinmaydigan joyda bo'lishi lozim. Bunday hollarda aytuvchi o'zini erkin tutadi, tinglovchilar bilan birga bo'ladi, buni his etgan holda o'zi ijro etayotgan asarning eshituvchilarga manzur bo'lishini ta'minlashga harakat qiladi. Yozuvga aynan tushmaydigan tovushlar (ayrim ertakchilar matn ijrosi jarayonida asardagi jonivorlar, mifologik personajlar ovozini o'xshatishga harakat qilishi, parrandalarning ovoziga taqlid kabi holatlar) hamda urg'u, ohang va kuylar faqat magnitofon yordamida yozib olinsagina, tabiiyligicha saqlanib qolishi mumkin.

Ikkinchidan, magnitofon yordamida yozib olingan folklor asarida ijrochilik amaliyotida asrlar bo'yi davom etib kelayotgan an'analar to'la saqlanib qoladi. To'g'ri, tinglovchilar tarkibining o'zgarishi, tashqi muhit ta'siri kabi bir qator ob'ektiv va sub'ektiv sabablarga ko'ra ijrochi badihago'ylikka berilib ketib, asar matniga ayrim o'zgartishlar kiritishi, cheklanishlar qilishi, ayrim bandlarning tushib qolishi yoki o'rin almashishi mumkin. Lekin muhimi, aytuvchining ijrochilik mahorati, xalq ijodiga xos barqaror an'analar magnitofon orqali yozilganda to'la lentaga tushiriladi.

Magnitofonga yozib olingan lirik va liro-epik asarlar aytuvchining o'z ovozi, kuyi, ohangi bilan yozib olingani sababli o'zbek xalq musiqa folklori bilan shug'ullanuvchi san'atshunoslar,

o'zbek tili shevalarini lingvistik jihatdan o'rganuvchi dialektologlar va xalqimizning urf-odat hamda marosimlarini tadqiq etuvchi etnolog olimlar uchun ham g'oyatda muhim material bo'lib xizmat qiladi. Bu asarlar keyinchalik muayyan folklor namunasining nashr etilishi, variantlarni qiyosiy o'rganishda ham asosiy faktik manba vazifasini o'taydi. Muhimi, magnitofon orqali yozib olingan materiallar nashrga tayyorlovchining har xil "ijodkorligiga", ya'ni matnni o'zboshimchalik bilan o'zgartirishiga, asossiz tahrir qilishiga yo'l qo'ymaydi. Demak, magnit lentasiga yozib olingan folklor asari xalq og'zaki badiiy ijodi asarlarini mukammal nashrga tayyorlashda asosiy faktik dalil bo'lib, nashrga tayyorlovchilar uchun ham, tadqiqotchilar uchun ham muhim ilmiy hujjat sifatida katta amaliy ahamiyatga ega.

Folklor to'plovchilar ovoz yozishga mo'ljallangan texnika vositalaridan foydalanish chog'ida quyidagilarga e'tibor berishlari lozim:

a) Folklor ekspeditsiyasiga chiqayotgan mutaxassislar yoki folklor to'plovchilar ovoz yozish uskunalarining eng zamonaviy namunalaridan, ayniqsa, bugungi kunda keng tarqalgan raqamli (sifrovoy) ovoz yozish apparatlaridan foydalanishlari maqsadga muvofiqdir. Chunki raqamli ovoz yozish uskunasi – diktofonlar ijroni aniq, tiniq yozib olish hamda yozib olingan materialni kompyuter xotirasiga o'tkazish imkonini beradi;

b) Ekspeditsiyaga chiqishdan avval to'plovchilik ishlarida foydalanishi mo'ljallangan ovoz yozish uskunalarini tegishli mutaxassislar ishtirokida texnik ko'rikdan o'tkaziladi. Magnitofonning texnik jihatdan nuqsonsiz, bekamu ko'st ishlashiga ishonch hosil qilish va shundan keyingina ijrochidan folklor asarini yozib olishni boshlash zarur. Yozib olish jarayonida ovozning tiniq va tushunarli holatda magnit tasmaiga tushayotganligini nazorat qilib turish lozim.

v) Har bir asar yozib olinganda, ijro etilgan asarning pasportini aniq va ravshan qayd etish lozim. Chunki yozib olingan asarni folklor arxiviga topshirayotganda bu ma'lumotlar alohida

ahamiyatga zga. Buning uchun folklor to'plovchi muayyan asarni yozib olishga kirishishdan avval asarning nomi, aytuvchi va u haqda qisqacha biografik xarakterdagi ma'lumot, tinglovchilar tarkibi, yozib olingan joyning nomi, yozib oluvchi va yozib olingan vaqtni kundalik daftarga qayd qilib, magnitofon ishga tushirgach, ana shu ma'lumotlarni yozib oluvchining o'zi o'qib berishi kerak.

g) Folklor asari magnitofonga yozib olinayotganda folklor to'plovchining yon daftarcha hamda kundalik daftari turishi kerak. Chunki asarning ijro etilish jarayoni, ya'ni aytuvchining holati, ijro usuli, tinglovchilar bilan munosabati, tinglovchilarning ijro etilayotgan asarga nisbatan munosabati, baxshining mahoratiga doir kuzatishlarni daftarga qayd etib borish zarur. Bunday daftarlar folkloristik tadqiqotlar uchun ham muhim ahamiyatga ega. Chunki bu usul, birinchidan, ijro etish jarayoni, baxshi mahorati va ijrochilik san'ati bilan bog'liq masalalarni o'rganishga imkon bersa, ikkinchidan, jonli og'zaki ijroning o'ziga xos xususiyatlari haqida mufassal ma'lumot beradi; uchinchidan, asarning xalqqa manzur bo'layotgani yoki aksincha, manzur emasligi (muhiimi shundaki, folklor asarining birinchi tanqidchisi xalqning o'zi) to'g'risida bir xulosaga kelishimizga yordam beradi; to'rtinchidan, ijrochi va tinglovchilar auditoriyasi o'rtasidagi munosabatlarni, turli vaziyatlar, holatlar haqida ilmiy xulosalar chiqarish uchun hujjat bo'lib xizmat qiladi.

d) Yozib olinayotgan folklor asarining matnida mavjud bo'lgan sheva, jargon so'zlarni, arxaizmlar yoki ayrim ibora va maqollarni ham shu daftarga qayd etib borish va asar ijro etib bo'linganidan so'ng aytuvchidan so'rab, ularning ma'nosini aniqlashtirish lozim.

Folklor asarlarini videotasmaga yozib olish

Fan va texnika taraqqiyoti folklor to'plovchilik amaliyotini ham yangi texnik vositalar bilan ta'minlamoqda. Folklor ekspeditsiyalarida tasvirga olish uskunalari – kino va videokameralardan foydalanish imkoniyatining yuzaga kelganligi ham ana shunday ilg'or fan yutuqlaridan biri hisoblanadi.

O'zbekistonda folklor ijrochiligini kinotasmaga tushirish ishlari XX asrning 70-yillaridan boshlangan. O'zbek kino ustalarining askiya ijrochiligiga bag'ishlangan filmni suratga tushirganliklari folklorning bu noyob janrni o'rganishda muhim amaliy qimmatga ega. 80-yillarda Xorazm vohasi an'anaviy xalq qo'shiqlari ijrochiligiga bag'ishlangan "Xiva vaqti bilan soat yetti", Buxoroning qadimiy qo'shiqlarini ijro etuvchi "Nozanin" folklor-etnografik dastasi repertuari asosida suratga olingan "Buxoro ertaklari", shuningdek, "Shalola" folklor dastasi ijrosidagi Boysun qo'shiqlari kinotasmaga tushirildi.

1996-yilda O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi Respublika xalq ijodi va madaniy-ma'rifiy ishlar ilmiy-metodik markazi O'zR FA Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot instituti hamda Hamza nomidagi San'atshunoslik instituti olimlari, O'zbekiston teleradiokopmaniyasi "Ma'naviyat" studiyasi ijodkorlari bilan hamkorlikda xalqimizning unutilish arafasiga kelib qolgan qadimiy udumlari, marosimlari, folklor an'analari, xalq hunarmandchiligi, amaliy san'ati va etnofolkloriy madaniyatini o'rganish maqsadida "Ostonasi tillodan" nomli folklor ekspeditsiyasini tashkil etdi. Qariyb o'n yil davomida mamlakatimizning barcha viloyatlarida bo'lib, eng olis qishloqlarda saqlanib qolgan qadimiy qo'shiqlar, urf-odat va marosimlar bilan bog'liq folklor asarlarini yozib olishga muvaffaq bo'lgan mazkur ilmiy ekspeditsiyaga folklor targ'ibotchisi va folklor jamoalari tashkilotchisi, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi O'.Tohirov rahbarlik qildi. Bu kompleks ekspeditsiya ishida musiqa folklori tadqiqotchisi prof. R.Abdullayev, filolog olimlardan – prof. M.Jo'rayev, filologiya fanlari nomzodi Sh.Turdimovlar bilan bir qatorda "O'zbekiston" radiosi xodimi, shoir va jurnalist N.Aminjonov, "O'zbekiston" teleradiokanalini "Ma'naviyat" studiyasi ijodkorlari – yozuvchi N.Norqobilov, rejisser D.Karimova hamda bir nechta tajribali teleoperatorlar ham ishtirok etishdi. Ekspeditsiyaning ish jarayoni to'la ravishda videotasmaga tushirildi va "O'zbekiston" teleradiokanalining "Ostonasi tillodan" ko'rsatuvi orqali

muntazam namoyish etib borildi. Mazkur ekspeditsiyaning eng muhim amaliy ahamiyatlaridan biri – folklor asarlarini ilmiy asosda to‘plash ishida tasvirga olish texnikasidan foydalanish amaliyotini tadbqiq etganligi bilan belgilanadi.

O‘zR FA Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot institutining keyingi-yillarda uyushtirayotgan folklor ekspeditsiyalarida ham tasvirga olish texnikasidan unumli foydalanilmoqda. Masalan, birgina 2004-yil mart oyida Navoiy viloyatining Navoiy tumanidagi Do‘rman qishlog‘ida “Lachakbandon” marosimi folklori, Navoiy shahrida navro‘z bayrami tantanalari va xalq sayli qo‘shiqlari, Xatirchi tumanida nikoh to‘yi marosimi tizimidagi “Ro‘mol berdi” udumi folklori hamda chorvachilik bilan aloqador xalq qarashlari, e‘tiqodlar va qo‘shiqlar, Buxoro viloyatining Qorako‘l tumanidagi Qoroji qishlog‘ida “Lachak to‘yi”, “Alvonch to‘yi” marosimlari folklori, cho‘pon-cho‘liqlarning qo‘shiqlari, qadimiy doira usullari va xalq raqslari, lirik qo‘shiqlar, Jig‘achi qishlog‘ida yashovchi keksa ijrochilarning marosim qo‘shiqlari, Osiyo qishlog‘ida o‘tkazilgan an‘anaviy kurash va navro‘z sayli bilan bog‘liq folklor namunalari videotasmaga yozib olindi.

O‘sha yilning aprel oyida Qo‘qon shahrida askiya va qiziqchilik janrlariga oid materiallar to‘plandi. O‘lan ijrochilarining chiqishlari, “yo ramazon” kabi marosim qo‘shiqlari, to‘y jarlari videotasmaga tushirildi. 16-18-iyul kunlari Toshkent viloyatining Angren shahri atrofidagi Qorabog‘, Yertosh, Tangatopdi, Chinor, Telov va boshqa qishloqlar bo‘ylab folklor ekspeditsiyasi o‘tkazildi va o‘lan janri namunalari videotasmaga olindi. 23-25-avgust kunlari esa Buxoro viloyatining Shofirkon tumanidagi Qayrag‘och, Denov, Nekshi, Mehnatobod qishloqlarida folklor ekspeditsiyasi o‘tkazilib, marosim folklori va qo‘shiqchilik an‘analari o‘rganilganda ham folklor materiallari asosan videokamerada yozib olindi.

Folklor asarlarini to‘plashda videokameradan foydalanish xalq og‘zaki badiiy ijodi asarlarini yozib olishning eng samarali, zamonaviy usullaridan biri sifatida to‘plovchilik amaliyotida faol qo‘llanilishi maqsadga muvofiqdir.

Talabalar folklor amaliyotini o'tkazish

Ma'lumki, mamlakatimizdagi universitetlar va pedagogika institutlarining O'zbek filologiyasi fakultetlarida, shuningdek, A.Qodiriy nomidagi Toshkent davlat madaniyat instituti, Toshkent davlat konservatoriyasida xalq ijodiyoti ixtisosligi yo'nalishida tahsil oladigan talabalarning folklor asarlarini to'plash hamda folklor ijrochiligining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish maqsadida yozgi folklor amaliyotida ishtirok etishi ko'zda tutilgan.

Folklor amaliyotiga mutasaddi bo'lgan kafedraning yillik ish rejasida o'tkazilajak talabalar folklor ekspeditsiyasining tarkibi, ob'ekti, maksad va vazifalari o'z aksini topgan bo'ladi. Amaliyot boshlanishi oldidan talabalar folklor ekspeditsiyasining maqsad va vazifalari kafedra a'zolari tomonidan muhokama etilib, yanada aniqlashtiriladi. Folklor amaliyotining maqsad va vazifalari quyidagilardan iborat bo'lishi mumkin:

1. Talabalarning xalq og'zaki badiiy ijodiyoti fanidan olgan nazariy bilimlarini amalda tatbiq etish orqali ularning folklorshunoslikka oid bilimlarini amaliyot bilan mustahkamlash;

2. Talabalarni xalq og'zaki ijodi an'analari va nomoddiy madaniy meros durdonalari bilan yaqindan tanishtirish orqali ajdodlarimiz badiiy tafakkuri xazinasiga nisbatan mehr uyg'otish;

3. Folklor amaliyoti orqali talabalarni xalqimiz tomonidan asrlar mobaynida yaratilgan xalq ijodiyoti asarlarida mujassamlashgan milliy an'analar hamda umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash;

4. Folklor amaliyoti o'tkaziladigan hududda istiqomat qiluvchi xalq ijodkorlari, chechan ijrochilardan folklor asarlarini yozib olish, folklor ijrochilari tilidagi sheva xususiyatlarini o'rganish, xalq musiqasi, hunarmandchilik an'analari va amaliy san'atiga doir materiallar to'plash, etnografik kuzatishlar olib borish;

5. Mustaqillikni tarannum etuvchi folklor namunalarini to'plash va istiqlool davrida amalga oshirilgan ulug'vor o'zgarishlarni madh etuvchi xalq qo'shiqlari, terma va dostonlarni yozib olish;

6. Xalq og'zaki ijodiyoti asarlarini saqlovchi, yangi asarlarni yaratuvchi va ijro etuvchi talantli baxshilar, ertakchilar, qo'shiqchi va boshqa janr ijrochilari bilan yaqin ijodiy aloqa o'rnatish;

7. O'rganilayotgan hududda faoliyat ko'rsatuvchi folklor-etnografik jamoalar, askiyachi va qiziqchilar, dorbozlar guruhi, xalq hunarmandchiligi an'alarini davom ettirayotgan oilaviy sulolalar vakillari, o'sha joyda yashovchi iqtidorli folklor ijrochilari bilan talabalarning ijodiy uchrashuvlarini tashkil etish orqali ularning ijodiga doir materiallarni to'plash;

8. Folklor amaliyotiga chiqqan talalarning aksariyati bo'lajak o'qituvchilar, madaniyat xodimlari, folklor-etnografik jamoalar tashkilotchisi ekanligini nazarda tutib, ularda xalq hayoti, turmush tarzi, urf-odatlariga hurmat va ehtirom hissini shakllantirish;

9. Yozib olinayotgan har bir folklor asariga mas'uliyat bilan yondoshib, xalq ijodi asarlarini yozib olishning ilmiy mezonlariga to'lik rioya etish;

10. Folklor amaliyoti jarayonida xalq og'zaki ijodiga qiziquvchi iqtidorli talabalarni aniqlash va ularga o'zbek folkloriga doir mavzular tavsiya etib, kelgusidagi faoliyatini talabalarning an'anaviy ilmiy-amaliy konferensiyalar, kurs va bitiruv ishi uchun materiallar to'plashga yo'naltirish;

Folklor amaliyotini tashkil etish va o'tkazish bilan bog'liq ana shu maqsad va vazifalar **birinchidan**, talabalarning bilim saviyasini oshiradi. Bu folklor amaliyotini o'tkazishning eng muhim jihati hisoblanib, talabalarning keyingi semestrlarda o'tiladigan predmetlarni tez va puxta o'zlashtirib olishiga yordam beradi. **Ikkinchidan**, talabalarda professional folklorshunoslik kasbiga mehr uyg'otadi. Folklor amaliyotida ishtirok etgan bugungi talaba kelgusida qaysi kasb egasi bo'lishidan qat'iy nazar, xalq ijodiga nisbatan mehr-muhabbat bilan qaraydi, folklor asarlarining jonkuyar to'plovchisi va targ'ibotchisi bo'lib qoladi, adabiy-badiiy tadbirlar hamda ommaviy xalq tantanalarida folklor materiallaridan unumli foydalanadi. **Uchinchidan**, folklor

amaliyoti talabalarni xalq ijodiyotini o'rganishga doir ilmiy va ijodiy izlanishlarga undaydi, To'plangan materiallar talabalarning kelgusidagi mustaqil ilmiy ishlari uchun faktik material bo'lib xizmat qiladi. Ular yozib olingan folklor asarlarini sistemalashtiradilar, tasnif qiladilar va birinchi marta ilmiy baho beradilar. Folklor amaliyotidan qaytgan ekspeditsiya ishi to'g'risida vaqtli matbuotda maqolalar bilan chiqish qiladilar, o'zlari yozib olgan eng sara folklor asarlarini gazeta va jurnallar sahifalarida chop ettiradilar. **To'rtinchidan**, xalq og'zaki ijodi bilan tanishish talabalarda badiiy-estetik didning shakllanishida muhim rol o'ynaydi. Badiiy yuksak dostonlar, ertaklar, go'zal lirik qo'shiqlar xalq donishmandligining ko'zgusi bo'lgan maqol, topishmoq talabalarda katta zavq-shavq uyg'otadi, ularning badiiy ijodga qiziqishlarini orttiradi.

Folklor amaliyotiga yuklatilgan maqsad va vazifalarning qay darajada amalga oshishi ekspeditsiya rahbariga ham bog'liq. Shuning uchun ekspeditsiyaga xalq og'zaki badiiy ijodiyoti asarlarini yozib olish borasida katta tajribaga ega bo'lgan malakali folklorshunos o'qituvchi rahbarlik qilishi lozim. Ekspeditsiya rahbarik talabalarni folklor amaliyotiga tayyorlashdan tortib, to uning yakunigacha bevosita javobgar shaxs hisoblanadi. Shuning uchun folklor amaliyoti rahbari o'z faoliyatida quyidagilarga alohida e'tibor berishi kerak:

1. Folklor amaliyoti ob'ekti, ya'ni ekspeditsiya o'tkaziladigan joyni aniqlash va hokimliklar, mahalla fuqarolar yig'ini raislari bilan kelishib amaliyotni o'tkazish uchun zarur shart-sharoitlarni tayyorlash (yashash joyi, oziq-ovqat, transport va hokazo).

2. Folklor amaliyotining marshruti, ish rejasini ishlab chiqish hamda talabalarni xalq og'zaki badiiy ijodi asarlarini to'plashga doir qo'llanma, savolnoma-anketalar bilan ta'minlash;

3. Oliy o'quv yurti rahbarlari bilan kelishgan holda folklor amaliyotiga chiqadigan talabalarni zarur texnik anjomlar bilan ta'minlash;

4. Ekspeditsiya a'zolarini uch-besh kishidan iborat kichik guruhlariga ajratib, ularga folklor asarlarini to'plash bo'yicha tegishli yo'llanmalar berish;

4. Folklor amaliyotining har kunlik ish yakunlarini tahlil qilib borish va ekspeditsiya a'zolarining ertangi kunlik rejasini ishlab chiqish. Har bir talabaning amaliyot chog'ida yozib olgan folklor asarlarini ko'rib chiqib, to'plovchi yo'l qo'ygan ayrim kamchiliklarni tahlil etish, folklor asarlarini yozib olish metodikasini o'rgatish;

5. Folklor amaliyoti jarayonida to'plangan materialarini kafedra qoshidagi folklor fondiga topshirilishini nazorat qilish;

6. Talabalarining folklor amaliyoti haqida yozgan hisobotlarini baholash va har biriga taqriz yozish.

Ekspeditsiya ob'ektini tanlashda shunga alohida e'tibor berish kerakki, respublikamizning chekka tog'li tumanlarida xilma-xil marosimlar, irim-sirimlar boshqa joylarga nisbatan ancha to'liq saqlanib qolgan. Hozirgacha folklor to'plovchilarimiz doston, ertak, qo'shiq, maqol, topishmoq, terma kabi folklor janrlarini ko'proq yozib olganlar-u, lekin xalqimizning urf-odatlari. marosimlari, irimlari va ular bilan bog'liq aytim hamda alomatlarini to'plashga nisbatan kamroq e'tibor berishgan. Folklor amaliyotining ob'ektini tanlashda folklorshunoslar tomonidan nisbatan kam o'rganilgan, folklor ekspeditsiyalari kam borgan yoki umuman bormagan va ayniqsa, o'zbek folklorining qadimiy an'analarini to'laroq saqlab kelayotgan joylarni alohida e'tiborga olib kerak bo'ladi. Bizning fikrimizcha, o'quv rejasida talabalarining yozgi folklor amaliyoti o'tkazilishi ko'zda tutilgan oliy o'quv yurtlarining tegishli kafedralarida muayyan "folklor o'choqlari"da saqlanib kelayotgan qadimiy ijrochilik an'analarini o'rganish hamda muayyan hududlarda uzluksiz ilmiy kuzatuvlar olib borishga mo'ljallangan ko'p yillik ekspeditsiya rejasi ishlab chiqilishi maqsadga muvofiqdir. Ya'ni folklor amaliyoti o'tkazish uchun tanlangan hududni o'rganish faqat bir-ikki yilga mo'ljallanmay, uzoq-yillar uchun asosiy kuzatish ob'ekti bo'lishi kerak. Chunki ana shunday ko'p yilga mo'ljallangan perspektiv

reja asosidagina muayyan hududdagi tarixiy-folkloriy jarayonni doimiy kuzatish imkoni tug'iladi. Folklor janrlari ham ma'lum davrlarda turli ob'ektiv va sub'ektiv ta'sir natijasida rivojlanishi yoki transformatsiyaga uchrashi, bir janr o'z o'rnini ikkinchisiga bo'shatib berishi mumkin. Bu jarayonni bevosita kuzatish asosida to'plangan materiallar folklorshunoslik fani uchun muhim ahamiyatga ega bo'lib, qiziqarli ilmiy xulosalar chiqarishga olib keladi.

Folklor amaliyotini o'tkazish uchun ob'ekt tanlangandan keyin ekspeditsiya rahbari amaliyotda ishtirok etadigan talabalarga folkloristik tekshiruvlar olib boriladigan hudud haqida to'liq ma'lumot beradi. Bunda ekspeditsiya o'tadigan hudud aholisining etnik tarkibi, ya'ni qanday urug' vakillari yashashi, ularning madaniy-iqtisodiy an'analari, hududning tarixiy-jo'g'rofiy tavsifiga alohida e'tibor beriladi. Shuningdek, talabalarga ekspeditsiya ish olib boradigan hududning folkloristik nuqtai nazardan o'rganilganlik darajasi, u yerda folklorning qaysi janrlari jonli ijroda izchil rivojlanayotganligi, qaysi janrlar so'nish jarayonini boshidan kechirayotganligi haqida ham batafsil ko'rsatmalar beriladi.

Folklor amaliyotini o'tkazish uchun belgilangan muddat tugagach, uni yakunlash bosqichi boshlanadi. Bu bosqich shuning uchun ham muhim va g'oyatda mas'uliyatliki, ayni shu paytda ekspeditsiya rahbarining tashkilotchilik mahorati ekspeditsiya a'zolaridan har birining qilgan mehnati, umuman, folklor to'plovchilik faoliyati qanday saviyada o'tganligi, erishilgan muvaffaqiyatlar va ro'y bergan kamchiliklarni baholay bilishida to'la namoyon bo'ladi. Shu bilan birga, to'plangan xalq og'zaki ijodi materiallarining kelgusi taqdiri ham amaliyotning yakuni bilan bog'liq. Demak, folklor amaliyotini yakunlashda ekspeditsiyaning barcha ishtirokchilari (rahbari va a'zolari) mutasaddi kafedra bilan birgalikda quyidagi tadbirlarni amalga oshirishlari maqsadga muvofiqdir:

1. Yozib olingan materiallarni tartiblashtirish va folklor amaliyoti mobaynida xalq og'zaki badiiy ijodi asarlari yozib

olingan daftarlar, audio va videokassetalar, fotosuratlar, etnografik mohiyat kasb etuvchi eksponatlar, ekspeditsiya a'zolarining to'plovchilik amaliyoti chog'ida tutgan kundalik daftarlarini kafedra qoshidagi "Folklor arxivi"ga topshiradilar.

2. Kafedra yig'ilishida folklor amaliyotiga rahbarlik qilgan folklorshunos o'qituvchi, shuningdek, ekspeditsiyada qatnashgan o'qituvchi va talabalarning hisobotini eshitish va muhokama qilish.

3. Folklor amaliyotini o'tkazishda faol ishtirok etgan iqtidorli talabalar hamda o'qituvchilar o'rganilgan hudud folklorining turli qirralari tahliliga bag'ishlangan ilmiy ma'ruzalar tayyorlab, "Folklor amaliyotining yakunlovchi ilmiy-amaliy konferensiyasi"ni o'tkazishga hozirlik ko'rish.

Folklor amaliyoti davomida to'plangan xalq og'zaki ijodiga oid barcha materiallar folklor arxiviga topshirish uchun tartiblashtiriladi. Buning uchun har bir talaba o'zining ekspeditsiya chog'ida har xil daftarlarga qisqartuvchi belgilar bilan yozgan xalq og'zaki badiiy ijodi asarlarini folklor namunalari yozib olish metodikasiga qat'iy amal qilgan holda yangi umumiy daftarga chiroyli husnixat bilan bexatoz ko'chiradi. Folklor asarlarini tartiblashtirishda o'zbek folklorshunosligida qabul qilingan janrlar tasnifotiga alohida e'tibor beriladi.

Talaba folklor arxiviga topshiradigan daftarining birinchi betiga o'zi tahsil oladigan oliy o'quv yurti va fakultetning nomi, yozib oluvchining ismi-sharifi, familiyasi, o'qiydigan kursi, folklor amaliyoti o'tkazilgan joy va vaqtini yozib qo'yadi. Masalan: "Buxoro davlat universiteti O'zbek filologiyasi fakultetining 2-kurs talabasi Mirzayorov O'ktam Sodiqovichning "Folklor amaliyoti" davrida to'plagan materiallari. Buxoro viloyatining Qorako'l tumanidagi Jig'achi qishlog'i. 2006-yil, 10-25-iyul kunlari".

To'plangan har bir folklor asari yozib oluvchi tomonidan folklorshunoslik talablari asosida "pasportlashtiriladi". "Pasportlashtirish"da asarning nomi, aytuvchining ismi, familiyasi (taxallusi), qaysi urug' vakili ekanligi, yoshi yoki tug'ilgan yili, yashash joyi – manzili, ma'lumoti, kasbi, asar yozib olingan vaqt,

yozib oluvchining ismi va familiyasi haqida aniq ma'lumotlar berish lozim.

Bundan tashqari, yozib olingan folklor asarlari va ularning ijrochilari haqidagi turli xil qaydlar, izohlar, tinglovchilarning ijro etilayotgan folklor asariga bo'lgan munosabatlari, aytuvchining asarni kuylash jarayonidagi xatti-harakatlari, arxaik yoki shevaga xos dialektal so'zlarning ma'nosi va hokazolar ham daftarga to'liq ko'chirib yoziladi.

Folklor amaliyotini o'tkazishda ekspeditsiya qatnashchilari bir nechta ishchi guruhlariga bo'lingan holda shi olib borishgani bois har bir kichik guruh folklor ekspeditsiyasiga bag'ishlab bittadan albom tayyorlashlari lozim. Bunday albomlar ishchi guruh a'zolarining folklor to'plovchilik faoliyatini aks ettiruvchi fotosuratlar, folklor asarlarining ijro etilishi, marosim va udumlar, xalq sayillari aks ettirilgan suratlar, folklor amaliyoti davrida aniqlangan iqtidorli folklor ijrochilari bilan bog'liq ma'lumotlar yozilgan lavhalar, folklor ekspeditsiyasi o'tkazilgan qishloq manzaralari, u yerda mavjud bo'lgan tarixiy-arxeologik yodgorliklar, qal'alar, muqaddas va qadamjolar suratlari yopishtirib ko'yiladi. Har bir suratning ostida tasvirlangan lavha haqida to'liq ma'lumot keltiriladi. Masalan: "Xalq qo'shiqlarining mohir ijrochisi Sharofat Murod Olim qizi alla aytmoqda. 1930-yilda Buxoro viloyatining Qorako'l tumanidagi Tangachar qishlog'ida tug'ilgan bu ijrochidan yozib olingan qo'shiqlar folklor arxivida 544-saqlov birligi ostida ro'yxatga olingan". "Cho'psoldi buva ziyoratgohi. Qorako'l tumanidagi Jig'achi qishlog'idan 10 km shimoliy-g'arbda joylashgan bu muqaddas qadamjo to'g'risidagi afsona 1926-yilda tug'ilgan Eshon buva Jalilovdan yozib olingan bo'lib, Folklor arxivida 232-raqami ostida saqlanadi" kabi.

Folklor amaliyotining natijalari asosida ekspeditsiyaning har bir a'zosi maxsus hisobot tayyorlaydi. Ishchi guruh a'zolarining har biri individual hisobot tayyorlash bilan cheklinib qolmay, guruh ishi yuzasidan umumiy hisobot ham yozadilar. Hisobotda folklor amaliyoti davrida amalga oshirilgan to'plovchilik faoliyati tahlil qilinadi, erishilgan yutuqlar qayd qilingani holda yo'l

qo'yilgan ayrim kamchiliklar ham aytilib, kelgusida bunday nuqsonlarni bartaraf etish yo'llari haqidagi fikr-mulohazalar bayon qilinadi. Talabalarning individual hisobotlari kurs yig'ilishida tinglansa, folklor amaliyotining rahbari, ekspeditsiyada ishtirok etgan o'qituvchi, aspirant, magistrantlar hamda ishchi guruh boshliqlarining hisobotlari folklor amaliyotining yakunlariga bag'ishlab o'tkaziladigan hisobot yig'ilishida muhokama qilinadi.

Folklor asarlarini sistemalashtirish metodikasi

Folklor ekspeditsiyasi natijasida to'plangan xalq og'zaki badiiy ijodi asarlarini saqlash va muhofaza qilish ularni folklor arxivida ro'yxatga olishdan boshlanadi. Buning uchun ekspeditsiya materiallari yozilgan daftarlar, audio va video kassetalar, CD diskalar, shuningdek, folklor ijrosilarining fotosuratlar, ekspeditsiya jarayoni aks ettirilgan fotomateriallar hamda ekspeditsiya ishtirokchilarining kundalik daftarlari Folklor arxivining tegishli fondlari (folklor asarlari qo'lyozmalari fondi, audio va videoyozuvlar fondi, fotomateriallar fondi)ga qabul qilib olinadi. Qabul qilib olingan har bir materialga tegishli inventar raqami qo'yilib, bu material haqidagi to'la ma'lumot Folklor arxivining inventar daftarida qayd qilib qo'yiladi.

Xalq og'zaki ijodi asari Folklor arxivining umumiy inventar daftariga qayd qilishda quyidagi ma'lumotlar beriladi:

1) folklor asarining arxivdagi saqlov birligi yoki inventar raqami;

2) mazkur inventar raqami bilan qayd etilgan daftar, papka yoki varaqlardagi folior materiallarining tartib soni. Izoh: agar bir inventar raqami ostida faqat bitta asar ro'yxatga olingan bo'lsa inventar raqami soni yozilgani holda tartib raqami qo'yilmaydi (masalan: Inv.N^o1. "Dalli"). Agar tegishli inventar raqami bilan qayd qilingan daftarda bir necha asarlar mavjud bo'lsa, papkaning ichida ularning har biri "Inv.N^o1/1, Inv.N^o1/2, Inv.N^o1/3" tarzida raqamlab chiqilgani holda inventar daftarida ham ularning tartib raqami ko'rsatiladi;

3) folklor asarining janri (masalan, doston, ertak, og'zaki naql, qissa, latifa, afsona, maqol va h.k).

4) tegishli inventar raqami bilan qayd etilgan folklor asarining hajmi (material necha sahifadan iboratligi, qaysi betdan boshlanib, nechanchi betda tugashi. Masalan: 1-10 betgacha);

5) aytuvchi, uning yoshi, urug'i haqida ma'lumot;

6) yozib oluvchi va asar yozib olingan sana;

7) folklor asarini aytuvchining manzili, turar joyi;

8) mazkur inventar raqami bilan ro'yxatga olingan folklor asariga oid izohlar, foto, audio yoki videomateriallar mavjudligi haqidagi ma'lumotlar.

Namuna tariqasida O'zR FA O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti Folklor arxivining inventar daftarini misol qilib keltiramiz:

In v. №	№	Asarnin g nomi	Janri	Ne cha sah i-fa	Aytuvchi	Yozib oluvchi va yozib olingan vaqti	Aytuvchini ng turar joyi	Izo h
1		Dalli	dost on	17 5	Ergash Jumanbul bul o'g'li, 1926-yil	Ergash Jumanbul bul o'g'li	Nurota tumani, Qo'rg'on qishlog'i	
2		Alibek bilan Bolibek	dost on	99	Ergash Jumanbul bul o'g'li, 1925-yil	Ergash Jumanbul bul o'g'li	Nurota tumani, Qo'rg'on qishlog'i	
3		Malikai Ayyor	dost on	16 3	Fozil Yo'ldosh o'g'li	Ernazar ov Isa, 1927-yil	Samarqand viloyati, Bulung'ur tumani, Loyqa qishlog'i	
4		Alpomish	dost on	15 4	Muhamm adqul Jonmurod o'g'li Po'lkan	Ernazar ov Isa, 1927-yil	Xatirchi tumani, Qatag'on qishlog'i	
5		Shaybon iyxon	dost on	15 3	Muhamm adqul Jonmurod o'g'li	Hodi Zarif, 1927-yil	Xatirchi tumani, Qatag'on qishlog'i	

					Po'ltan			
6		Gulnor pari	dost on	16 1	Muhamm adqul Jonmurod o'g'li Po'ltan	Hodi Zarif, 1927-yil	Xatirchi tumani, Qatag'on qishlog'i	
7		Hasanxo n	dost on	21 4	Muhamm adqul Jonmurod o'g'li Po'ltan	Hodi Zarif, 1927-yil	Xatirchi tumani, Qatag'on qishlog'i	

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi, oliy o'quv yurtlarining filologiya fakultetlari, baxshilar jamg'armasi, madaniyat muasasalari, muzeylar va boshqa muasasalarda mavjud bo'lgan folklor arxiviga muayyan xalq og'zaki badiiy ijodi asarini qabul qilib olgandan keyin uni tegishli papkaga solib yopiq holatda saqlanadigan shkaflarga joylashtiriladi. Har bir papkaning ustiga o'sha papka ichidagi folklor asarining inventar raqami qayd etilgan bo'lishi kerak. Agar bir papka ichida alohida inventar raqami bilan ro'yxatga olingan bir necha asar saqlanayotgan bo'lsa u holda papka ustida o'sha inventar raqamlari ko'rsatiladi.

Masalan, O'zR FA O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti Folklor arxivida qo'llaniladigan quyidagi kartochka shaklini tavsiya qilamiz:

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
O'ZBEK TILI, ADABIYOTI VA FOLKLORI INSTITUTI**

***Hodi Zarifov nomli o'zbek folklori
arxivi***

Inv.Nº1

Folklor arxivi materiallarini ilmiy tavsiflash jarayonida fondga saqlanayotgan har bir material uchun tegishli tartibda elektron shakldagi kartochkalar tuzish maqsadga muvofiqdir. Bunday kartochkalar tuzishda folklor asarlarining o'ziga xos janr xususiyatlari va belgilari hisobga olinadi. Quyida ana shunday kartochkalar tuzish metodlari va uning ayrim namunalarini keltirib o'tamiz:

Folklorshunoslik amaliyotida xalq og'zaki badiiy ijodining har bir tur va janrlarini ilmiy tavsiflashda o'ziga xos mezonlardan foydalaniladi. Folklor arxivida saqlanayotgan bolalar folklori asarlari uchun uch xil katalog kartochkasi to'ldiriladi. Fondagi folklor asarining mohiyati haqida mukammal tasavvurga ega bo'lish uchun tematik (ya'ni mavzu bo'yicha), topografik, aytuvchi va yozib oluvchilar bo'ysicha kartochkalar tuzib kataloglashtirish maqsadga muvofiqdir.

Mavzular bo'yicha tematik katalog

Folklor asarining mavzusi bo'yicha tematik katalog tuzish metodikasini tushuntirish uchun bolalar folklorini ilmiy tavsiflash mezonlarini tushuntirib o'tkamiz. Odatda bolalar folklori asarlarini tavsiflash uchun uch xil tipdagi kartoteka tuzish muvofiq, deb qaraladi:

- a) Bolalarni erkalovchi o'zbek xalq qo'shiqlari;
- b) Bolalar taqvim va unga daxldor folklor janrlari;
- v) Bolalar o'yin folklori.

Chunki bolalar poetik folklori va bolalar o'yin folklori o'zining xarakteriga ko'ra bir-biridan farq qilganligi sababli ularning har qaysisiga alohida-alohida kartoteka tuzishga to'g'ri keladi.

Bolalar poetik folklori yoki qo'shiqlari ham tematik bo'yicha tasnif qilinadi. Har qaysi qo'shiq matni bevosita jonli ijro sharoitlarida ijrochi og'zidan qanday yozib olingan bo'lsa, xuddi shunday alohida kartochkaga ko'chiriladi. Tematik tasnif mezoniga ko'ra, har bir kartochka alifbo tartibi bo'yicha elektron bazaga joylashtiriladi. Qo'shiqlarning variantlari uning badiiy

jihatdan eng mukammal namunasidan keyin davomiga qo'yiladi. Bazi qo'shiqlar o'yin orasida uchrashi mumkin, bunday hollarda o'yinning nomi va o'sha material saqlanayotgan inventar raqami ham kartochkadan ko'rsatiladi.

Bolalar qo'shiqlari mavzu yo'nalishiga ko'ra guruhlashtirilgan holda tavsiflanadi.

1)*Bolalarni erkalovchi o'zbek xalq qo'shiqlari:*

- a) beshik qo'shiqlari; allalar;
- b) aytim-olqishlar;
- v) suyish qo'shiqlari: erkalamalar;
- g) ovutmacholar;
- d) qiziqmacholar;
- ye) qaytarmacholar;

2)*Bolalar taqvimini va unga daxldor poetik janrlar:*

- a) yalinchoqlar;
- b) hukmlagichlar;
- v) yo ramazonlar;
- g) hayitliklar.

3)*Bolalar o'yin folklori:*

- a) o'yin muqaddimalari; chorlamalar;
- b) cheklashmacholar;
- v) sanamalar;
- g) o'yinlar;
- d) tarqalmacholar;
- ye) tez aytishlar;
- yo) chandishlar;
- j) guldur-guplar.

Agar shu qo'shiqlar nima maqsadda, qanday sharoitda va qay tarzda aytilganligiga, nima uchun aytilishi haqida materiallar, shuningdek, ijro jarayoniga aloqador audio yoki video yozuv hamda fotomateriallar mavjud bo'lsa, ular haqidagi ma'lumotlar ham kartochkada qayd qilinadi.

Bolalar folklori asarlarining tematik tasnifi bo'yicha katalog kartochkasining nusxasi:¹

Inv№	Aytuvchining yoshi, nomi, kasbi, yozib oluvchi
matn	

O'yinlarning har biri bir kartochkaga aslida qanday yozilgan bo'lsa, shunday ko'chiriladi. O'yinlarning nomiga qarab birin-ketin alifbo tartibi bilan kartochka katalogiga joylashtiriladi. O'yinlarning variantlari har bir o'yindan keyin davomiga qo'yiladi.

O'yinlar uchun uch xil kartochka tuziladi:

Birinchi nusxa kartochkani o'yinlarning nomiga qarab alifbo tartibi bilan kartochkaga joylashtiriladi. Misol uchun:

“Ahman-ahman” o'yini.

“Arala chechan” o'yini.

“Bir bog'da bichan ko'rdim” o'yini.

“Guldir-gup” (juldur-jup) o'yini.

“Zuvala kaptar” o'yini.

“Oq terakmi-ko'k terak” o'yini.

“To'p-tosh” o'yini.

“Chori chambar” o'yini.

“Eshak mindi” o'yini va boshqalar.

¹ Фольклор асарларини илмий тавсифлаш ва каталоглаштириш бўйича карточкалар намуналарини тузишда ЎзР ФА Ўзбек тили, адабиёти ва фольклори институти Фольклор архиви материалларидан фойдаланилди.

Inv.Nº	Aytuvchining yoshi, nomi, kasbi, yozib oluvchi
O'yin matn	

Ikkinchi nusxa kartochka material yozib olingan joylar bo'yicha kartochkaga joylashtiriladi. Bu ham alifbo tartibi bilan qo'yiladigan kartochka nusxasi bilan bir xil yoziladi.

Uchinchi nusxa kartochka ham alifbo bo'yicha tuziladi va aytuvchining nomi bo'yicha katalogga joylashtiriladi.

Kartochka nusxasi quyidagicha:

Inv Nº	Aytuvchining yoshi, nomi, kasbi, yozib oluvchi
O'yin matn yoziladi	

Kartochkaning chiziqdan yuqori qismining chap tomoniga folklor asarining inventar raqami, o'ng tomoniga aytuvchining nomi, yoshi, kasbi, urug'i, undan keyin yozib oluvchining nomi, asar yozib olingan sana yoziladi. Kartochkaning chiziqdan pastki qatta qismiga o'yin matni to'la yoziladi.

Topografik katalog

Topografik katalog kartochkasini tuzishdan maqsad muayyan folklor asarlari qaysi hududdan to'planganligi, u yoki bu janrga mansub asarlar qaysi hududda jonli ijro holatida qayd etilganligi, folklor janrlarining lokal xususiyatlari va tarqalish arealini belgilashdan iboratdir. Shu bilan birga, bu joydan kim folklor materialini to'plagan, asarning yozib olingan vaqti va fondga qaysi saqlov birligi ostida ro'yxatga olinganligini aniqlash imkoni yuzaga keladi. Folklor asarlarining topografik katalogi tarixiy-folkloriy jarayon dinamikasi hamda xalq og'zaki ijodining areal xususiyatlarini o'rganishning keng imkoniyatlarini ochadi.

Topografik katalog kartochkasining nusxasi quyidagicha:

Bu joylar bo'yicha tuzilgan kartochkada chiziqning yuqori qismiga joy nomi (viloyat, tuman, jamoa xo'jaligi, qishloq) yoziladi. Chiziqda pastda inventar raqami, aytuvchi, yozib oluvchi (yoki to'plovchi) va yozib olingan vaqt, yozib olingan asarlarning soni ko'rsatiladi. Kartochkani katalogga tumanlar bo'yicha alifbo tartibi bilan joylashtiriladi. Bu katalog folklor materiallarini to'plashga yordam beradi.

Topografik katalog qaysi joyda qancha, qachon material yig'ilganligi va qaysi joylarda material yig'ish zarur yoki yig'ilganligini ko'rsatib turadi. Material yig'ish zarur joylar bilan aloqa qilish va shu joylarga ekspeditsiya tashkil qilishga yordam beradi.

II. Bolalar folklori materialini yozib olingan joylar bo'yicha topografik katalog kartochkasi.

Bu tipdagi kartochkada tavsiflanayotgan bolalar folklori asari yozib olingan hudud-joy haqidagi ma'lumotlar qayd qilinadi.

Mavzular bo'yicha tematik katalogda o'zbek xalq nasriga mansub og'zaki ijod asarlarini janr mansubiyatiga qarab alohida sistemalashtiriladi. Folklor arxividagi og'zaki nasrga mansub materiallarni ilmiy tavsiflashda ularning janr mansubiyatini hisobga olgan holda mif, ertak, afsona, rivoyat, latifa, naql, og'zaki hikoya janrlari asosida sistemalashtirish lozim.

Mif (yunoncha mifhos – afsona, rivoyat, asotir) qadimgi odamning borliq olam haqidagi ibtidoiy tasavvurlari majmui bo'lib, koinotning yaratilishi, inson, o'simliklar va hayvonot dunyosining vujudga kelishi, samoviy jismlarning paydo bo'lishi, tabiiy hodisalarning sabablari va mohiyati, afsonaviy qahramonlar, ma'budlar va ilohlar to'g'risidagi e'tiqodiy qarashlarni o'z ichiga olgan. Hali o'zini tabiatdan ajratib olmagan qadimgi odamlarning o'zini o'rab olgan olamdagi moddiy mavjudlikning paydo bo'lishi sabablarini mifologik tasavvurlar vositasida izohlashga, tushuntirishga harakat qilgan. Shunga ko'ra, mif qadimgi odamning voqelikka bo'lgan ongsiz hissiy munosabati ifodasi bo'lib, tabiat va jamiyat hayotining turli qirralari mohiyatini tushuntiruvchi eng qadimgi tasavvurlar silsilasidir.¹ Mifologik tasavvurlar muayyan voqelik mohiyatini xayoliy uydirma vositasida izohlasa-da, o'z ijodkorlari va ijrochilari tomonidan haqiqatan bo'lib o'tgan voqealar bayoni sifatida qabul qilingan. Qadimgi ajdodlarimizning olam haqidagi dastlabki e'tiqodiy qarashlariva tasavvurlarini o'zida jamlagan, uning dunyoqarashini og'zaki ijro vositasida ifodalagan va avloddan-avlodga yetkazishga mo'ljallangan miflarning ommalashish usullari ham turlicha bo'lib, asosan, jonli og'zaki ijro orqali, ya'ni so'z vositasida hikoya qilib berilgan. Ya'ni mif afsona janrining badiiy shakliga o'xshash hikoyaviy usulda bayon etilgan.

Ajdodlarimizning olam, tabiat hodisalari va ijtimoiy hayot xususidagi qadimiy fantastik tushunchalarini o'zida aks ettirgan miflarni ilmiy tavsiflashda ular quyidagi turlarga bo'linadi:

1) ibtido haqidagi miflar (olamning yaratilishi va yerda hayotning paydo bo'lishi to'g'risidagi miflar);

2) samoviy (kosmogonik) miflar (osmon jismlari va tabiat hodisalarining paydo bo'lishi haqidagi miflar);

¹ Қаранг: Мелетинский Е.М. Поэтика мифа. – М.: Наука, 1976; Стеблин-Каменский М.И. Миф. – Л.: Наука, 1976; Мифы народов мира. В двух томах. – М.: Сов. энциклопедия, 1991; Мифологический словарь. – М., Сов. энциклопедия, 1990; Жўраев М., Шомусаров Ш. Ўзбек мифологияси ва араб фольклори. – Тошкент: Фан, 2001.

3) antropogenik miflar (odamning yaratilishi va o'tmishda yashagan deb tasavvur qilinadigan g'ayrioddiy personajlar (masalan, Gavomard, Odami Od, Hubbi, Olang'asar, Ho'jimado'liq, Avj ibn Unuq kabi) haqidagi miflar;

4) kult miflari (muayyan e'tiqodiy inonchlar bilan bog'liq miflar, masalan, hosildorlik kulti, suv kulti, o'simlik kulti, olov kulti haqidagi miflar);

5) totemistik miflar (totem-ajdod haqidagi qadimgi tasavvurlar asosida kelib chiqqan);

6) kalendar miflar (yil, oy, kun hisobi bilan bog'liq miflar: masalan, ayamajuz, ahman-dahman, chilla, to'qson hisobi bilan bog'liq miflar);

7) o'lib-tiriluvchi tabiat kultlari haqidagi miflar (masalan, Siyovush haqidagi mifologik syujetlar);

8) animistik miflar (jon to'g'risidagi qadimgi tasavvurlarni o'zida mujassamlashtirgan miflar);

9) manistik miflar (ajdodlar homiyligi haqidagi miflar);

10) dualistik miflar (ezgulik va yovuzlik kuchlari o'rtasidagi kurash hamda egizaklar kulti haqidagi asotiriy qarashlarni o'zida aks ettirgan miflar);

11) esxatologik miflar (olamning intihosi, ya'ni oxirzamon to'g'risidagi miflar).

Ertaklarni qo'yidagicha ichki turlarga ajratish tavsiya qilinadi:

a) sehrli fantastik ertaklar;

b) maishiy ertaklar;

v)majoziy ertaklar.

Ertaklarning bu tiplarining har birini mavzu yo'nalishiga qarab ichki turlarga ajratish mumkin Masalan, maishiy ertaklarni hayotiy voqelikka aloqador uydirmanni badiiy aks ettirish tarzida tanqidiy yo'nalish bor yoki yo'qligiga ko'ra "nohajviy ertaklar" va "hajviy ertaklar"ga, shuningdek, hajviy ertaklarning o'zini satirik va yumoristik ertaklarga bo'lib tavsiflash tavsiya etiladi.

Hayvonlar to'g'risidagi majoziy ertaklarni 1)Bo'ri bilan to'uki turkumiga oid ertaklar; 2) Sigir bilan echki turkumiga oid

ertaklar; 3) Qushlar bilan bog'liq bo'lgan ertaklar; 4) Hashorotlar bilan bog'liq bo'lgan ertaklar va h.k. ajratib tavsiflasa bo'ladi.

Hayvonlar haqidagi ertaklarni mavzuiga ko'ra quyidagi uch xil tipga bo'lsa ham bo'ladi: 1) Oziq topish uchun kurash; 2) Do'stlik, o'ch olish uchun kurash; 3) Yaxshi natija uchun musobaqalashish.

Folklor arxivida saqlanayotgan har bir ertak uchun alohida kartochka to'ldiriladi. Kartochkaning hajmi 17+9 sm bo'lsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Kartochkaning vertikal hamda gorizontaal tomonlari ikkiga bo'lingan bo'ladi. Vertikal tomonidagi birinchi bo'limga sistemalashtirilayotgan ertakning folklor arxividagi saqlov birligi (inventar raqami) yoki shifri hamda shu ertakning fonda qancha variantlari bo'lsa, ularning arxividagi inventar raqamlari ko'rsatiladi.

Vertikal tomonning o'ngdagi bo'limiga ertak qachon (yozib oluvchi yoki to'plovchining ismi, familiyasi, kasbi, yoshi ko'rsatiladi) va qaerda yozib olinganligi hamda mazkur ertakni aytuvchi, uning ismi-sharifi, familiyasi qayd qilinadi.

Kartochkaning asosiy qismida esa ertakning sarlavhasidan keyin uning qisqacha bayoni beriladi. So'ngra kartochka to'ldiruvchining izohi ko'rsatiladi, ya'ni ertak qaysi janr yoki qaysi turga oid bo'lsa o'sha janr yoki o'sha tur nomi ko'rsatiladi. Ketidan shu ertakda qatnashuvchi personajlarning hammasi nomma-nom beriladi. Eng oxirida mazkur ertakning hajmi, ya'ni uning folklor arxivida saqlanayotgan qo'lyozmasi necha sahifadan iboratligi ko'rsatiladi. Agar tasviflanayotgan matn hayvonlar haqidagi majoziy ertaklar tipiga mansub bo'lsa-da, undagi voqealar bo'ri obrazi bilan bog'langan bo'lsa, u holda avval "majoziy ertak" deb ko'rsatilib keyin "bo'ri bilan bog'liq bo'lgan ertak", deb izoh berib qo'yiladi.

Latifa janriga mansub folklor asarlarini ilmiy tavsiflashda ularni quyidagicha tasnif qilinadi: a) satirik latifalar; b) yumoristik latifalar.

O'zbek xalq nasrining bu janrini sistemalashtirishda qo'llanadigan kartochkaning shakl va mazmuni ertakda qo'llangan kartochka bilan aynanlikka ega. Hajmi bir xil. Faqat bunda

latifaning Folklor arxividagi inventar raqami yoki shifri, undan keyin shu ertakning fonda saqlanayotgan boshqa variantlari inventar raqami yoki shifri ko'rsatiladi. Shuningdek, yozib olingan joy, aytuvchining ismi va familiyasi, yoshi, vazifasi hamda yozib oluvchi haqidagi ma'lumotlar beriladi. Latifa janriga mansub folklor asarlarini tavsiflash uchun tuzilgan tematik kartochkaning ertak uchun tayyorlangan kartochkadan farqi unda har bir latifaning qisqa mazmuni emas, balki o'zi to'liq keltirilishi bilan belgilanadi. Keyin kartochka to'ldiruvchining izohi beriladi. Shubhasiz, bunda ham latifaning sarlavhasi ko'rsatiladi. Keyin izohda latifaning qaysi turga oidligi, ya'ni satirik yoki yumoristik latifa deb ko'rsatiladi.

Afsona janri epik janr namunasi sifatidagi o'z vazifasini ham bevosita mifdan olgan, ya'ni bu janr bevosita mif bilan funksiyadoshdir. Mif qadimgi odamning olam haqidagi ibtidoiy tasavvurlari yig'indisi bo'lganligi uchun uning asosiy funksiyasi kishilarga muayyan axborotni yetkazish, voqelikdagi u yoki bu hodisaning sababini izohlash, tushuntirishdan iborat bo'lgan. Ana shu funksional xossa ham mif ijodkorligi tanazzulga yuz tutib, uning o'rnini badiiy va epik tafakkur an'anasi egallagach, butunicha afsona janrining zimmasiga ko'chib o'tgan. Afsonalar ham aytuvchi, ham tinglovchi tomonidan hayotda bo'lgan voqea bayoni, haqiqat deb qabul qilingani bois tinglovchiga u yoki bu fakt, ma'lumot haqidagi axborotni yetkazish maqsadini ko'zda tutadi.

Afsonalarni ilmiy tavsiflash ularning mavzu yo'nalishiga ko'ra quyidagi tasnifi asosida amalga oshiriladi:

- a) Mifologik afsonalar;
- b) Tarixiy afsonalar;
- v) Toponimik afsonalar.

Ana shu turlarning har biri o'ziga xos g'oyaviy tematikasiga ko'ra guruhlariga ajratiladi. Toponimik afsonalar muayyan jo'g'rofiy ob'ekt nomining qanday paydo bo'lgani va ularga qo'yilgan nomning qo'yilish sababi, mazmunini ifodalashga harakat qiladi. Bunday afsonalarni kartotekaga olishda ularni

mavzusiga ko'ra quyidagi ichki tiplarga bo'lish tavsiya etiladi: 1)oykonimik afsonalar; 2)gidronimik afsonalar; 3)oronimik afsonalar; 4)nekronimik afsonalar.

Afsona janriga xos ertakda bo'lganidek kartochka tuziladi. Kartochkaning hajmi va shakli ham aynanlikka ega. Faqat uni to'ldirishdagina farqli tomoni mavjud. Afsonaning folklor arxividagi inventar raqami hamda uning variantlari shifri va arxiv raqamlari ko'rsatiladi. So'ngra o'ng tomondagi bo'linga aytuvchining ismi va familiyasi, yoshi, xizmat joyi yoziladi hamda yozib oluvchining nomi yoki mazkur afsona matni qaysi manbaadan olinganligi ko'rsatiladi. Keyingi asosiy qismga afsonaning sarlavhasi so'ngra agar matn sig'sa shundayligicha, agar uning hajmi qatta bo'lib, sig'masa qisqacha mazmuni yoziladi. Demak, afsonaning hajmiga qarab yo aynan ko'chiriladi, yoki uning qisqacha bayoni beriladi. Agar biror afsona bilan bog'liq bo'lgan fotosurat, fotoplyonka yoki videoyozuv mavjud bo'lsa, uning folklor arxivi fototekasi va audiovideoteka fondidagi saqlov birligi raqami beriladi.

Rivoyatlar yozilishi lozim bo'lgan kartochkalar ertak kartochkasining aynan o'zi. Rivoyatlar ham afsonaga o'xshash, agar hajmi qatta bo'lsa qisqacha bayoni, qisqa bo'lsa uning o'zi yaxlit ko'chiriladi. Keyin izoh beriladi. Rivoyatlar tarixiy shaxs hamda g'oyaviy tematikasiga ko'ra tasniflanib, tizimlanadi: 1)Tarixiy rivoyatlar; 2)Toponimik rivoyatlar.

Og'zaki nasrga mansub folklor asarlarini sistemalashtirishda tuziladigan katolog kartochkasi namunasi:

Inv№228. Variantlari: Inv.№113,142,156,192.	
“Uch opa-singil” 1) Uch opa-singillarning tili chuchuk. Buni sezgan sovchilar qaytib ketadilar. Bir kun sovchi kelganida onasi qizlarni oshxonaga bekitib qo'yadi. Oshxonada sichqonni ko'rgan opasi: “sichon-sichon” debdi, o'rtanchisi “tani-tani”, deb so'rabdi. Kenjasi bo'lsa, “sen	

dapiysang ham men dapiymayman”, debdi.
 Buni eshitgan sovchilar yana ketib qolibdilar.
 2)Yumoristik ertak.
 Hajmi 2 sahifa.
 Personajlar nomi berilmagan.

Maqol va matalni sistemalashtirishda o‘ziga xos yo‘l tutiladi. Maqol bilan matal ikkovi bir-biriga juda yaqin va o‘xshash. Ba‘zan maqolni mataldan, matalni maqoldan ajratish juda qiyin. Shu sababli maqol bilan matalning ikkovini bir xilda tasnif qilinadi. Maqol-matallarni sistemalashtirish uchun ularning mavzu yo‘nalishi, alifbo tartibi va yozib olingan hududlari bo‘yicha kartochkalar tuziladi.

Maqol-matal uchun kartochka nusxasi qo‘yidagicha:

Inv.No	Aytuvchining yoshi, nomi, kasbi, yozib oluvchi
Matn	

Kartochkadagi chiziqning yuqorigi qismining chap tomoniga maqolning folklor arxividagi inventar raqami, o‘ng tomoniga yozib olingan joyi (viloyat, tuman, qishloq nomi) aytuvchi yoshi, kasbi, urug‘i, undan keyin yozib oluvchining nomi, yozib olingan yili yoziladi. Kartochkaning chiziqdan pastgi qatta qismiga maqol-matalning matni aslida qanday yozilgan bo‘lsa shundayligicha ko‘chiriladi.

Agar imkoniyat bo‘lsa, kartochkaning pastki qismiga maqol yoki matalning qay vaqtda va nima munosabat bilan, qaysi o‘rinda kelishi (ishlatilishi) qisqacha yoziladi.

Maqol-matalni katalogga joylashtirish tartibi quyidagicha bo'ladi:

a) *Maqollarni tematik tasnif bo'yicha joylashtirish*. Misol uchun:

- 1) Vatan va vatanparvarlik haqida;
- 2) Mehnat va mehnatsevarlik haqida;
- 3) Ilm va hunar haqida;
- 4) Donolik va nodonlik haqida;
- 5) Mardlik va insonparvarlik haqida;
- 6) Botirlik va qurqoqlik haqida;
- 7) Hushyorlik va ehtiyotkorlik haqida;
- 8) Do'stlik, ahillik, va noittifoqlik haqida;
- 9) Oila va qardosh – urug' haqida;
- 10) Muxabbat va vafo haqida;
- 11) Qattalarga hurmat va izzat haqida;
- 12) Odob va tarbiya haqida;
- 13) Qadr-qimmat haqida;
- 14) Mehmon va mehmondorchilik haqida;
- 15) Yaxshi so'z va yaxshilik haqida;
- 16) To'g'rilik va egrilik haqida;
- 17) Tadbirkorlik va epsizlik haqida;
- 18) Iqtisod va tejamkorlik haqida;
- 19) Qanoat va sabr-chidam haqida;
- 20) Tozalik va sog'liq haqida;
- 21) Ishonch va umidsizlik haqida;
- 22) Maqtanchoqlik va manmanlik haqida;
- 23) Yomonlik, yolg'onchilik, ayyorlik, ishyoqmaslik, tekinxo'rlik haqida;
- 24) Baxillik haqida;
- 25) Pand-nasihat haqida;
- 26) Kambag'allik va faqirlik haqida;
- 27) Majoziy maqollar;
- 28) Ibratli maqollar;
- 29) Hayvonlar haqida.

Bunda har bir maqol-matal qaysi mavzuga qaratilgan ekanligi aniq ko‘rinib turishi uchun maqol matnidagi asosiy so‘zning tagiga chiziladi. Maqol-matal so‘z orasida bir voqeani qisqagina qilib obrazli jumla bilan ifodalaydi. Ba‘zan bir maqol so‘z orasida, boshqa o‘rinda ishlatiladi va boshqa mazmun, boshqa ma‘noni anglatib keladi. Bunday holda bunday maqol-matalni bir mavzugagina atab katalogga joylashgan taqdirda, ikkinchi mavzudan – ikkinchi o‘rindan topib bo‘lmay qoladi. Bunday vaqtda bu xil maqollarni topishmoq tasnifida ko‘rsatilganidek ko‘rsatkich ...(4 bet)... kartochkaga yozib kerakli mavzuga joylanadi.

b) Maqollarni alifbo tartibi bo‘yicha katalogga joylashtirish:

Alifbo tartibidagi maqol-matalning bosh harfiga qarab tartibga qo‘yilib katalogga joylanadi. Har bir harf orasiga ajratma kartochkaga (“razdelitelnyya kartochka”) tegishli harf yozilib alifbo tartibi bilan katalogga joylanadi. (kartochka nusxasi Q.1-bet).

v) Maqollarni toponimik indeks bo‘yicha katalogga joylashtirish:

Bunday materiallarni yozib olingan joyiga qarab alifbo tartibi bilan katalogga joylashtiriladi. (kartochka nusxasi Q.1-bet).

g) Maqollarni aytuvchi bo‘yicha katalogga joylatirish:

Qatochka nusxasi tubandagicha:

Inv.No	Aytuvchining yoshi, nomi, kasbi, yozib
	oluvchi, yozilgan vaqt
Matn:	

Kartochkadagi chiziqning yuqorigi tomonining chap tomoniga inventar raqami; chap tomoniga aytuvchining nomi, yoshi, kasbi, urug‘i, turar joyi, yozib olingan vaqti yoziladi. Chiziqdan pastida

maqol-matalning matni yoziladi. Aytuvchining nomi bo'yicha alifbo tartibida katalogga joylashtiriladi.

Xalq orasida juda keng tarqalgan mayda janrlardan biri topishmoq bo'lib, hozirga qadar jonli ijro holatida o'zining yashash tarzini saqlab kelmoqida. Shuning uchun folklor ekspeditsiyasi davomida topishmoqqa oid folklor materiallari anchagina to'planadi. Topishmoq juda kichik, ixcham, ko'pincha bir-ikki misradan iborat bo'lganligidan uni sistemalashtirishda ham har bir matnni aslyat holida qanday yozib olingan bo'lsa, xuddi shunday o'z holicha to'la ravishda kartochkaga ko'chiriladi.

Topishmoq janriga mansub folklor asarlarini sistemalashtirish uchun kartochka yozish tartibi tubandagicha:

Inv.No	<i>Aytuvchi:</i> Rahmatulla Yusuf o'g'li, 74 yosh, nafaqaxo'r
	<i>Manzili:</i> Samarqand vil., Nurota tum., Jo'sh jamoa xo'jaligi, Qorakisa q-q.
	<i>Yozib oluvchi:</i> Malik Murodov 1964-yil 14-mart.
Tendim, terakka chiqdim. (egar)	

Kartochkadagi chiziqning yuqorigi qismining chap tomoniga topishmoqning folklor arxividagi inventar raqami, o'ng tomoniga aytuvchining yoshi, kasbi, urug'i, matereal yozib olingan joy (viloyat, tuman, qishloq nomi) undan keyin yozib oluvchining nomi va yozib olingan vaqti yoziladi. Chiziqdan pastgi qismiga topishmoqning to'la matnni, undan pastiga javobi yoziladi.

Topishmoqni sistemalashtirishda uning mazmuniga, ya'ni javobiga qarab kartotekaga joylashtiriladi. Har bir topishmoq kartochkaga to'rt nusxa ko'chiriladi:

Bir nusxa kartochka topishmoqning javobi bo'yicha alifbo tartibi bilan alohida katalogga joylashtiriladi.

Ikkinchi nusxa kartochka topishmoqning javobiga qarab mavzu bo'yicha katalogga joylashtiriladi:

1. Tabiat, tabiat hodisalari, mavsum:

- 1) Osmon – koinot;
- 2) Tabiat hodisalar;
- 3) Mavsum vaqti;
- 4) Yer-suv;
- 5) Olov.

2. O'simlik olami:

- 1) Daraxtlar-mevalar;
- 2) Ekinlar;
- 3) Sabzavotlar.

3. Inson:

- 1) Odam va a'zolari;
- 2) Odamga xos qiliqlar.

4. Hayvonot olami:

- 1) Uy hayvonlari;
- 2) Yovvoyi hayvonlar.

5. Qushlar olami.

6. Hashoratlar.

7. Ish qurollari.

8. Texnika.

9. Uy-ro'zg'or asboblari.

10. Ot asboblari.

11. Yo'l-iz.

12. Kiyim-kechak.

13. Ovqat.

14. Kitob-yozuv.

15. Cholg'u asboblari.

16. Har xil.

17. Hazil va o'rin so'roq topishmoqlar.

(Bunday hazil savol topishmoqlar o'ziga xos tuzilishga ega. Ular hamma vaqt savol tariqasida aytiladi: qaysi, qanday, nima

kabi. Shu sababli bunday topishmoqlarni savolga qarab alifbo tartibida joylashtiriladi).

18. Kichik-kichik ertak topishmoqlar.

Bunday topishmoqlar matni kartochkaga sig'masa, ikkinchi varaqqa (kartochkaning orqa tomoniga) ko'chiriladi.

Ba'zi bir topishmoq bir necha javobga ega. Masalan: "Uzun terak, ichi kovak".

Bu topishmoq to'rt javobga ega: qamish, mo'ri, kuvi, miltiq stvoli. Bunday topishmoqlar qo'yidagicha ajratma (razdelitelnyy) kartochkaga yoziladi.

"Uzun terak, ichi kovak".	
a)	qamish
b)	mo'ri
v)	kuvi
g)	miltiq stvoli.

Kartochkaning baland (o'ng) tomoniga topishmoq matni, past (chap) tomoniga esa javoblar yoziladi.

Topishmoq qaysi mavzu yo'nalishi bo'limiga mansub bo'lsa javobi birinchi o'rinda, undan keyin boshqa javoblar yoziladi (qamish, mo'ri, kuvi, miltiq stvoli) har qaysisining o'z joyidan topib olishga imkon beradi. Bu ajratma kartochkada mazkur topishmoq necha javobga ega ekanligi aniq ko'rinib turadi.

Topishmoqning variantlari hammasi bir joyga qo'yiladi.

Yana bir nusxa kartochka topografik ya'ni materiallarni yozib olingan joylar bo'yicha, alifbo tartibi bilan katalogga joylashtiriladi. Joylar bo'yicha katalogga joylashtirishda tumanlar bo'yicha tartibga qo'yiladi. Shu sababli kartochkaga birinchi navbatda tuman, keyin viloyat yoziladi.

Inv.No	<i>Manzili:</i> Samarqand vil., Nurota tum., Jo'sh jamoa xo'jaligi, Qorakisa q-q.
	<i>Aytuvchi:</i> Rahmatulla Yusuf o'g'li, 74 yosh,

	nafaqaxo'r Yozib oluvchi: Malik Murodov 1964-yil 14-mart.
Tendim, terakka chiqdim. (egar)	

Hozirgi paytgacha xalqimiz orasida o'zining faol ijro holati va an'anaviy janr xususiyatlarini saqlab kelayotgan qo'shiqlarni yozib olish va sistemalashtirish amaliy folklorshunoslikning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Shuning uchun tabiiyki folklor ekspeditsiyasida to'plangan materiallarning salmoqli qismini xalq qo'shiqlari tashkil etadi. Folklor fondida ham xalq ijodining boshqa janrlari bilan bir qatorda xalq qo'shiqlari ham saqlanadi. Arxivda boshqa janrlarga qaraganda xalq qo'shiqlari qatta ko'lamni tashkil etadi. O'zbek xalq qo'shiqlarining turlari juda ko'p va mundarijasi ham rang-barang. O'zbek xalq qo'shiqlarining ko'pchiligi to'rtliklardan iborat.

Xalq qo'shiqlarining janrlari xilma-xil bo'lganligi sababli ularni mavzu yo'nalishi, mundarijasi va hayotiy-maishiy funksiyasiga qarab tasnif qilib sistemalashtirish orqali kartotekaga joylashtirish o'rinlidir. Har bir asosiy mavzuning o'z ichida yana kichik mavzuchalarga tasnif qilinadi. Bunday sistemalashtirish materialni tez topib olishga qulaylik va yengillik tug'diradi.

Bir nusxa kartochka umumiy tematik tasnif bo'yicha tuzilgan qo'shiqlar katalogiga joylashtiriladi. Ikkinchi nusxa kartochka aytuvchilar bo'yicha tuzilib, qo'shiqlar katalogiga joylashtiriladi. Ikkala katalogda ham qo'shiqlar mavzu bo'yicha joylashtirilgandan keyin har bir mavzu orasiga mavzu nomi yozilgan ajratma kartochka qo'yiladi. Shu mavzular ichidagi mayda mavzuchalarga kichikroq ajratma kartochkalar yoki boshqa rangdagi ajratma kartochka qo'yiladi.

Har bir to'rtlik qo'shiq yoki ko'p misralik she'r, terma, marosim qo'shiqlari va boshqa voqeaband qo'shiqlarning to'la

matnini sheva xususiyatlari aynan saqlangan holda aslida qanday yozib olingan bo'lsa xuddi shundayligicha har qaysisi alohida kartochkaga ko'chiriladi.

Qo'shiqlar uchun katalog kartochkasining nusxasi qo'yidagicha:

Aytuvchining yoshi, nomi, kasbi, yozib oluvchi, yozilgan vaqti, necha misradan iboratligi	Inv.Nº	
	Mavzu yoʻnalishi	turi
	izoh	
Matn		
Kartochka tuzilgan vaqt	Katalog tuzuvchining ismi sharifi	

Kartochkadagi chiziqning yuqorigi qismining chap tomoniga inventar raqami, o'ng tomoniga aytuvchining turar joyi, yoshi, kasbi; undan pastiga yozib oluvchining nomi, kasbi, asar yozib olingan vaqt yoziladi, keyin qo'shiqning misralari soni ko'rsatiladi. O'ng tomonining yuqori qismiga inventar raqami qo'yiladi. Pastroq qismi ikkiga bo'linib, chap tomoniga qo'shiq qaysi tematik bo'limida ekanligi, o'ng tomoniga ichki – kichik mavzusi ko'rsatiladi. Undan pastda izoh. Chiziqning pastki qatta qismi qo'shiq matnni yoziladi. Har bir to'rtlik alohida kartochkaga ko'chiriladi. Ko'p misralik – voqeaband qo'shiqlar hamda termalar kartochkaga ikki qator qilib yoziladi. Kartochkaning pastki qismi chap tomoniga kartochkani tuzilgan vaqti, o'ng tomoni pastki qismiga katalog tuzuvchining ismi-sharifi yoziladi.

To'plovchilar bo'yicha katalog

To'plovchi bo'yicha tuzilgan katalog bir to'plovchi qaysi joylardan va qancha material to'plaganligini ko'rsatadi.

To'plovchi bo'yicha tuzilgan katalogda kartochkadagi chiziqning yuqori qismiga tavsiflanayotgan folklor asarining to'plovchisi yoki yozib oluvchisining ismi sharifi hamda to'plangan vaqti yoziladi.

Chiziqdan pastga – chap tomonga folklor asarining inventar raqami (tartib soni), aytuvchi, aytuvchining turar joyi, unrdan yozib olingan folklor asarlarining umumiy soni va janr mansubiyati qayd etiladi. Mazkur kartochka nomi bo'yicha alifbo tartibi bilan katalogga joylashtiriladi.

To'plovchi bo'yicha tuzilgan katalog kartochkasi quyidagicha to'ldiriladi:

Yozib oluvchi: Sodiqov Sobirjon	
Inv.Nº1511	
Aytuvchi: Imomrashidova Jahon, 1922-yilda tug'ilgan	
Turar joyi: Chimkent vil. Sayram tum., Pushkin nomidagi jamoa xo'jaligi	
Yozib olingan folklor asarlari:	
Lapar – 25	Topishmoq – 8
Alla – 2	Yor-yor – 2
Yig'i – 1	Maqol – 6
Ertak – 1	

Xalq qo'shiqlari uchun topografik katalog nusxasi qo'yidagicha yoziladi.

Inv.Nº891
Samarqand vil., Bulung'ur tum., Gulbuloq qishlog'i

“ ”

Aytuvchi: Muhammadqulov Yaxshiboy, 59 yosh

Yozib oluvchi: Yaxshiboev Muhammadqul 1959-yil.

Kartochkaning o'ng tomon yuqorigi qismiga inventar raqami (shifr) qo'yiladi. Undan pastiga materialni olingan o'rni (joy) yoziladi. undan pastida, kartochkaning o'ng tomonida ikki qismi bo'lingan chiziqning chap tomoniga qo'shiqning tematik bo'limi, o'ng tomoniga shu mavzuning ichidagi qaysi turi ko'rsatiladi. Kartochkaning o'rta qasmiga qo'shiqning birinchi misrasi qo'shtirnoq orasiga olib yoziladi. Undan pastda aytuvchining nomi, yoshi, undan pastiga materialni yozib oluvchining nomi, yozib olingan vaqti ko'rsatiladi.

Topografik kartochkalar tumanlar bo'yicha alifbo tartibi bilan katalogga joylashtiriladi.

Aytuvchilar bo'yicha katalog

Bu katalog bir aytuvchidan qancha folklor materiali yozib olinganligini aniqlash maqsadida tuziladi.

Aytuvchi bo'yicha tuzilgan kartochkadagi chiziqning yuqori qismiga folklor asari ijrochisining ismi vaqarifi, tug'ilgan yili yoki yoshi yoziladi.

Chiziqdan pastga, chap tomonga ushbu aytuvchidan yozib olingan folklor asarining fonnidagi inventar raqami, aytuvchining turar joyi – manzili, asar yozib olingan (yoki to'plangan vaqt) va yozib oluvchi (to'plovchi)ning nomi, yozib olingan asarlarining umumiy soni ko'rsatiladi.

Kartochka aytuvchining nomi bo'yicha katalogka alifbo bo'yicha tartib bilan joylashtiriladi.

Aytuvchi bo'yicha tuzilgan katalog kartochkasi quyidagicha to'ldiriladi:

Aytuvchi: Imomrashidova Jahon, 1922-yilda tugʻilgan	
Inv.Nº1571	
Yozib oluvchi: Sodiqov Sobirjon, 1969-yil	
Turar joyi: Chimkent vil. Sayram tum., Pushkin nomidagi jamoa xoʻjaligi	
Yozib olingan folklor asarlari:	
Lapar – 25	Topishmoq – 8
Alla – 2	Yor-yor – 2
Yigʻi – 1	Maqol – 6
Ertak – 1	

Kartochkaning bu xilida bolalar qo'shig'i yoki o'yinini aytib bergan ijrochi (yoki ijrochilar), ularning yoshi, tug'ilgan yili, ma'lumoti, kasb-kori, bu materialni kimdan o'rganganligi va boshqa ma'lumotlar qayd qilinadi.

Xalq qo'shiqlarini ilmiy tavsiflash uchun aytuvchi bo'yicha kartochka nusxasi qo'yidagicha:

Aytuvchi: Muhammadqulov Yaxshiboy, 59 yosh “ ” Samarqand vil., Bulung'ur tum., Gulbuloq qishlog'i 1)Inv.Nº891 (2 bet) – 1959-yil 2)Inv.Nº951 (4-5 bet) – 1968-yil “ ” “ ” “ ”
--

Kartochkaning yuqorigi qismiga aytuvchining ismi-familiyasi, yoshi, kasbi, urug'i, aytuvchi haqida qisqacha harakteristika, undan keyin aytuvchining turar joyi yoziladi. Kartochkani o'rta

qismiga raqamdan keyin materialning folklor arxividagi inventar raqami va yozib olingan vaqti ko'rsatiladi. Agar bir aytuvchidan shu qo'shiq ikki marta yozib olingan bo'lsa, davomiga "2" raqami qo'yilib, xuddu shu tartibda yoziladi.

Kartochka aytuvchining nomi bo'yicha alifbo tartibi bilan katalogga joylashtiriladi. Agar aytuvchining fotosurati, qo'shiq ijrosining audio yoki videoyozuvi mavjud bo'lsa birinchi kartochkaning chap tomonida shu materiallarning fondagi saqlash birligi raqami qayd qilib qo'yiladi.

MUNDARIJA

O'zbek folklorining yozib olinishi va to'planishi tarixi	3
O'rta asr yozma yodgorliklari va o'zbek xalq ijodi.....	3
XX asr folklor ekspeditsiyalari va xalq ijodining yozib olinishi..	15
Mustaqillik davrida o'zbek folklorining to'planishi.....	46
Folklor to'plovchilik ishi va uning asosiy shakllari	56
Havaskor folklor to'plovchilik	61
Professional folklor to'plovchilik	77
Talabalar folklor amaliyoti.....	84
Maktabda folklor o'lkashunosligi	85
Folklor asarlarini to'plash usullari	89
Folklor asarlarini yozib olish metodikasi	96
Folklor asarlarini qo'lda yozib olish.....	97
Folklor asarlarini fonografik usulda yozib olish	102
Folklor asarlarini videotasmaga yozib olish.....	105
Talabalar folklor amaliyotini o'tkazish	108
Folklor asarlarini sistemalashtirish metodikasi.....	116
Mavzular bo'yicha tematik katalog.....	119
Topografik katalog.....	123
To'plovchilar bo'yicha katalog.....	137
Aytuvchilar bo'yicha katalog.....	138

**Mamatqul JO'RAYEV, Darmonoy O'RAYEVA,
Munis JO'RAYEVA**

FOLKLOR AMALIYOTI

Universitet va pedagogika institutlarining 5120100 – Filologiya va
tillarni o'qitish (o'zbek tili) bakalavr ta'lim yo'nalishi 1-kurs talabalari
uchun «Folklor amaliyoti» bo'yicha o'quv qo'llanma

Muharrir:

A. Qalandarov

Texnik muharrir:

G. Samiyeva

Musahhih:

Sh. Qahhorov

Sahifalovchi:

M. Ortiqova

Nashriyot litsenziyasi AI № 178. 08.12.2010. Original-maketdan
bosishga ruxsat etildi: 27.12.2021. Bichimi 60x84. Kegli 16 shponli.
«Times New Roman» garn. Ofset bosma usulida bosildi. Ofset bosma
qog'ozi. Bosma tobog'i 9,0. Adadi 100. Buyurtma №470.

“Sadriddin Salim Buxoriy” MCHJ

“Durdona” nashriyoti: Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko'chasi, 11-uy.
Bahosi kelishilgan narxda.

“Sadriddin Salim Buxoriy” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: 0(365) 221-26-45